



ISSN:2181-3558

«SCIENCE AND RESEARCH»

# JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION  
AND RESEARCH

---

INTEGRATSIYALASHGAN  
TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF  
INTEGRATED  
EDUCATION AND  
RESEARCH**

**ISSN 2181-3558**

**VOLUME 1, ISSUE 6**

**COLLECTION C**

**NOVEMBER 2022**



*Tahririyat a'zolari*

- Berdialiev A. f.f.d., prof.*  
*Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.*  
*Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.*  
*Babadjanova D. tarix.f.d., prof.*  
*Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.*  
*Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.*  
*Мадымапов Т.Т. yur.f.d., prof.*  
*Мурзаева С.Р. fil.f.d., prof.*  
*Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.*  
*Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.*  
*Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.*  
*Salayeva M.S. ped.f.d., prof.*  
*Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent*  
*Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent*  
*Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent*  
*Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent*  
*Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent*
- Achilov N.K. fil.f.d., dotsent*  
*Imomova G.M. fil.f.n., dotsent*  
*Zakirova H.R. f.f.n., dotsent*  
*Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik*  
*Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent*  
*Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent*  
*Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent*  
*Djuraeva M.Y. f.f.f.d.*  
*Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent*  
*Otadjanova M.O. f.f.d.*  
*Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent*  
*Hasanov A.M. fil.f.f.d.*  
*Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent*  
*Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent*  
*Safarova U.A. fil.f.d., dotsent*  
*Dexqonova M.Sh. f.f.d.*  
*Hasanov A.M. fil.f.d.*

*Mas'ul kotib: M.Yusupov*

## ЎЗБЕКИСТОН ЙЎЛ – КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ СОҲАЛАРИДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР

*Салимов Бахриддин Лутфуллаевич*

*Тошкент давлат транспорт университети профессори в.б.*

*Алиева Лайло Исмоиловна*

*Тошкент давлат транспорт университети талабаси*

*Мансурова Маржона Отабек қизи*

*Тошкент давлат транспорт университети талабаси*

**Аннотация.** Мақолада сўнгиги йилларда давлатимизнинг ҳам ички, ҳам ташқи сиёсатида туб ислоҳотлар рўй бераётганлиги, бошланган ислоҳотлар қисқа муддатлар ичида ўзининг ижобий натижасини кўрсата бошланаётганлиги, хусусан, коммуникация ва транспорт тизимида оламшумул ўзгаришлар рўй бераётганлиги таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** буюклик, халқпарварлик, ислоҳотлар, коммуникация, транспорт, модернизация.

**Аннотация.** В статье анализируется тот факт, что в последние годы как во внутренней, так и во внешней политике нашей страны происходят кардинальные реформы, что начатые реформы начинают показывать свои положительные результаты за короткий промежуток времени, и, в частности, глобальные изменения происходят в системе связи и транспорта

**Ключевые слова:** величие, патриотизм, реформы, связь, транспорт, модернизация.

**Кириш.** Ижтимоий муносабатларни фалсафий категориялар, яъни, яккалик, хусусийлик ва умумийлик категорияси ёрдамида тушунтириш, масалани бир томонини ёритишга хизмат қилади. Негаки, буюк шахсларнинг фаолиятини бирлаштириб турадиган, умумий жиҳатларини бўлиши табиийдир. Аввало, бу умумийлик буюк шахсларнинг барчасини юксак ақл-идроққа эгалликлари билан белгиланади<sup>1</sup>. Ушбу хусусият туфайли улар мавжуд вазиятни тўғри баҳолай оладилар ва келгусидаги воқеа-ҳодисаларни қайси йўналишда ривожланишини ҳам тахмин қила оладилар. Шунингдек, жамият барқарорлигига таҳдид солувчи турли хил хавф-хатарлар ҳақида маълумотларга эга бўла оладилар. Бу каби ҳислатларга эга бўлиш, ўз навбатида буюк шахсларнинг мавқеларини оддий инсонларга қараганда анча юқори бўлишига сабаб бўлади. Оқибатда халқ орасида чексиз ҳурмат-иззатга эга бўлган буюк шахсларнинг ижтимоий муносабатларга кўрсатадиган таъсирлари жуда кучайиб кетади. Буюк инсонларнинг энг буюк умумий томонларидан бири, бу уларнинг халқпарварликларидир<sup>2</sup>. Ижтимоий

<sup>1</sup> Salimov B.L. Expression of Dialectic Categories in the Individual's Social Life // openaccessjournals. eu. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. Volume: 1, Issue 4, 2021. -P.16-18.

<sup>2</sup> Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical psychology & sociology). – М., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.

муносабатларни тўғри тушуниб халқ дарди билан яшаш, халқ манфаатларини ўз манфаатларидан устун қўйиш – булар буюкликнинг муҳим мезонларидир. Зотан, Инсон қанчалар буюк бўлмасин, халқ ҳамма вақт ундан юқорида туради, чунки, кўпчилик одамларнинг бирлашишга бўлган кучли интилиши, доимо ўзининг якуний натижасининг афзалликларини ортишига олиб боради. Шундай экан, буюк шахслар қачонки ўзларида халқ манфаатларини ифодаласагина буюкликка эришадилар<sup>3</sup>.

**Муҳокама ва натижалар.** Айниқса охириги тўрт – беш йил ичида давлатимизнинг ҳам ички, ҳам ташқи сиёсатида туб ислохотлар рўй берди. Бошланган ислохотлар қисқа муддатлар ичида ўзининг ижобий натижасини кўрсата бошлади. Ўзбекистон фуқаролари ўз ҳаётларидаги ўзгаришларни амалда кўра бошладилар ва бундан мамнун бўлмоқдалар. Дунё ҳамжамиятида ҳам Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев олиб бораётган сиёсати илиқ кутиб олинмоқда. Жаҳон аҳли Ўзбекистонда бўлаётган ўзгаришларни, янгиланишларни эътироф этиб, маъқулламоқдалар. Янгиланаётган Ўзбекистонда Шавкат Мирзиёев раҳномолигида амалга оширилган ва оширилаётган ислохотларнинг асосий йўналишлари ижтимоий муносабатларни мустақиллигига олиб келаётир:

- давлат билан халқ муносабатлари буткул ўзгартирилди. Халқ давлатга эмас, давлат идоралари халққа хизмат қилиши керак деган тамойилга амал қилина бошланди;
- давлат идоралари фаолияти танқидий таҳлил этилди ва тубдан ўзгартирилди ёки қайта ташкил этилди;
- сўз эркинлиги, матбуот, умуман оммавий ахборот воситаларининг эркинлиги амалда таъминланиб, жамиятдаги хато ва камчиликлар баралла айтила бошланди;
- мамлакат иқтисодиётини модернизация қилиш, янгилаш борасида чуқур таркибий ислохотлар бошлаб юборилди;
- таълимнинг барча бўғинларида, жумладан, мактабгача таълим, халқ таълими, ўрта махсус таълими, олий таълим, олий таълимдан кейинги таълимда кенг миқёсдаги ўзгаришлар амалга оширилди;
- аҳоли саломатлигини сақлаш, бандлик ва аҳоли реал даромадларини ошириш, хотин-қизлар, ёшлар, ва кўмакка муҳтож аҳоли қатламларининг муаммоларини ҳал этиш борасида мутлоқо янгича ёндошувлар ишлаб чиқилди;
- чегарадош, қўшни давлатлар билан муносабатлар янада яхшиланди, йўллар очилди;

<sup>3</sup> Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

➤ мамлакат йўл – коммуникация ва транспорт соҳалардаги ислохотлар изчил олиб борилмоқда<sup>4</sup>. Жумладан, соҳадаги ишларни мувофиқлаштириш ва самарадорлигини ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги таъсис этилди;

➤ маҳаллий ва халқаро аҳамиятга эга бўлган йўллارни таъмирлаш ва қайта қуриш бўйича давлат дастурлари қабул қилинди ва уларнинг ижроси таъминланмоқда;

➤ темир йўллари реконструкция қилиш, янгидан қуриш ва электрлаштириш ишлари давом эттирилмоқда. Тошкент шаҳрида Ўрта Осиёда ўхшаши бўлмаган ер усти метро қурилиши муваффақиятли тарзда олиб борилаётир;

➤ ҳаво транспортини замонавийлаштириш ва унинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида салмоқли ишлар қилинди. Ўзбекистон ҳаво йўллари миллий авиакомпанияси негизда «Uzbekiston Airways» ва «Uzbekiston Airports» номли бир-бирдан мустақил компаниялар тузилди;

➤ халқаро транспорт коридорларини очиш, Ўзбекистоннинг йўл – коммуникация имкониятларини кенгайтиришга хизмат қиладиган лойиҳалар устида ишланмоқда. «Бир макон, бир йўл» халқаро лойиҳасидаги иштирок ва Трансафғон транспорт коридорини очиш борасида режалаштирилаётган ишлар шулар жумласидандир<sup>5</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқида йўл – коммуникация ва транспорт тизимини ривожлантириш ва янги босқичга олиб чиқишга доир масалаларга ҳам тўхталиб ўтди. Президентимизнинг таъкидлашича, «Бугун Марказий Осиё давлатлари олдида муҳим стратегик вазифа турибди. У ҳам бўлса, минтақамизнинг глобал иқтисодий, транспорт ва транзит йўлакларига чуқур интеграциясини таъминлашдир.

Шу муносабат билан Бирлашган Миллатлар Ташкилоти шафелигида **Транспорт-коммуникация алоқаларини ривожлантириш минтақавий марказини очишни таклиф этамиз**<sup>6</sup>.

Юқоридаги иқтибосдан кўришиб турганидек, Президент Шавкат Мирзиёев жаҳон ҳамжамиятининг нигоҳини Марказий Осиё давлатлари олдида кўндаланг турган муаммолардан бири коммуникация ва транспорт масалаларига қаратмоқда. Тўғридан-тўғри денгизга чиқиш йўллари йўқлиги ҳудуддаги давлатларнинг ривожига тўсиқ бўлиб келаётир. Албатта, ушбу муаммони ҳал этиш учун минтақа давлатлари, хусусан, Ўзбекистон

<sup>4</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407

<sup>5</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407

<sup>6</sup> Халқ сўзи. 2020 йил, 23 сентябр сони.

Республикаси ҳам муайян саъи-ҳаракатларни амалга оширмоқда. Агарда бу иш Бирлашган Миллатлар Ташкилотидек нуфузли халқаро идора шафелигида олиб борилса, ўйлаймазки, қутилган натижаларни қўлга киритамиз. Марказий Осиё минтақасининг дунё миқёсидаги глобал иқтисодий, транспорт ва транзит йўлакларига чуқур интеграцияси билан таъминланади. Шунда минтақа давлатларининг дунё бозорига чиқишида, эркин савдо-сотиқ алоқаларини олиб боришида тўсиқ бўлиб турган муаммолар ўз ечимини топишига ишонамиз.

**Хулоса.** Мустақилликка эришганимиздан сўнг мамлакатимизда йўл – коммуникация ва транспорт тизимини ривожлантириш борасида қилинган ишлар анчагина:

- аввало, Ўзбекистон ҳудудидаги йўл – коммуникация ва транспорт тизими Республика раҳбариятининг бўйсундирувида ўтказилди;

- тизимнинг янги шароитда самарали ишлаши учун тегишли ҳуқуқий асослар, қонунлар, низомлар, йўриқномалар ва ҳоказолар яратилди;

- йўл – коммуникация ва транспорт тизимининг структураси ўзгартирилди, Ўзбекистон ҳаво йўллари, Ўзбекистон темир йўллари каби акционерлик компаниялари ва қўмиталар ташкил этилди;

- йўл қурилиши ва транспорт турларини ривожлантириш бўйича чет давлатлар билан ҳамкорлик алоқалари йўлга қўйилди;

- Ўзбекистон транспорт тизимида хорижда ишлаб чиқарилган замонавий автомобиллар, автобуслар, локомотивлар, вагонлар ва самолётлардан фойдалана бошланди;

- Ўзбекистонда илк бор енгил автомобиллар ишлаб чиқарувчи завод ишга туширилди;

- Ўзбекистон замонавий кўприксоzлик ва йўл ўтказиш иншоатларини қуриш тажрибаси ўзлаштирилди ва амалиётга муваффақиятли татбиқ этилди;

- хорижий давлатлар билан бевосита юк ва йўловчи ташиш фаолияти амалга оширила бошлади;

- Ўзбекистоннинг барча ҳудуди темир йўл тармоғи билан тўлиқ боғланди ва ҳоказо.

## REFERENCES

1. Халқ сўзи. 2020 йил, 23 сентябр сони.
2. Salimov B.L. Expression of Dialectic Categories in the Individual's Social Life // openaccessjournals. eu. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. Volume: 1, Issue 4, 2021. -P.16-18.
3. Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical psychology & sociology). – М., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.
4. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

**O‘ZBEKISTONNING YEVROOBLIGATSIYALAR BOZORIDAGI  
ISHTIROKI*****G‘afurov Olimjon G‘olib og‘li****Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy univristeti  
Iqtisodiyot fakulteti Moliya kredit kafedrasida o‘qituvchisi****Abrueva Sevinch Akbar qizi****Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy univristeti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonning yevroobligatsiyalar bozorida ishtiroki xususida fikr yuritilgan bo‘lib yevroobligatsiyalarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga tasiri va ushbu ko‘rsatkichlari masalalari yoritilgan.

**Tayanch iboralar:** Yevroobligatsiya, bozor, bank tizimi, modernizatsiya, obligatsiya.

**Annotation.** This article discusses the participation of Uzbekistan in the Eurobonds market and highlights the impact of Eurobonds on the economy of Uzbekistan and issues of growth indicators.

**Keywords:** Eurobond, market, banking system, modernization, bond.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается участие Узбекистана на рынке еврооблигаций и освещается влияние еврооблигаций на экономику Узбекистана и вопросы показателей роста.

**Ключевые слова:** Еврооблигации, рынок, банковская, система, модернизация, облигация.

O‘zbekiston yevroobligatsiyalari bozorida ishtiroki xususida fikr yuritilgan ekanmiz avvalo yevroobligatsiyalar nima ekanligiga tuxtalib o‘tamiz yevroobligatsiya moliyaviy “lahja”da yevrobond deyiladi. Bu emitent (qimmatli qog‘ozlar va qog‘oz pul chiqarish huquqiga ega bo‘lgan davlat, bank yoki idora) uchun xorij valyutaisda chiqarilgan uzoq muddatli qimmatbaho qog‘ozlardir. Boshqacha aytganda, bu qarz majburiyati bo‘lib, muayyan vaqtdan so‘ng yevrobondlar kerak. Maqolamizda O‘zbekistonning yevroobligatsiyalar bozorida o‘rni haqida malumot beramiz.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki London fond birjasida umumiy qiymati 300 million dollar bo‘lgan 5 yillik yevroobligatsiyalarni chiqardi. Shunday qilib, u xalqaro kapital bozorining to‘la huquqli ishtirokchisiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida bank tizimi va kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari zarurligini alohida ta’kidlagan edi. Tijorat banklarining uzoq muddatli investitsiyalarini jalb qilish, shuningdek, xalqaro kapital bozoriga chiqish zarurati. Mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, xorijiy sarmoyalarni keng ko‘lamda jalb etishda xalqaro kapital bozori muhim o‘rin tutadi. 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi suveren yevroobligatsiyalarining muvaffaqiyatli muomalada bo‘lishi mahalliy korxonalar va O‘zbekiston Milliy bankining xalqaro bozorlarga chiqishi uchun yangi istiqbollarni ochdi. Bugungi kunda O‘zbekiston

Milliy banki moliya institutlarining mablag'larini jalb qilish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, ustuvor va strategik ahamiyatga ega bo'lgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha respublika yetakchi bankidir. O'zbekiston Milliy banki Citibank (AQSh), Natixis (Fransiya), SMBC Nikko (Yaponiya), Gazprombank (Rossiya) kabi xalqaro miqyosda tan olingan andarrayting banklari bilan birgalikda ilk bor yevroobligatsiyalar chiqardi. 2020-yilning 12-13 oktyabr kunlari bo'lib o'tgan rodshou doirasida AQSh, Yevropa, Rossiya Federatsiyasi va Osiyodan 70 dan ortiq global xalqaro investorlar ishtirok etgan global audiokonferensiya (Global Investor Call) o'tkazildi. Tadbirda Moliya vazirligi va Milliy bank vakillari investorlarga joriy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va bank sektorida olib borilayotgan islohotlarning borishi haqida ma'lumot berdi. Xususan, O'zbekiston Milliy banki tomonidan yevroobligatsiyalar chiqarilishi nafaqat bank, balki butun mamlakat uchun dolzarb ekanligini ta'kidladilar. Shuningdek, 12 ga yaqin yirik xalqaro investorlar bilan individual uchrashuvlar o'tkazildi, ularning savollariga umumiy javoblar berildi. 2020-yil 14-oktabrda birinchi foiz stavkasi investorlar takliflari asosida moliyaviy maslahatchilarning tavsiyalariga ko'ra 5-5,25 foiz (past-5 foiz) darajasida belgilandi. Yiliga 4,85% ni tashkil etgan kuponning yakuniy qiymati investorlar tomonidan yuqori talab va bu emissiya hajmidan ikki baravar ko'p bo'lganligi sababli savdo paytida boshlang'ich foiz stavkasidan 0,30% ga pasaygan. Yevroobligatsiyalarning bunday muvaffaqiyatli suzishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga xalqaro investorlar tomonidan ijobiy baho berilishini anglatadi. Bank tomonidan jalb qilingan mablag'larni iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatga ega yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirish rejalashtirilgan. Ma'lumot uchun: yevrobond – bu Emitent uchun xorijiy valyutada chiqarilgan xalqaro andarrayterlar sindikati orqali xorijiy investorlar o'rtasida joylashtirilgan qarzdorlik sertifikati.

TOSHKENT, 14-fevral (Sinxua) – O'zbekiston o'zining birinchi xorijdagi davlat obligatsiyalarini Britaniyadagi London fond birjasiga joylashtirdi, deb xabar berdi O'zbekiston Moliya vazirligi Markaziy Osiyo davlati o'z iqtisodiyotini xorijiy investitsiyalar uchun ochishi munosabati bilan. “Nyu-York, Boston va Londonda bo'lib o'tgan keng qamrovli marketing mashg'ulotlaridan so'ng, O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 13-fevralda o'zining 1 milliard AQSH dollari miqdoridagi ikki transhli obligatsiyalar taklifini muvaffaqiyatli baholadi”, deyiladi vazirlik xabarida. O'zbekistonning yevroobligatsiyalarning debyut emissiyasining muvaffaqiyati investorlarning mamlakatning mustahkam iqtisodiy asoslariga, islohotlar va qarzlarni boshqarish strategiyasiga bo'lgan ishonchini aks ettiradi, deyiladi vazirlik xabarida. O'zbekiston rasmiylari tomonidan obligatsiyalar joylashtirilishi tarixiy deb baholandi, chunki mamlakat o'n yillik iqtisodiy izolyatsiyadan so'ng birinchi marta xalqaro qarz bozorlariga chiqdi. Obligatsiyalarni chiqarish JP Morgan, Citi Bank va Rossiyaning Gazprombank tomonidan qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston rasmiylari O'zbekistonning ikki banki

va davlatga qarashli “O‘zbekneftgaz” shirkati ham xalqaro qarz bozorlariga chiqishni rejalashtirayotganini aytdi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlaridan so‘ng hokimiyat tepasiga kelganidan beri xorijiy sarmoyani jalb qilish maqsadida mamlakatning markazlashgan iqtisodiyotini isloh qilmoqda.

17-noyabr kuni Moliya vazirligi London fond birjasida O‘zbekistonning suveren xalqaro yevrobondlarini joylashtirilishini e‘lon qilgan. Moliya vazirligining “Gazeta.uz”ga ma‘lum qilishicha, yevrobondlar 10 yil muddatga chiqariladi. Obligatsiyalarning umumiy qiymati oshkor qilinmagan. 2019-yilning fevral oyida O‘zbekiston o‘z tarixida birinchi bo‘lib umumiy qiymati 5 milliardlik bo‘lgan 5 va 10 yillik yevrobondlarni joylashtirgan. Moliya vazirligi 19-noyabr kuni jahon moliya bozorlaridagi vaziyatdan kelib chiqib, suveren yevrobondlar chiqarilishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. 2019-yil noyabr oyi oxirida Moliya vazirining o‘rinbosari Ahadbek Haydarov 2020-yilda O‘zbekiston kamida 500 mln dollar miqdoridagi davlat yevrobondlarini qayta chiqarishi mumkinligi haqida xabar bergan edi.

Suveren obligatsiyalar xalqaro bozorga chiqqandan bir necha oy o‘tgach O‘zsanoatqurilishbank tomonidan emissiya qilingan ilk korporativ yevroobligatsiyalar jahon moliyachilarini qiziqtirib kelayotgan mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Yaqinda Bond&Loans internet nashri O‘zbekiston moliya vaziri o‘rinbosari Odilbek Isoqov va Bank boshqaruvi raisi Aziz Voitov bilan shu mavzuda suhbat uyushtirdi.

Bond&Londs: Mazkur ilk bitim bir necha jihatdan novatorlikka ega. Zero, bu O‘zbekiston tashqarisidagi ilk korporativ emissiya hisoblanadi.

Bank chakana savdoni kengaytirishga harakat qilmoqda, mahalliy kichik va o‘rta biznes rivojlanishiga yordam bermoqda. Yevroobligatsiya ushbu o‘zgarishlarning bir qismi bo‘lib, qarz beruvchiga kelgusi yillarda eng katta o‘shish yo‘nalishlari qanday bo‘lishini aniqlashga ko‘maklashadi.

Xulosa qilib aytganda, Yevroobligatsiyalarni chiqarish sababi qanchalik hurmatga loyiq ko‘rilsa, emitentga bo‘lgan ishonch shunchalik yuqori va ularni sotish shartlari shunchalik foydali bo‘ladi. O‘zbekiston suveren kredit reytingini olish va yevrobondlarni chiqarishdan oldin iqtisodiy axborotni yig‘ish hamda tarqatish tizimini, tegishli normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga muvofiq holga keltirishi, iqtisodiy tartibga solish tizimini yanada shaffof va investorlar uchun tushunarli qilishi kerak. Reytingni olgandan so‘ng O‘zbekiston banklari ham shu kabi reytinglarni qo‘lga kiritishi hamda xorijdan yanada past stavkalarda mablag‘lar jalb etishi mumkin bo‘ladi. Binobarin, korxonalarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari yanada ortadi. Ham mahalliy, ham xalqaro kompaniyalar uchun fond bozorlarida yangi istiqbollar ochiladi. Bularning barchasi xalqaro kapital bozoriga chiqishni yanada yengillashtiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Rashidov O.Yu, Qurbonov X.A., Karlibaeva. R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. — T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent. 14.06.2020
3. Чувахина Л. Г. Еврооблигации и рынок евробумаг // Вопросы современной науки и практики. Университет им. В.И. Вернадского. — 2011.
4. <http://spot.uz>
5. <http://xs.uz>

**КОММУНИКАЦИЯ АЛОҚА ЙЎЛЛАРИГА БЎЛГАН ЭХТИЁЖ ВА  
ДАСТЛАБКИ КАРВОН ЙЎЛЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ***Салимов Бахриддин Лутфуллаевич**Тошкент Давлат Транспорт Университети Профессори**Фармонов Илҳомжон Умид ўғли**Тошкент Давлат Транспорт Университети 2-курс талабаси**Алламбергенова Оразгул Жақсибай қизи**Тошкент Давлат Транспорт Университети 2-курс талабаси*

**Аннотация.** Мақолада коммуникация атамаси одатда икки хил йўналишда қўлланилиши: биринчиси, йўл ва транспорт инфратузилмасида; иккинчиси, ахборот тизими соҳасида. Бу икки соҳа моҳият ва мазмун жиҳатидан бир-биридан фарқ қилиши ҳамда қадимий карвон йўлларининг кишилиқ жамиятининг шаклланишида тутган ўрни таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** инсоният, йўл, коммуникация, транспорт инфратузилмаси, карвон йўллари.

**Аннотация.** В статье термин связь в основном используется в двух направлениях: во-первых, в дорожно-транспортной инфраструктуре; второй находится в области информационных систем. Анализируется, что эти два направления отличаются друг от друга по сути и содержанию, а также по роли древних караванных путей в формировании человеческого общества.

**Ключевые слова:** человечество, дорога, связь, транспортная инфраструктура, караванные пути.

**Кириш.** Инсониятнинг ер юзида қачон пайдо бўлганлиги ҳақидаги маълумолар йилдан йилга янгиланиб ўзгариб бормоқда. 1980 йиллардаги илмий манбааларда илк одамларнинг вужудга келиш вақти 2,5 – 3 миллион йил деб ёзилган эди. Орадан ҳеч қанча вақт ўтмасдан бу рақамлар икки бараварга ўзгариб кетди. Ҳозирча энг қадимий деб баҳоланаётган одамларнинг маконлари «1994 йилда Эфиопиянинг шимолида Арамиз дарёси ҳавзасида топилган. Australopithecus ramidus деб аталган ушбу мавжудотлар қолдиғининг ёши 4,5 миллион йилга тенг»<sup>7</sup> деб айтилмоқда. Ушбу 4,5 миллион йил бизнинг бир оғиз гапимиз билан айтилиб, жуда тез ва осон ёзилади. Бироқ, бу жуда катта муддат. Айниқса, инсон умри билан қиёслаганда. Эътибор қаратилса, одамзотнинг қадимий излари асосан Африка ва Осиё минтақаларидан топилган.

**Муҳокама ва натижалар.** Миллионлаб йиллар мобайнида табиатдан фақат тайёрини олиб яшаган ибтидоий одамларнинг ҳаёт тарзи жуда секинлик билан бўлсада, пастдан юқорига қараб ривожланиб борди. Негаки, одамзотга бошқа жонзотларга берилмаган ақл-идрок, тафаккур ва фикрлаш-мулоҳаза юритиш каби юксак қобилиятлар ато этилган эди. Шу боис, бундай

<sup>7</sup> В.А.Бахриддинов, С.А.Закирова, Г.А.Абдурахимова, С.Е.А'зам. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. Toshkent. 2008. 135 бет.

илоҳий имкониятлар соҳиби бўлган инсоннинг бошқа мавжудотлар сингари ёввойиликда ва маънисизликда кун кечириши мумкин эмас эди. Ҳам илоҳий ёндашув, ҳам илмий нуқтаи назаридан инсон бошқа мавжудотлардан фарқли равишда тараққий этишга маҳкум этилган эди. Инсоният ҳаётида туб бурилишлар ва кескин ўзгаришлар ясаган нуқталар жуда кўп бўлган<sup>8</sup>. Шулардан дастлабки ва асосийси, одамлар турмушида ижтимоий муносабатлар элементлари вужудга келганлиги билан белгиланади. «Одамзот насли ривожини нуқтаи назаридан қараганда Homo sapiens вужудга келиши давридаёқ амалда ижтимоий мавжудот бўлган. Зеро, индивидларнинг ижтимоий гуруҳларга бирикиб яшаши, яқка-ёлғиз бўлиб яшашидан доимо афзал бўлиб келган»<sup>9</sup>. Бунда одамлар муайян тартиб-қоидалар асосида яшай бошлаганлар. Хоҳишига келган ишни қилишга чек қўйилиб, одамлар ўзларининг биологик, жисмоний, ҳирсий ва бошқа эҳтиёжларини жиловлашни ўрганганлар. Уят-андиша, ор-номус, жуфтига муҳаббат, фарзандлик ва ота-оналик туйғулари каби ахлоқий меъёрлар шакллана борди. Асрлар ўтиши билан ижтимоий муносабатларнинг такомиллаштирилган бир қатор муҳим тамойиллар ишлаб чиқилди<sup>10</sup>. Ижтимоий муносабатларнинг ҳозирги кўринишига асос бўлган мазкур тамойиллар одамлар ҳаётида мутлоқо янги бир даврни бошлаб берди. Бу одамларнинг ҳаёти, пода бўлиб яшаган ибтидоий тўдалардан иборат одамларнинг ҳаётидан буткул фарқ қиларди. Улар ўз ўтмишдошлари сингари табиат нима берса ўша билан кифояланиб қололмас эдилар. Биргина териб-термачлаб кун кечириш уларни қониқтирмай қўйганди. Чорвачилик ва деҳқончиликни кашф этиш орқали улар табиат неъматларини кўпайтиришга, қайта ишлашга ва ўзларига мослаштиришга муваффақ бўлдилар. Табиат олдидаги қарамлик ўз ўрнини табиатдан фойдаланиш тамойилига бўшатиб берди. Ҳунармандчилик соҳаларини қадам-бақадам ривожланиши эса одамлар маиший турмушида анча силжишларга олиб келди<sup>11</sup>. Булар охир-оқибатда ижтимоий муносабатлар доирасидаги керак бўлган муҳим бир эҳтиёжни келиб чиқишига замин яратган. Бу эҳтиёж одамларнинг аввал бир-бирлари билан, кейин оилаларни, уруғларни, сўнгра қабилаларни, давлатларни, энг охирида эса минтақаларни ўзаро алоқа қилишга ёки алоқа йўлларини, яъни коммуникация тизимини яратишга бўлган эҳтиёждир. Луғавий жиҳатдан коммуникация ибораси – алоқа йўли, йўл, алоқа ва алмашинув каби маъноларни билдиради. Коммуникация атамаси одатда икки хил йўналишда қўлланилади: биринчиси, йўл ва транспорт инфратузилмасида; иккинчиси,

<sup>8</sup> Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

<sup>9</sup> Morgan L. Animal behavior. – L.: Arnold, 1908. – P. 229 ff.

<sup>10</sup> Salimov B.L. Expression of Dialectic Categories in the Individual's Social Life // openaccessjournals. eu. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. Volume: 1, Issue 4, 2021. -P.16-18.

<sup>11</sup> Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical psychology & sociology). – М., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.

ахборот тизими соҳасида. Бу икки соҳа моҳият ва мазмун жиҳатидан бири-бирдан фарқ қилади. Биз ўз илмий ишимизда биринчи йўналиш – йўл ва транспорт инфратузилмасига оид коммуникация ҳақида тўхталиб ўтамыз.

Инсон ақл-заковати ошиб бориб, онгли мавжудот сифатида фаолият кўрсатар экан унинг моддий ва маънавий эҳтиёжларининг доираси ҳам кенгайиб борди. Энди бу эҳтиёжларни қондириш учун биргина ўз уруғи ва қабиласи миқёсидаги фаолият одамлар учун камлик қила бошлади. Одамлар ўзи яшаётган жойдан ташқари бошқа ерлар борлигини ва унда бошқа халқлар яшаётганлигини англаб етишгач, уларда бу жойларга бориш ва у ердаги халқлар билан мулоқот ўрнатиш иштиёқи вужудга кела бошлади. Бунинг учун улар аввало, ўша жойларга олиб борадиган ҳамда қайтиб келишларини таъминлайдиган хавфсиз ва қулай йўлларни излаб топишлари лозим эди<sup>12</sup>. Айтиш мумкинки, одамлар ушбу муҳим вазифани уддалашган. Ўзга худудларга бориб келадиган алоқа йўллари асос солишган. Худди мана шу жиҳат йўл транспорт соҳасидаги коммуникациянинг шакллантирган<sup>13</sup> дастлабки омил бўлган. Ўзга юртларга етаклайдиган йўлларни топишган ва бу йўллардан юрганлар, ўша давр одамлари орасидан энг ақллилари бўлишган. Чунки у даврда шимол, жануб, шарқ ва ғарбни аниқлайдиган компаслар яратилмаган, қаерда чўллар, тоғлар, дарёлар ёки денгизлар борлигини ҳамда ана шу дарёларни қаергача оқиб боришини, денгизларни эса қаергача давом этишини кўрсатадиган географик хариталар бўлмаган. Йўллар бўйида ҳар хил белгиларни ва кўрсаткичларни ўрнатилганлиги тўғрисида гап ҳам бўлиши мумкин эмасди. У замонларда ҳамма нарса табиат ҳодисаларига ҳамда йўлбошловчиларнинг хотирасига ақл ва заковатига боғлиқ бўлган. Йўлбошловчилар куннинг чиқиши ва ботишига қараб, тунги вақтларда юлдузларнинг жойлашишига қараб ва бошқа табиат ҳодисаларига қараб ҳамда юрган жойларини эслаб қолиб, йўл топганлар. Бу жараёнда адашишиллар, хатоликлар ҳам бўлган ва уларнинг бадали баъзан оғир бўлган. Шу боис, узоқ йўлга отланганларнинг уйларига қайтиб келишлари масаласи ҳам гумон бўлган.

Шуни таъкидлаш керакки, бошқа мамлакатларга бориш-келиш йўлларини излаш, топиш дастлаб шунчаки қизиқиш, ишқибозлик билан бошланган бўлсада, кейинчалик унинг мақсад-муддаолари ўзгарди. Бу мақсадлар оддийликдан мураккабликка томон ижтимоий муносабатларнинг талабига қараб ўзгариб борган. Бу жараёнда инсоният ақлу-заковатининг маҳсули бўлган илм ва фаннинг ўрни катта бўлган. Илмий ибора билан айтганда, йўл – коммуникациясининг ривожиди сциентизмнинг яъни мавжуд

<sup>12</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

<sup>13</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

барча ижтимоий муаммоларни, жумладан коммуникацион муаммоларни ҳал этилишида фаннинг аҳамияти салмоқли бўлган.

Бу омиллар йиллар мобайнида йўл коммуникация тизимини ривожланишида муҳим асос сифатида хизмат келиб келмоқда<sup>14</sup>. Айтиш мумкинки, бу жиҳатлар бир-бирини тўлдириб, баъзан омухталашган ҳолатда мавжуд бўлиб келган. Масалан, ўтмишдаги жангу-жадаллар тарихи билан танишганимизда, давлатлар орасида харбий, сиёсий можаролар бошланишидан олдин улар ўртасида коммуникация алоқа йўллари очилиб, дипломатик алоқалар ўрнатилганлигини, савдо-сотик ишлари олиб борилганлигини гувоҳи бўламиз. Зотан, бегона ўлкаларга сафар қилувчи карвонбошилар, савдогарлар асосий ишларига қўшимча равишда ўз ҳукмдорларига маълумотлар етказиш, айғоқчилик қилиш ишлари билан ҳам шуғулланганлар. Лекин, нима бўлмасин бошқа юртларга алоқа йўлларининг очилиши, турли соҳаларда ҳамкорликларни йўлга қўйилиши, халқларнинг ҳаётида прогрессив аҳамият касб этган<sup>15</sup>.

Худудлар ўртасида алоқа йўллари кашф этилгач, вақт ўтган сари ундан ўтадиганлар сони ортиб борган. Йиллар, асрлар давомида бу йўллар доимий фойдаланадиган йўлларга айланган. Жумладан, Осиё қитъаси қадимий йўллар вужудга келган худуд саналади. Тарихий манбааларда кўрсатилишича «Қадимий карвон савдо йўлларида бири «Лаъл йўли» деб аталган. Бу йўл милоддан аввалги 3–2-минг йилликларда очилган. Йўлнинг «Лаъл йўли» деб аталишига бу йўлдан қимматбаҳо лаъл тошининг ташилишига сабаб бўлган. У ложувард деб ҳам аталган. «Лаъл йўли» Помир тоғидан бошланиб, Эрон, Месопотамия ва Миср орқали ўтган. Лаъл тошларидан ясалган буюмлар ҳатто Миср фиръавлари макбаралари (эҳромлари)дан ҳам топилган.

Қадимги машҳур савдо йўлларида яна бири «Шоҳ йўли» деб аталади. Унга Эрон шоҳлари асос солишган ва назорат қилишган. «Шоҳ йўли» икки йўналишли бўлиб, биринчиси Ўртаер денгизи бўйидаги турли шаҳарларни Эрон билан боғлаган бўлса, иккинчиси Эрон ва Бактрия орқали ўтиб Олтой ва Ҳиндистонгача борган»<sup>16</sup>.

Ўтмишдан қолган ёзувлар ва моддий ёдгорликлар қадимги Шарқ ва Ғарб ўртасида, кўчманчи халқлар яшаган ҳозирги шимолий Хитой, Монголия, Россиянинг сибири, марказий қисми, Қозоғистон Европа худудларини боғлаган бепаён кенгликлардан ўтувчи шимолий савдо йўли ҳисобланган «Яйловлар йўли» мавжуд бўлганлигини таъкидлашмоқда. Бу ерлардаги манзилгоҳлардан топилган ашёвий далиллар ушбу худудлар ўзаро алоқада бўлганлигини тасдиқламоқда. Бир неча минг йиллик тарихга эга ушбу

<sup>14</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

<sup>15</sup> Салимов Б.Л. Жизненный путь природы и общества состоит из цепи случайностей и необходимостей // Colloquium-journal. –v 2020. -№24 (76). Część 2. -С. 33-35.

<sup>16</sup> Tarixdan hikoyalar. U. Jo'rayev [va boshq.]. – Toshkent: Cho'lon. 2015. – Б. 61.

«Яйловлар йўли» Хитой манабааларида («Цавюан лу») деб кўрсатилган<sup>17</sup>. Ушбу йўл бўйида яшаган кўчманчи чорвадор халқларнинг мазкур йўлдан савдо-сотикда фойдаланганлар. Улар ўзлари қимматбаҳо метал ва тошлардан ясаган ҳар хил буюмларини савдогарлар олиб ўтадиган турли маҳсулотларга, жумладан ипак матоларига алмаштирганликлари ҳақида ҳам маълумотлар учрайди. Дарвоқе, ушбу йўлдан Хитойдан Ғарб томон ипак матолари ҳам олиб ўтилган. Лекин, бу билан ушбу йўлни «Буюк ипак йўли»ни бир йўналиши деб билиш ёки уларни бир-бири билан аралаштириб юбориш тўғри эмас. Чунки, улар алоҳида-алоҳида йўллар ҳисобланади. Ушбу мазмундаги хулосани бир қатор хитой олимлари ҳам маъқуллашган<sup>18</sup>.

**Хулоса.** Мамлакатлар ўртасида, уларни бир-бирлари боғлаб турувчи мунтазам алоқа ва савдо йўллари ўрнатилиши одамларнинг ақл-тафаккурини, дунёқарашини, атроф-муҳитга бўлган муносабатини ҳам ўзгартириб юборди. Юқоридаги иқтибосдан кўриниб турганидек, илк карвон савдо йўллари Осиёда пайдо бўлган ва бу йўллар қитъанинг катта қисмини қамраб олган. Бу йўлларнинг мавжудлиги Осиё халқларининг ижтимоий – иқтисодий, маданий – маърифий ҳаётида ижобий ўзгаришларга сабаб бўлган. Давлатчилик тамойилларини шаклланишига ва ривожланишига таъсир кўрсатган. Иқтисодий муносабатларнинг асоси бўлган савдо-сотик тизимининг вужудга келиши ҳам айнан алоқа йўллари билан чамбарчас боғлиқдир. Бунда савдо-сотик дастлаб айрибошлаш тарзида амалга оширилган бўлса, кейинчалик тилла, қумуш каби металллардан ясалган тангалар кўринишидаги пул воситасида амалга оширилган. Пулнинг кашф этилиши ва ундан фойдаланишнинг бошланиши эса, кейинчалик ижтимоий муносабатлар доирасида мисли кўрилмаган оқибатларга олиб борди. Пул ва бошқа моддий бойликларга бўлган қизиқишнинг ортиб бориши кейинги минг йиллар мобайнида инсониятга доимий йўлдош бўлиб келаётган синфлар, ижтимоий муносабатлар субъектлари: табақалар ва тоифаларнинг шаклланишига сабаб бўлди. Буларнинг мавжудлиги эса улар орасида ижтимоий адолатни таъминлашдек долзарб муаммони доимо кун тартибида бўлиши учун асос бўлмоқда.

### References

1. В.А.Баҳритдинов, С.А.Закирова, Г.А.Абдураҳимова, С.Е.А'зам. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti. Toshkent. 2008. 135 бет.
2. Morgan L. Animal behavior. – L.: Arnold, 1908. – P. 229 ff.
3. Tarixdan hikoyalar. U. Jo'rayev [va boshq.]. – Toshkent: Cho'lpon. 2015. – B. 61.
4. Цаюан сичоу чжилу юй Чжунгъя вэнминг (Яйловлараро ипак йўли ва Марказий Осиё маданияти). – Урумчи: 1994.- Б. 9-19.

<sup>17</sup> Цаюан сичоу чжилу юй Чжунгъя вэнминг (Яйловлараро ипак йўли ва Марказий Осиё маданияти). – Урумчи: 1994.- Б. 9-19.

<sup>18</sup> Лю Йингшэнг. Силу вэнхуа. Цаюнь жюан (Ипак йўлидаги маданият. Яйлов йўлларида оид жилд). Чжэянг. 1996. 19 б. Янг Жяншин, Лу Вэй. Сичоу чжилу (Ипак йўли). – Ланжоу: 1988. – Б. 108.

5. Лю Йингшэнг. Силу вэнхуа. Цаоюнь жоан (Ипак йўлидаги маданият. Яйлов йўлларига оид жилд). Чжэжянг. 1996. 19 б. Янг Жяншин, Лу Вэй. Сичоу чжилу (Ипак йўли). – Ланжоу: 1988. – Б. 108.
6. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.
7. Салимов Б.Л. Жизненный путь природы и общества состоит из цепи случайностей и необходимостей // Colloquium-journal. –v 2020. -№24 (76). Сześć 2. -С. 33-35.
8. Salimov B.L. Expression of Dialectic Categories in the Individual’s Social Life // openaccessjournals. eu. International Journal of InnovativeAnalyses and Emerging Technology. Volume: 1, Issue 4, 2021. -P.16-18.
9. Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical psychology & sociology). – М., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.
10. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.
11. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

## ЖАМИЯТДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТГА БЎЛГАН ЭХТИЁЖНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ

*Салимов Бахриддин Лутфуллаевич*

*Тошкент Давлат Транспорт университет профессор вб*

*Бобоқулов Бехруз Бобоёр ўгли*

*Тошкент Давлат Транспорт университет 2-курс талабаси*

*Эсонов Шокиржон Элмурод ўгли*

*Тошкент Давлат Транспорт университет 2-курс талабаси*

**Аннотация.** Мақолада ижтимоий муносабатларнинг меваси бўлган жамиятнинг вужудга келиши одамларни ибтидоийлик давридан кутқарганлиги ҳамда жамиятнинг вужудга келиши, одамлар турмуш тарзида коммуникациянинг мавқеини кучайишига, транспортга бўлган эҳтиёжнинг вужудга келишида ва унинг кейинги ривожланишида муҳим аҳамият касб этганлиги таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** жамият, эҳтиёж, йўл, транспорт, коммуникация.

**Аннотация.** В статье анализируется тот факт, что создание общества, являющееся плодом общественных отношений, спасло людей от первобытных времен, и что создание общества сыграло важную роль в укреплении позиции общения в образе жизни людей, появлении потребности в транспорте и его дальнейшее развитие.

**Ключевые слова:** общество, потребность, дорога, транспорт, связь.

**Кириш.** Илмий мулоқотда, оммавий ахборот воситаларида ва умуман кундалик турмушда қўлланиладиган ибора ва тушунчалар ўзининг қамраб олиш доирасига кўра турли хил даражада бўлади. Баъзи сўзлар тор маънони берса, бошқалари жуда кенг маънода қўлланилади. Ижтимоий муносабатлар тушунчаси жуда кенг маънодаги тушунчадир. Ижтимоий муносабатлар – инсон онгли фаолияти натижасида яратилган ва шакллантирилган мураккаб система бўлиб, унда барча соҳалар ҳамда йўналишлар доирасида ўзаро муносабатлар ўрнатилган бўлади. Транспорт ва коммуникация тизими ҳам ана шу муносабатларнинг ажралмас таркибий қисми сифатида намоён бўлади. Ижтимоий муносабатлардаги барча соҳалар ҳамда йўналишлар ўзаро детерминистик алоқадорликда бўлиб, доимо бир-бирини тақозо этиб келган. Илмий ибора билан айтганда, «Ижтимоий муносабатлар учун ўзаро алмашинув парадигмаси бир бутунликдаги яхлит тизимдир».

**Муҳокама ва натижалар.** Ижтимоий муносабатларнинг меваси бўлган жамиятнинг вужудга келиши одамларни ибтидоийлик давридан кутқарган. Жамиятнинг вужудга келиши, одамлар турмуш тарзида коммуникациянинг мавқеини кучайишига, транспортга бўлган эҳтиёжнинг вужудга келишида ва унинг кейинги ривожланишида муҳим аҳамият касб этди. Аввал оила, кейин уруғ ва қабила бўлиб яшашни ўрганган одамлар жамоасини аввалгидай тор худуд доирасида яшаш қониқтирмай қолган. Энди улар атроф муҳитдан

ўзларига яшаш учун қулай жой излай бошлашган<sup>19</sup>. Шу мақсадда теваарак атрофдаги катта-катта ҳудудларни ўрганишган, ўзлаштиришган. Бунинг учун янги-янги йўллар, сўқмоқлар очишган. Қулай жой топилгач эса, шу ерда ўрнашишган. Ушбу манзилгоҳлар ўрнида, вақт ўтиши билан шаҳарлар вужудга келган. Бундан хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, қадимий шаҳарлар ҳар томонлама мақбул бўлган ерда, жумладан, коммуникация масалалари ечим топган ҳудудларда барпо этилган. Ана шундай қулай жойда қад ростлаган шаҳарларнинг истиқболи ҳам юксак бўлган. Қадимги юнон алломаси Платон ибораси билан айтганда ҳақиқий шаҳар бу «...Одамларнинг таҳсинга лойиқ одатлари ва ахлоқи рўёбга чиқишига шартшароит яратилган, жойлашган ери, табиий шароити қулай, яъни унга аҳоли учун озиковқат ва бошқа зарур нарсаларни олиб келиш мумкин бўлган шаҳардир». Ҳеч иккиланмасдан айтиш мумкинки, буюк юнон алломасининг бу мулоҳазаси тўғридан-тўғри коммуникацияга дахлдордир<sup>20</sup>. Чунки, аҳоли учун озиковқат ва бошқа зарур нарсаларни олиб келиш мумкин бўлган, деган жумла қўлланилмоқда. Зарур нарсаларни олиб келиш учун нима бўлиши керак?

Албатта, йўллар бўлиши керак. Шаҳарни бошқа ҳудудлар билан боғловчи йўллари қанча кўп бўлса ва шаҳар минтақалараро йўл бўйида жойлашган бўлса, шак-шубҳасиз бу шаҳар ривожланади. Шунда, Афлотун айтганидек, бундай шаҳарларга ҳаёт учун, тараққиёт учун керак бўладиган ҳамма нарсаларни келтириш имконияти бўлади. Бундай шаҳарларда, ҳаётини зарур бўлган нарсаларга танқислик кўзатилмайди. Чунки исталган ҳудуддан керакли маҳсулотлар пешма-пеш келтирилаверилган. Буни исботлаш учун ортиқча уриниш ҳам шарт эмас. Оддийгина, тарихда машҳур бўлган ва ҳозирги кунда ҳам мавжуд бўлган, бир неча минг йиллик тарихга эга бўлган шаҳарларнинг географик жойлашувига, ички ва халқаро йўллар силсиласида тутган ўрнига қарасак бас, ҳаммаси ойдинлашади. Негаки, маълум ва машҳур шаҳарларнинг ҳаммаси географик қулай ҳудудда ва транзит йўллар кесишган нуқтада жойлашган. Жумладан, Самарқанд, Бухоро, Тошкент, Термез каби шаҳарларимиз худди шундай муҳим чорраҳаларда жойлашганини кўришимиз мумкин. Биринчидан, ушбу шаҳарлар ҳудуддаги маҳаллий ички йўллар марказида жойлашган. Иккинчидан, Шарқ ва Ғарбни боғлаган, инсоният тарихидаги энг узун карвон йўли бўлган «Буюк ипак йўли» нинг тармоқлари ҳам мазкур шаҳарлардан ўтган. Ўз навбатида, бу омиллар шаҳарларнинг гуллаб-яшнашига имкон берган. Ушбу омиллар, бошқа мамлакатлардаги йирик саноат ва маданий марказларга айланган шаҳарларнинг шаклланишида ҳам ҳал қилувчи аҳамият касб этганлигини ишонч билан айтишимиз мумкин. Демак, йўлларнинг кўплиги, мақбул

<sup>19</sup> Salimov B.L. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

<sup>20</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407

коммуникацион тизимнинг мавжудлиги шаҳарлар учун сув ва ҳаводек зарурдир.

Кишилик жамияти ривождаги кўп асрлик ушбу тарихий ҳақиқат, айти кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Ҳозир ҳам, замонавий дунёда йўл – коммуникация масалалари ўз устуворлигини сақлаб келмоқда. Дунё сиёсий харитасига назар ташласак, ушбу мулоҳазамиз ўз тасдиғини топади. Маълумки, ҳозирги кунда жаҳонда 230 ортиқ давлатлар мавжудлиги таъкидлаб келинади. Бу давлатларнинг майдони, аҳолисининг сони, ривожланиш даражаси ҳар-хил. Масалан: АҚШ, Хитой, Россия, Франция, Буюк Британия, Германия, Япония, Испания, Италия, Жанубий Корея, Сингапур, Малазия, Саудия Арабистони, БАА, Қувейт ва бошқалар. Собик иттифоқ ўрнида вужудга келган Латвия, Литва, Эстония каби давлатлар. Ушбу давлатларнинг ҳаммасида йўл – коммуникация масалалари тўлиқ ўз ечимини топган. Яъни, бу давлатлар тўғридан-тўғри денгизга чиқиш имконига эга. Ва айтиш мумкинки, бундай имкониятнинг мавжудлиги ушбу давлатларнинг бугунги мавқеига эришишида ҳал этувчи омиллардан бири бўлган. Айти дамда ҳам жуда катта имконияларга эга бўлган жаҳоннинг етакчи давлатлари кўшимча йўл – коммуникация йўлакларини очиш бўйича ҳам рақобатлашишмоқдалар<sup>21</sup>. Негаки, янги транспорт коридорларини очилиши иқтисодий салоҳиятини ошишига ва сиёсий таъсир доирасини кенгайтишига олиб боради. Бундай курашлар Европада, Кавказда ва Осиё минтақасида кескин тус олмоқда. Албатта, янги транспорт коридорларини очилиши, озми кўпми минтақадаги ривожланаётган давлатларнинг ижтимоий – иқтисодий тараққиётига ўз таъсирини кўрсатади. Табиийки, бу таъсир кўпроқ ижобий характерда бўлади. Бунинг боиси, йўлларнинг қурилиши ва йўлларда транспортларнинг гавжум бўлиши, йўл бўйидаги ҳудудлар ривожига қулай шароит яратади. Шу сабабли, ривожланаётган мамлакатлар ҳам, янги транспорт коридорларини яратиш лойиҳаларида иштирок этишни маъқул кўрмоқдалар. Ана шундай лойиҳалардан бири, Хитой томонидан илгари сурилган «Бир макон, бир йўл» деб номланади.

Шу кунгача, «Бир макон, бир йўл» лойиҳаси доирасида икки бор халқаро форум ўтказилган: биринчиси, 2017 йилда ўтказилган; иккинчиси, 2019 йилда ўтказилган. Иккала форум юксак даражада ўтказилиб, уларда халқаро ҳамкорликка оид кўплаб долзарб масалалар муҳокама этилган. Мазкур лойиҳанинг Ўрта Осиё республикалари учун, хусусан, Ўзбекистон учун аҳамияти катта. Чунки, «Бир макон, бир йўл» лойиҳаси Ўзбекистонга жаҳон бозорига чиқиш, шу мақсадда янги коммуникация йўлларини очиш учун кенг имкониятлар эшигини очмоқда. Буни тўғри англаган Ўзбекистон дастлабки кунларданок, «Бир макон, бир йўл» лойиҳасини маъқуллади ва унинг фаол аъзосига айланди. Лойиҳа миқёсида амалга оширилиши керак

<sup>21</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407

бўлган маҳаллий ва халқаро транспорт йўллари қуриш ишларини жадал суръатларда олиб бормоқда. 2016 йилда Фарғона водийси билан боғловчи Ангрэн – Поп электрлаштирилган темир йўлининг ишга туширилиши эзгу мақсад йўлида олға ташланган катта қадам бўлган. Ушбу йўлнинг қурилиши билан Хитойгача бўлган масофа 270 километрга қисқарадиган бўлди. Эндиги асосий вазифа Хитой – Қирғизистон – Ўзбекистон темир йўлининг қурилишидир. Келгусида мазкур темир йўл линиясининг ишга туширилиши мамлакатимиз иқтисодиёти учун кенг имкониятлар эшигини очишига шубҳа йўқ<sup>22</sup>. Бу имкониятлар қуйидаги омиллар билан белгиланади: биринчидан, ушбу темир йўл орқали Ўзбекистон Хитойга, Хитой орқали Ўрта ва Узоқ Шарқ мамлакатларига тўғридан-тўғри чиқиш имконига эга бўлади; иккинчидан, мазкур минтақалараро ўзаро юк ташиш вақти 5 – 6 суткага қисқартирилади; учинчидан, Ўзбекистон ҳудудидан Шарқ билан Ғарбни боғловчи халқаро йўл ўтади. Натижада транзит юклардан олинувчи маблағлар бюджетни янада тўлдиришга хизмат қилади.

Бироқ, бу ҳозирча, келгусидаги режалар бўлиб турибди. Ушбу темир йўл қурилиши учун маълум бир тайёргарлик ишларини қўриш тақозо этилади. Темир йўл линияси ўтадиган доволларда тунеллар, кўприклар қуриш, электр линиясини улаш, вокзаллар ва станциялар барпо этиш ва бошқа ишлар режалаштирилмоқда. Энг аввало, мазкур лойиҳани руёбга чиқариш учун маблағ топиш, сармоя киритиш вазифаларини ҳал этиш жараёни кетмоқда. Шу мақсадда Хитой, Қирғизистон ва Ўзбекистон томонлари ўзаро маслаҳатлашган ҳолда, келажакда бунёд этилиши керак бўлган, Шарқ ва Ғарбни боғлайдиган яна бир муҳим кўприк бўлиши кутилаётган йўл қурилиши бўйича қилиниши лозим бўлган ишларни келишиб олишмоқда. Зеро, бундай йирик лойиҳалар фақат ҳамкорликдагина амалга оширилади ва шундагина қутилган натижани беради<sup>23</sup>.

Коммуникация тизимини ривожлантириш борасидаги ҳал этилиши лозим бўлган кейинги муҳим вазифа – ғарбий, жанубий ғарбий ва жанубий транспорт кооридорларини очиш масаласидир. Бунда қуйидаги йўналишлардаги йўлларда мунтазам транспорт алоқаларини йўлга қўйиш режалаштирилмоқда:

- Туркманистон орқали Каспий денгизига, ундан Кавказ, Эрон, Туркия ва Европа давлатлари билан боғлайдиган ғарбий ва жанубий ғарбий йўналишлар;

- Афғонистон орқали Эрондаги денгиз портларига олиб борадиган жанубий йўналиш;

<sup>22</sup> Баҳриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407

<sup>23</sup> Баҳриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407

- Афғонистон орқали Покистон денгиз портларига уланиши керак бўлган жанубий – Трансафғон транспорт йўналиши.

**Кириш.** Саноатда юқори босимли (ЮБПЕ) полиэтилен этиленни 200-280°C да 150-300 МПа босим остида конденсирланган газ фазасида радикал полимерланиш инициаторлари иштирокида полимерлаб олинади. Саноатда ЮБ полиэтиленни ишлаб чиқариш учун бир-биридан конструкциялари билан фарқланувчи икки хил реактор қўлланилади. Булардан бири идеал сиқиб чиқариш принципида ишловчи қувур кўринишидаги аппарат бўлса, иккинчиси аралаштиргичли вертикал цилиндр аппаратиидел аралаштириш принципида ишловчи, аралаштиргичли автоклавлардир. Саноатда ишлатиладиган қувурли полимерловчи реакторлар, қувур ичида қувур типисидаги кетма-кет уланган иссиқлик алмашгичлардан иборатдир. Реактор қувурлари ўзгарувчан диаметрли бўлади (50-75 мм). қувурларнинг бир хил бўлимлари ретубрент ёки калач деб номланувчи массив ичи бўш плиталар ёрдамида бириктирилади. Қувур ва калачлар бир-бири билан кетма-кет бириктирилган қобиқ билан ўралган. Чиқаётган иссиқликни ортиқ қисмини реакция мукитидан олиб чиқиб кетиш учун иссиқлик ташувчи сифатида 190-230°C ли ўта қиздирилган сув ишлатилади. Ўша қиздирилган сув қувурли реактор қобиқига реакция массаси қамда этилен қаракатига қарама-қарши томондан юборилади. Юқори қароратли ўта қиздирилган сув қувур

деворларида полимер пардасини қосил бўлишини олдини олиш мақсадида ишлатилади.

Расм.1 да қувурли реакторда юқори босимли полиэтиленни узлуксиз усулда олишни умумий схемаси келтирилган.



Расм.1 Газ фазасида юқори босимли полиэтиленни ишлаб чиқариш жараёнининг схемаси: 1-коллектор; 2-паст босимли этиленни аралаштиргичи; 3-биринчи каскад компрессори; 4-юқори босимли этиленни аралаштиргичи; 5-иккинчи каскад компрессори; 6-қувурли реактор; 7-юқори босимли ажратгич; 8-паст босимли ажратгич; 9-гранулаловчи жихоз; 10-тебранма элак; 11,14-циклонли сепараторлар; 12,15-совитгичлар; 13,16-фильтрлар; 17-дастлабки сикиш компрессори

**Тажриба қисми.** Полимерловчи-реактор уч бўлинмадан ташкил топган бўлиб, ҳар бир бўлимдан олдин ишлатилаётган инициатор турига қараб газ ва реакцион аралашмани 120-190°C гача иситиш учун иссиқлик алмашгичлар ўрнатилди. Учинчи бўлим охирида совитгич ўрнатилган бўлиб, унда реакция массаса 200-250°C гача совитилади.

**Тажриба натижалари ва уларнинг муҳокамаси.** Газларни ажратиш цехидан янги этилен 0.8-1.1 МПа босим остида коллекторга (1) ва ундан кейин аралаштиргичга (2) келиб тушди. Бу эрда у паст босимли қайтма этилен билан аралаштирилди. Бу аралашмага кислород қўшилиб биринчи каскаддаги уч поқонали компрессорга узатилди ва бу эрда 25 МПа босимгача сиқилди. Этилен ҳар поғонада сиқилганидан кейин совитгичларда совитилиб, сепараторларда ёқдан ажратилди ва ундан кейин аралаштиргичга (4) узатилади. Бу эрда у ажратгичдан (7) келаётган юқори босимдаги қайтма этилен билан аралаштирилди. Кейин аралашма иккинчи каскаддаги икки поқоналик компрессорга (5) узатилди ва бу эрда у 245 МПа босимгача сиқилди. Биринчи сиқилган этилен совитгичларда совитилиб, сепараторларда ёқлардан тозаланса, иккинчи поқонада (босқичда) сиқилганидан кейин 70°C да (совитилмасдан) полимерлаш учун қувурли реакторни (6) учта бўлимига узатилди.

Полимерловчи-реактор уч бўлинмадан ташкил топган бўлиб, қар бир бўлимдан олдин ишлатилаётган инициатор турига қараб газ ва реакцион аралашмани 120-190°C гача иситиш учун иссиқлик алмашгичлар ўрнатилган. Учинчи бўлим охирида совитгич ўрнатилган бўлиб, унда реакция массаса 200-250°C гача совитилди қувурли реакторда этиленни полимерланиши қуйидаги шароитларда олиб борилди.

Ҳарорат, оС	190-200
Босим, Мпа	245
Кислород концентрацияси, %	0.002-0.008
Этиленни бир циклда (айланишда) полимерга ўтиш даражаси, %	26-30
Этиленни полимерга ўтиш умумий даражаси, %	95-98

Қувурли реактордан (6) реакцияга киришмаган этилен полимер билан аралашма ҳолида редукция вентили орқали 24.5-26.3 МПа босим остида юқори босимли ажратгичга (7) тушди. Бу ерда этилен ва полиэтилен бири-бирдан ажратилди. Ажратгични юқори қисмидан реакцияга киришмаган этилен циклонли сепараторлар ҳамда совитгичларга (12) йўналтирилади. Бу эрда этилен билан бирга олиб кетилган полиэтилен ажратилади. Кейин этилен совитилади ва янги этилен билан аралаштириш учун аралаштиргичга (4) ва ундан циклга қайтарилади.

**Хулоса.** Паст босимдаги (ПБ) полиэтилен бу усул билан этиленни 0.3-0.5 МПа босимда, 70-80°C да, органик эритувчилар (бензин ва ш.к.) муқитида полимерлаб олинди. Полимерланиш Тсиглер-Натта катализаторлари (диэтилалюминийхлорид ва титантетрахлориди) иштирокида олиб борилди. Алкилалюминийни титан тўртхлоридга нисбати 1:1 дан 1:2 гача олинди. Бу катализатор комплекси қаводаги кислород ва намлик таъсирида пар-чаланиб кетиши сабабли, полимерланиш сувсизлантирилган эритма муқитида ва азот атмосферасида олиб борилди. Қувурларнинг бир хил бўлимлари ретубрент ёки қалач деб номланувчи массив ичи бўш плиталар ёрдамида бириктирилди. Гранулаларни тез совитиш мақсадида гранулаловчи шакл тузсизлантирилган сув билан совитилди.

#### Адабиётлар

1. Технология пластических масс. Под. ред. В.В. Коршака. М., «Химия», 1985, с.298-315.
2. Бессонов М.И. и др. Полиимиды – класс термостойких полимеров., Л., "Наука", 1983 г., 308 с.
3. Asqarov M.A., Ismoilov I.I. Polimerlar kimyosi va fizikasi. Т., О'zbekiston 2004 й.
4. Голосев А.П., Динцес А.И. Технология производства полиэтилена и полипропилена. М., «Химия», 1978, 263 с.

5. Андреева И.Н. и др. Сверх высокомолекулярный полиэтилен высокой плотности. Л., «Химия», 1982, 80 с.
6. Abdurashidov T.R., Magrupov F.A. Poliolefinlar texnologiyasi, T., ToshKTI nashriyoti , 2005 й. , 129 v.
7. Бакнелл К. Ударопрочные пластики. Пер. с англ. / Под.ред. И.С. Лишансконо, Л, «Химия», 1981, 236 с.
8. Минскер К.С. и др. Старение и стабилизация полимеров на основе винилхлорида. М., «Химия», 1982, 272 с.
9. Фторполимеры / Пер. с англ. Под ред. И.Л.Кнунянца и Б.А. Пономаренко. М., «Мир», 1975, 448 с.
10. Гудимов М.М., Петров Б.В. Органическое стекло. М., Химия, 1981, 260 с.
11. Розенберг М.Э. Полимеры на основе винилацетата, Л., Химия, 1983 г., 252 с.
12. Композиционные материалы на основе полиуретанов. Пер. с англ. Под ред. Ф.А. Шутова. М., Химия, 1982, 214 с.
13. Кузнецов Е.В. и др. Альбом технологических схем производства полимеров и пластических масс на их основе. Изд. 2-е. М., Химия, 1975, 74 с.
14. Кноп А., Шейб В. Фенольные смолы и материалы на их основе, М., Химия, 1983 г. 279 с.
15. Кисилев Б.А. Стеклопластики. М., химия, 1989, 246 с.
16. Куликов Е.В. и др. Технология клееных материалов и плит. М., Лесная промышленность, 1987, 284 с.
17. Охрименко И.С. Верхоланцев В.В. Химия и технология пленкообразующих веществ , Л., Химия, 1978 г.
18. Вольф Л.А. Хайтин Б.Ш. Производство поликапроамида, Москва., Химия, 1976 г.
19. Нельсон У.Е. Технология пластмасс на основе полиамидов. Пер. с англ. / под редакцией А.Я.Малкина, Москва., Химия, 1979г. 212с.

**КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИДА ДЕНГИЗ ТРАНСПОРТИНИНГ  
АҲАМИЯТИ****Салимов Бахриддин Лутфуллаевич***Тошкент Давлат Транспорт Унвирситети. профессори в.б***Сатторов Маъруфжон Муҳаммад ўгли***Тошкент Давлат Транспорт Унвирситети талабаси***Солиев Отабек Хасан Ўгли***Тошкент Давлат Транспорт Унвирситети талабаси*

**Аннотация.** Мақолада бир неча асрлардан буён денгиз йўллари кўп жихатдан пешқадамликни кўлдан бой бермасдан келаётганлиги, маълумотларга кўра, замонавий жаҳон савдо муносабатларида денгиз транспорти халқаро савдонинг деярли 80 фоизини амалга ошираётганлиги ва бунинг ўз сабаблари денгиз транспортининг бир катор афзалликлари эканлиги таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** денгиз транспорти, кема, бандаргоҳ, паром, канал, муқобиллик.

**Аннотация.** В статье анализируется тот факт, что морские пути уже несколько столетий лидируют, и по данным, в современных мироторговых отношениях морской транспорт составляет почти 80 процентов международной торговли, и причинами этого является ряд преимуществ морской транспорт.

**Ключевые слова:** морской транспорт, корабль, гавань, паром, канал, альтернатива.

**Кириш.** Йўл коммуникацион тизимнинг мавжудлиги ҳамма вақт, ҳамма ерда ўзининг таъсирини кўрсатиб келган<sup>35</sup>. Йўл коммуникацион тизим деганда ҳудудларни ўзаро боғлаб турувчи куруқликдаги, сувдаги ва ҳаводаги алоқа йўллари ҳамда уларда ҳаракатланувчи транспорт воситалари тушунилади. Алоқа йўллари ўзининг аҳамиятига кўра мамлакат, минтақа ва китъалараро даражада бўлиши мумкин. Айтиш керакки, алоқа йўллари ҳам кўйдан юқорига<sup>36</sup>, оддийдан мураккабликка томон ривожланиб борган<sup>37</sup>. Аввал кичик бир ҳудуд чегарасида шаклланган йўлларнинг қамров доираси ҳам кенгайиб борди. Муайян бир уруғ ва қабила доирасида пайдо бўлган баъзи йўллар ривожланиб китъалараро йўлларга айланиб кетган. Лекин йўлларнинг бу даражага етиши ўз-ўзидан бўлмаган. Ўнлаб, юзлаб йиллар

<sup>35</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

<sup>36</sup> Salimov B.L. Expression of Dialectic Categories in the Individual's Social Life // openaccessjournals. eu. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. Volume: 1, Issue 4, 2021. -P.16-18.

<sup>37</sup> Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

давомида кўплаб инсонларнинг машаққатли саъи-ҳаракатлари эвазига амалга ошган. Ҳаттоки баъзилар шу мақсад йўлида жонларини ҳам фидо қилишган.

**Муҳокама ва натижалар.** Йўл алоқа коммуникация тизимининг ривожланиши унда ҳаракатланадиган воситаларга ҳам боғлиқ бўлган. Дастлаб, кишилар йўлларда пиёда юришган. Аммо, масофа узоқлашган сари пиёда юриб манзилга етиб бориш қийинлаша борган. Минишга қулай бўлган эшак, от ва туя каби жониворлардан фойдалана бошлаганлар. Айниқса, от ва туялар билан узоқ масофаларга йўлга чиқиш ишончли бўла бошлаган. Бу ҳайвонлардан нафақат минишда, балки юк ортишда ва юк ортилган араваларни олиб юришда фойдаланганлар. Шу маънода оладиган бўлсак, от ва туя ҳамда улар қўшилган аравалар дастлабки транспорт воситалари ҳисобланган. Бу жониворлар минг йиллар мобайнида одамларга узоқ юртларга бориб келишида, савдо-сотик алоқаларини олиб боришида беминнат хизмат қилиб келган.

Ҳеч муболағасиз айтишимиз мумкинки, от ва туялар бўлмаганда, инсоният ўтмишда фойдаланган «Лаъл йўли», «Шоҳ йўли», «Яйловлар йўли» ва «Буюк ипак йўли» ҳам бўлмас эди. Чунки, биз номларини айтиб ўтган қадимий йўллар минглаб километрга чўзилган бўлган. Булар қуруқлик йўлларидаги илк транспорт воситалари бўлса, шу билан бирга дарё ва денгиз йўлларидаги транспорт воситалари ҳам бўлган. Инсоният дарё ва денгиз йўлларида қуруқликдаги йўлларга қараганда анча кейин юра бошлаган. Қуруқликдаги транспорт воситалари билан дарё ва денгиз йўлларидаги транспорт воситалари ўртасида катта фарқ бўлган. Қуруқликдаги илк асосий транспорт воситалари бўлган от ва туяларни одамзот кашф этмаган балки улар табиатда азалдан бор бўлган. Дарё ва денгиз йўлларидаги транспорт воситаларида эса бутунлай бошқача ҳолат. Бу йўлларда фойдаланиладиган соллар, қайиқлар ва кемалар бариси инсоният тафаккури маҳсули бўлган. Соддароқ қилиб айтганда денгиз йўлларидаги транспорт воситаларини одамларнинг ўзи яратишига, кашф этишига тўғри келган.

Илмий ишимизнинг аввалги қисмларида айтиб ўтганимиздек, инсоният цивилизациясининг асосий қисмида<sup>38</sup>, минг, ўн минг, юз минг ва ҳаттоки миллион йиллар давомида қуруқликдаги карвон йўлларида отлар ва туялар, аравалар ҳамда дарё ва денгиз йўлларидаги эшаклар ва елканлар билан ҳаракатланадиган қайиқлар, кемалар йўл алоқа коммуникация тизимининг асосий воситалари бўлиб келган. Бироқ, 17-18 асрлардаги фан-техника кашфиётлари ва саноатлашувнинг вужудга келиши йўл алоқа коммуникация тизимидаги вазиятни тубдан ўзгартириб юборди<sup>39</sup>.

Маълумки, денгиз йўлларида алоқани таъминлаб берувчи воситалар бу асосан жисмоний куч билан ва табиат ҳодисалари: дарё, денгиз оқимлари ва

<sup>38</sup> Салимов Б.Л. Жизненный путь природы и общества состоит из цепи случайностей и необходимостей // Colloquium-journal. –v 2020. -№24 (76). Cześć 2. -С. 33-35.

<sup>39</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

шамоллар кўмагида ҳаракатга келтирилган. Фан-техника кашфиётлари оқибатида бу воситалар машиналаштирила бошланди. Ушбу машиналарнинг двигатель-моторлари буғ билан ҳаракатга келарди. Буғ билан ҳаракатланадиган дастлабки машиналар ўша пайтлардан бошлаб ҳозирги кунгача жаҳон йўл алоқа – коммуникация тизимида етакчилик қилиб келаётган денгиз алоқа йўлларида пайдо бўлган. Биринчи бўлиб, америкалик Роберт Фултон томонидан 1807 йилда буғ билан ҳаракатланадиган пороход қурилган. Кашфиётчи узунлиги 40,5 метр, эни 5,5 метр бўлган пороходини «Клермонт» деб номлади<sup>40</sup>. Соатига 8 км тезлик билан ҳаракатланадиган ушбу пороход денгизчиларнинг эшкак эшишдек машаққатдан ва денгиз йўлларида шамолга бўлган қарамликдан халос бўлишига олиб келди.

Йиллар ўтиши билан денгиз йўлларида нефт ёқилғиси билан ҳаракатлануви теплоходлар ва электр энергияси билан ҳаракатланадиган электроходлар суза бошлади. Денгизда ҳаракатланадиган замонавий транспорт воситаларининг пайдо бўлиши денгиз йўллариининг аҳамиятини ошишига, ушбу транспорт воситаларида кўпроқ юкларни ташишга, манзилга анча тезроқ етиб боришига, саёҳатларни, савдо-сотик алоқаларини янада ишончли, қулай ва хавфсиз бўлишига олиб борди. Бунинг учун денгиз йўллари бошланадиган ва ўтадиган манзилларда бандаргоҳлар қурилди, каналлар қазилди ва паромлар пайдо бўлди. Буларсиз ҳозирги замон денгиз йўллариини ва денгиз транспортини тасаввур этиш қийин.

Бандаргоҳлар яъни портлар денгиз йўлларида алоҳида аҳамиятга молик ҳудуд саналади. Бандаргоҳлар океан ва денгизнинг қуруқликка туташ қисмларида қурилган бўлиб, у кемаларнинг туришига, уларга хизмат кўрсатишга, юкларни кемаларга ортишга ва туширишга ҳамда йўловчиларнинг кемаларга чиқишларига ёки улардан тушишларига мўлжалланган махсус жой ҳисобланади. Айни пайтда дунёда икки мингдан зиёд бандаргоҳлар мавжуд, маълумотларга қараганда биринчи бандаргоҳ бундан «Тахминан мил. ав. 4-минг йилликда Ўрта денгизда пайдо бўлган. Ҳозирги замондаги йирик бандаргоҳларнинг юк айланмаси йилига 270 млн. тонна ва ундан кўпни ташкил қилади»<sup>41</sup>. Кўриниб турганидек, бугунги йирик бандаргоҳларнинг иш ҳажми жуда катта. Ер юзида бундай иш ҳажмига эга бандаргоҳлар жуда кўп. Уларнинг барини иш ҳажмини жамлаганда эса жуда катта сон келиб чиқади. Бу сонлар ёзувда жуда осон ёзилиши мумкин. Лекин, бунча ҳажмдаги юкларни ташиш, ортиш ва туширишнинг ўзи бўлмайди. Бунинг ҳажмини тасаввур қилиш учун 25 килолик ва 50 килолик юкларни бир маротоба кўтариш ёки жойидан силжитишга уриниб кўриш керак. Шунда миллион ва миллиард тонна юк миқдорини бир оз ҳис қилиш мумкин.

<sup>40</sup>Тарихдан hikoyalar. U. Jo'rayev [va boshq.]. – Toshkent: Cho'lpon. 2015. – B. 70.

<sup>41</sup>Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Б – харфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 351-bet. www.ziyouz.com кутубхонаси. 26.05. 2020. Санасида мурожаат қилинган.

Денгиз йўллари яна бир ажралмас таркибий қисмларидан бири бу каналлардир. Канал бу – бир сув ҳавзасини иккинчи сув ҳавзаси билан қисқа йўллар орқали туташтирадиган сув йўли ҳисобланади. Каналлар икки турга бўлинади: 1. Табиий каналлар. 2. Сунъий каналлар. Табиий каналлар ўзи табиатан мавжуд бўлган тор денгиз бўғозлари ҳисобланади. Бўғозлар табиий денгиз йўллари бўлиб материклар, қитъалар ва қуруқликлар орасидаги сувликлар бўлиб, у денгиз йўлларининг серқатнов қисмидир. Буюк Британия ва Франция орасидаги Дувр, Қора денгиздаги Босфор, Дарданелл каби маълум ва машҳур бўғозлар мавжуд. Жумладан, Дувр бўғозидан бир йилда тўрт юз мингта кема ўтиши маълум. Энди сунъий каналлар ҳақида тўхталиб ўтсак. Номидан кўришиб турганидек, сунъий каналлар инсон фаолияти натижасида вужудга келган. Сунъий каналлар денгиз йўлларидаги масофани қисқартириш мақсадида қуруқликлар бўйлаб қаздирилади ва шу орқали бири-биридан узоқда бўлган сув ҳавзалари туташтирилади. Денгиз йўллари тарихида бундай каналлар кўплаб қурилган. Шулар орасидан иқтисодий самародорлиги жуда юқори бўлган ва ижтимоий аҳамияти ҳам катта бўлган, нафақат денгиз йўлларида, балки жаҳон коммуникация алоқа йўллари тараққиётида<sup>42</sup> муҳим роль ўйнаган Сувайш канали бўлиб, у Европа билан Осиё ўртасидаги масофани 9 минг километрга қисқартириб, амалда бу икки қитъа ўртасидаги энг қисқа денгиз йўлига айланди. Айтиш мумкинки, ушбу канал ривожланаётган Осиё мамлакатларининг ўз маҳсулотларини Европа иттифоқи давлатларига олиб чиқишида ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ҳозирги замон йўл алоқа коммуникация тизимининг ўзаро боғлиқлиги<sup>43</sup> денгиз йўлларининг узвий қисми бўлган паромлар фаолиятида яққол кўзга ташланади. Паромлар – бу денгизда сузувчи иншоат бўлиб, қуруқликда ҳаракатланишга мўлжалланган транспорт воситалари бўлган автомобиллар ва поездларнинг йўловчилари ва юклари билан денгиз ёки дарёнинг бир соҳилидан иккинчи соҳилига ўтказиб қўяди. Бунинг ижобий томони шундаки, иккинчи қирғоққа ўтган автомобиллар автомобил йўлида, поездлар ўзининг темир йўлларида манзиллари сари ҳаракатларини давом эттираверишади. Жаҳондаги энг катта паромлар ҳудудларда ўз фаолиятини кўрсатишмоқда. Хусусан, Каспий денгизидagi 300 километрлик Баку (Озарбайжон) – Красноводск (Туркманистон) йўналиши йўналиши ва бошқа йўналишларда паромлар фаолият кўрсатиб келмоқда.

**Хулоса.** Эътироф этиб ўтиш керакки, бир неча асрлардан буён денгиз йўллари кўп жиҳатдан пешқадамликни қўлдан бой бермасдан келаётир. Маълумотларга кўра, замонавий жаҳон савдо муносабатларида «Денгиз

<sup>42</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

<sup>43</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

транспорти халқаро савдонинг деярли 80 фоизини амалга оширади»<sup>44</sup>. Айтиш мумкинки ушбу фоизлар замирида жуда катта рақамлар ётади. Бундан кўринадики, куруқликдаги йўллар ва ҳаво йўлларида халқаро савдонинг қолган 20 фоизини амалга оширмақда. Ахир куруқликдаги йўллар ва ҳаво йўлларининг аҳамияти ва улардаги транспорт воситаларининг потенциали жуда юқорику. Наҳотки, иккаласи бир бўлиб денгиз йўлларига, денгиз транспортига тенг кела олмас. Демак, тенг кела олмас экан. Албатта, бунинг ўз сабаблари бор. Булар қуйидагилар билан белгиланади: биринчидан, денгиз йўлларини қуриш учун маблағ сарфлаш шарт эмас. Фақат унда суза оладиган қайиқ ва кемалар бўлса бас, исталган жойга қараб сузиб кетиш мумкин; иккинчидан, денгиз йўллари (ички каналлар ва дарёлардан ташқари) ҳеч қайси мамлакат чегарасидан ўтмайди, шу боис ҳеч кимга транзит учун ҳақ тўлаш шарт эмас; учинчидан, денгиз йўлларида манзилга етиб боришнинг бир эмас, бир нечта муқобил вариантлари мавжуд; тўртинчидан денгиз йўлларида ҳаракатланаётган денгиз транспортларининг ишлаш самарадорлиги жуда юқори даражада. Денгиз транспортлари жуда кўп юкларни юклаган ҳолда жуда узоқ масофаларга тўхтовсиз сузиб бориш имкониятига эга; бешинчидан, денгиз йўлларида юкларни ташиш қулай ва юкларни манзилга хавфсиз етказиш имкониятлари юқори; олтинчидан, халқаро денгиз йўлларида қўшимча тарзда баъзи давлатларда ички дарё, канал ва қўл йўллари борки, айниқса, улар халқаро денгиз йўлларида туташган бўлса уларнинг аҳамияти ошиб, денгиз йўлларида юк ва йўловчи ташиш миқдорини янада ортишига хизмат қилади<sup>45</sup>. Мутахассисларнинг ҳисоб китобларига кўра дарё кемалари темир йўлга қараганда кўп юк кўтариши мумкин ва энг муҳими ташиладиган юк бирлигига қувватни деярли 6 маротаба кам сарфлайди.

### References

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Б – харфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент. 351-бет. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси.
2. GEOGRAFIYA. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. – Т.: “O‘zbekiston”, 2019. – В. 63.
3. Tarixdan hikoyalar. U. Jo‘rayev [va boshq.]. – Toshkent: Cho‘lpon. 2015. – Б. 61.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

<sup>44</sup> GEOGRAFIYA. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi. – Т.: “O‘zbekiston”, 2019. – В. 63.

<sup>45</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

## KIBERXAVFSIZLIK VA AXBOROT XAVFSIZLIGI

*Anvar Isakovich Musaev**O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, texnika fanlari nomzodi(PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi paytda juda keng tarqalib borayotgan tushuncha kiberxavfsizlik to'g'risida so'z yuritilgan. Ushbu tushuncha "axborot xavfsizligi" tushunchasi bilan birgalikda sinonim termin sifatida qo'llanilmoqda. Lekin ushbu terminlarni tushuntirishda klassik hisoblangan "axborot xavfsizligi" tushunchasi bilan tushuntirish qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli kiberxavfsizlik terminiga boshqacha yo'nalishda paradigm sifatida qaralishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kibernetika, kiberxavfsizlik, xaker, kiberhujum, axborot xavfsizligi, tizim, ob'ekt, konfidentsiallik, butunlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается понятие кибербезопасности, которое на данный момент очень распространено. Это понятие используется как синоним вместе с понятием «информационная безопасность». Однако эти термины трудно объяснить классическим понятием «информационная безопасность». Поэтому поясняется, что термин кибербезопасность следует рассматривать как парадигму отдельного направления.

**Ключевые слова:** кибернетика, кибербезопасность, хакер, кибератака, информационная безопасность, система, объект, конфиденциальность, целостность.

**Annotation.** This article discusses the concept of cyber security, which is very widespread at the moment. This concept is used as a synonymous term together with the concept of "information security". However, it is difficult to explain these terms with the classical concept of "information security". Therefore, it is explained that the term cyber security should be considered as a paradigm of a separate direction.

**Key words:** cybernetics, cyber security, hacker, cyber attack, information security, system, object, confidentiality, integrity.

**Kirish.** Barchamiz internet tarmog'idan kundalik faoliyatimizda foydalanishga o'rganib qolganmiz. Internet tarmog'idan kompyuter va mobil qurilmalar orqali axborot qidiramiz, o'qiyamiz va kerakli bo'lgan axborotlarni yuklab olamiz. Ushbu faoliyatimizni amalga oshirilishida Internetda mavjud bo'lgan servislar va content saqlovchi manbalardan foydalanamiz. Ushbu servislar va content manbalari ishonarli yoki ishonarli emasligi natijasida xavfsizligimizga tahdidlar paydo bo'ladi.

Internet tarmoq'idan foydalanish davomida xavfsizlik talablariga amal qilishga harakat qilamiz. Bu talablar eng asosiysi qurilmaga zararli content ya'ni virus bilan zararlangan content yuklashdan ehtiyot bo'lish bilan cheklanamiz. Bu xavfsizlikni axborot xavfsizligini ta'minlayapmiz deb hisoblaniladi. Shu bilan birgalikda hozirgi paytda ommaviy axborot vositalarida ko'proq kiberxavfsizlik, kiberhujum va xaker terminlari ko'proq ommalashib bormoqda. Ushbu

tushunchalar axborot xavfsizligi tushunchasi bilan birga qo'llanilmoqda. Bu esa ikki tushunchaning farqlashni talab qiladi.

**Metodologiya.** Ushbu terminlarning qo'llanilishining ilmiy asoslari ham turlicha hisoblanadi. Kiberxavfsizlik tushunchani o'rganar ekanmiz ushbu termin ikki qismdan iboratligini ko'ramiz, bular "kiber" va "xavfsizlik" terminlaridir.

**Kiber** so'zi kibernetika (qadimgi yunoncha Κυβερνητική-kemalarni boshqarish san'ati) so'zidan olingan bo'lib bu tushunchani fanga fransuz olimi, fizik, matematik Andre-Mari Amper 1834 yili kiritgan bo'lib, bunda kibernetikani samarali boshqaruv deb atagan. Ushbu tushunchani asosan davlat boshqaruvi tizimi bilan bog'lagan bo'lib, bu boshqaruv natijasida ushbu kibernetik nuqtai nazaridan asoslangan davlat tomonidan o'z fuqarolari uchun turli xil yengilliklarni yaratish oson amalga osiriladi.

Shundan so'ng 1948 yil amerikalik matematik olim, kibernetika va sun'iy intellekt asoschisi Norbert Viner tomonidan kibernetika birinchi marta zamonaviy fan sifatida taklif qilingan. Bunda kibernetikaga qora quti va shunga o'xshash tizimlar, shuningdek tirik organizm, mashina va tashkilotlarda boshqaruv tizimi, aloqa va o'z-o'zini tashkillashtirishda yuzaga keluvchi teskari aloqani o'rganishni o'z ichiga oladi. Kibernetika biror tizimning (raqamli, mexanik yoki biologik) har qanday axborotni qayta ishlashi, ushbu axborot ta'siriga javob berishi natijasida o'zining ham tarkibi yoki vazifasiga o'zgarish kiritilishi, yoki o'zining boshqa ta'sir orqali o'zgartirilishi natijasida unga qo'yilgan ikkita vazifa bo'lgan axborotni qayta ishlashi va ushbu ta'sirga javob berish vazifasini yanada yaxshiroq bajarishiga e'tibor qaratadi.

Tizimning "Xavfsizligi" yoki "Xavfsizlik darajasi" so'zi bu har qanday tizimning kelajakda bor bo'lishiga, kelajakda yashab qolishiga to'sqinlik qiluvchi ta'sirlarning umumiy ko'rsatkichidir.

"Kiber" so'zi ixtiyoriy moddiy va jonli tizimda samarali boshqaruvni bildiradi. Har qanday tizimda boshqaruvning ushbu tizim uchun foydali yoki zararli natijaga olib kelishi bilan ushbu tizimning kelajakda bor bo'lishi, yashab qolishi yoki yo'q bo'lishini, ishdan chiqishini keltirib chiqaradi. Agar bu tizim o'z boshqaruvining tarkibiy qismlari bo'lgan alohida qismlarining oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali, foydali yoki zararli ekanligini aniqlab, bu qismlarning ular oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish usullarini takomillashtirishi yoki keraksiz deb topilgan qismlarni olib tashlash bilan umumiy tizimning kelajakda bor bo'lishi, yashab qolishini ta'minlansa, demak bu tizimning umumiy xavfsizligi kiber tomonidan ta'minlangan, ya'ni kiberxavfsizligi ta'minlangan deyiladi.

Shu bilan birga tizim tushunchasini ham berib o'tishimiz kerak. **Tizim** so'zi lotincha "systēma", qadimgi yunoncha "σύστημα" "bir necha tarkibiy qismlardan (elementlardan) tashkil topgan bir butun to'plam; yig'indi" ma'nosini beradi. Tizim – bu o'zaro bog'liq va yagona maqsadga erishish uchun ma'lum qoidalar asosida o'zaro munosabatda bo'ladigan sodda elementlardan iborat to'plamning yaxlit bir butun ob'ekt sifatida baholanishidir. To'plam tarkibidagi har bir sodda element ham o'z navbatida tizim bo'lishi mumkin.

**Muhokama.** Kiberxavfsizlik tushunchasi tizimning boshqaruv tizimiga nisbatan qo'llaniladi. Kiberxavfsizlik - bu fan bo'lib har qanday tizimning kelajakda bor bo'lishini ta'minlash maqsadida, uning umumiy boshqaruv qismiga o'zgartirish kiritishi mumkin bo'lgan foydali va zararli ta'sirlarni o'rganadi.

Xozirgi paytda kiberxavfsizlik raqamlashtirilgan tizimlar uchun muhim xususiyatga aylandi. Muhim xususiyatga aylanishiga o'z navbatida har qanday raqamlashtirilgan tizimlarga bo'lgan tarmoq orqali masofadan ta'sir o'tkazish usullarining ko'payib borayotganligi, xattoki bu zararli ta'sirlar tizimning ishdan chiqishiga, faoliyatining to'xtashiga (yo'q bo'lishiga), faoliyatining o'zgarishiga (modifikatsiya) yoki tizimning umuman boshqa maqsadga (redirect) yo'naltirilishiga sabab bo'layotganligi bilan izohlanadi.

Hozirgi vaqtga qadar adabiyotlarda axborot xavfsizligi tushunchasi keng muomalada va ilmiy sohada qo'llanilib kelmoqda. Axborot xavfsizligi 3 ta asosiy tamoyili bo'lib bular axborotning konfidentsialligini (Confidentiality), axborotning butunligini (Integrity) va axborotning foydalanishga doimiy tayyorligini (Availability) ta'minlashga qaratiladi. Axborot xavfsizligining asosiy ob'ekti **axborot** xisoblanadi.

Shundan xulosa qilib aytish mumkinki murakkab tizimlardan tashkil etilgan ob'ektlarining xavsizligin ta'minlashda axborot xafsiligi tushunchasidan foydalanish samarali hisoblanmaydi va qo'shimcha tushunchalar kiritishga asosiy ob'ekt sifatida axborotni emas balki tizimga nisbatan qo'llash ko'proq samarali bo'ladi. Shu sababli kiberxavsizlik tushunchasi murakkab tizimlar uchun maqbul paradigma hisoblanadi. Kiberxavfsizlikning asosiy ob'ekti bular yaxlit tizimlar olinadi va ob'ektlarga nisbatan qo'llaniladi.

**Xulosa.** Shu sababli "axborot xavfsizligining ob'ekti - Axborot", "kiberxavfsizlikning ob'ekti - tizim" hisoblanadi. Axborot xavfsizligida paradigmasi orqali hozirgi paytdagi mavjud bo'lgan xavflar, jinoyatlarni kriptovalyutalar orqali moliyalashtirish, ijtimoiy muhandislik orqali axborotni egallash, "fishing-smishing-voicemishing-farming" orqali firibgarlik, bank kartalari bilan bog'liq xavflar, tizimning yoki shaxsning faoliyatini axborot xavfsizligiga bog'liq bo'lmagan holda to'xtatish, ya'ni "feyk" xabarlar tarqatish, "deepfake" axborotlarini tayyorlash va tarqatish, shaxs, jamiyat va davlat faoliyati uchun zararli axborotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarda maxfiy guruxlar tuzish, botnetlar orqali ob'ektlarni noqonuniy egallashi kabi xavflarni **to'laqonli tushuntib bera olmaydi**. Bu tushunchalarni **Kiberxavfsizlik** tushunchasi orqali tushuntirish samarali hisoblanadi.

Zamonaviy olamda raqamlashtirilgan tizimlarning jamiyat hayoti uchun muhimligi, ajralmas qismga aylanganligi bunday tizimlarning kiberxavfsizligini ta'minlashni oldingi o'ringa olib chiqadi, davlat va jamiyatning bu tizimlarning kiberxavfsizligini ta'minlashga resurslar sarf qilinishini majburiylikni keltirib chiqaradi. Sarf qilinuvchi resurslar moddiy, ilmiy va inson resurslariga bo'linadi. Inson resurslari ta'lim darajasi bilan bog'liq bo'lib, ushbu sohada bilimli va

salohiyatli insonlar, milliy kadrlarning faoliyat yuritishi, mehnat qilishi kerakligini bildiradi.

### References

1. Wiener N . Cybernetics or Control and Communication in the Animal and the Machine. — New York: The Technology Press and John Wiley & Sons, Inc. — Paris: Hermann et Cie, 1948.
2. Kibermakonda sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurash: muammolar va yechimlar, Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, (24 fevral 2022 yil), Toshkent: MALIK PRINT CO, 2022. -482 b.
3. Akbarov D.Ye., «Axborot xavfsizligini ta’minlashning kriptografik usullari va ularning qo‘llanilishi” Toshkent, “O‘zbekiston markasi” nashriyoti, 2009 – 432 bet.
4. Akbarov D.Ye., Musayev A.I. Mavjud uzluksiz shifrlash algoritmlari asoslarini tadqiqi va ularning turkumlari, Toshkent, Axborotkommunikatsiyalar: tarmoqlar, texnologiyalar, yechimlar, “UNICON.UZ”, 2009 y. 36-45 b.

## SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Zulunov R.M.**TATU Farg'ona filiali, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent**Irmatova D.B.**Dasturiy injiniring kafedresi assistenti, TATU Farg'ona filiali*

**Annotatsiya.** Sun'iy intellekt texnologiyalarni kririb kelishi jamiyatdan ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Turli aqlli texnologiyalarni integratsiyalashuvi bu davrda asosiy omil hisoblanadi. Maqolada ta'lim jarayonini yangi texnologiyarga moslashuv muammolari korib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli hisoblash, narsalar interneti, intellektual tizimlar.

**Annotation.** The crashing of artificial intelligence technologies requires certain training from society. The integration of various intelligent technologies is a key factor in this period. The article examines the problems of adaptation of the educational process to new technology.

**Keywords:** artificial intelligence, Big Data, Cloud Computing, Internet of things, intellectual systems.

**Аннотация.** Внедрение технологий искусственного интеллекта требует определенной подготовки со стороны общества. Интеграция различных интеллектуальных технологий является ключевым фактором в этот период. В статье рассматриваются проблемы адаптации образовательного процесса к новым технологиям.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, Большие данные, облачные вычисления, Интернет вещей, интеллектуальные системы.

Sun'iy intellekt Dartmut kollejida (Ganover, AQSh) yozgi seminarida rasman yorug'likni ko'rgan fan sohasi bo'lib, uni to'rt amerikalik olim: Jon Makkarti, Marvin Minski, Nataniel Rochester va Klod Shennon tashkil qilgan. O'shandan beri, katta ehtimol bilan hammaning e'tiborini jalb qilish uchun yaratilgan "sun'iy intellekt" atamasi shu qadar mashhur bo'ldiki, bugungi kunda uni hech qachon eshitmagan odamni uchratishingiz qiyin. Vaqt o'tishi bilan informatikaning bu sohasi tobora rivojlanib bordi va so'nggi oltmish yil ichida aqlli texnologiyalar dunyo qiyofasini o'zgartirishda muhim rol o'ynadi.

Biroq, "sun'iy intellekt" atamasining mashhurligi ko'p jihatdan uning noto'g'ri talqini bilan bog'liq - xususan, u aql bilan ta'minlangan va go'yoki odamlar bilan raqobatlasha oladigan sun'iy mavjudotni nazarda tutganda. Golem haqidagi afsonaga o'xshab ketadigan qadimiy afsonalar va afsonalar sohasidagi bu g'oyani yaqinda bizning zamondoshlarimiz, masalan, ingliz fizigi Stiven Xoking (1942-2018), amerikalik biznesmen Ilon Mask va amerikalik muhandis Rey Kurtsveyl jonlantirdilar. shuningdek, kuchli yoki umumiy Sun'iy intellekt deb ataladigan yaratilish tarafdorlari. Biroq, biz ushbu atamani tushunish haqida gapirmaymiz, chunki bu tajribalar va empirik kuzatishlar bilan tasdiqlangan aniq ilmiy haqiqat

emas, balki ilmiy fantastika ta'siri ostida paydo bo'lgan boy tasavvurning mahsulidir.

Jon Makkarti va Marvin Minski, shuningdek, Dartmut kollejidagi yozgi seminarining boshqa tashkilotchilari uchun ( havola hisoblanadi tashqi ) , Sun'iy intellekt dastlab inson, hayvon, o'simlik, ijtimoiy yoki filogenetik intellekt bo'ladimi, turli aql qobiliyatlarining kompyuter simulyatsiyalari bilan shug'ullanadigan fan sohasi edi. Ushbu ilmiy fan o'rganish, fikrlash, hisoblash, idrok etish, xotira, hatto ilmiy kashfiyotlar yoki badiiy ijod kabi barcha kognitiv funktsiyalarni kompyuterda ularni takrorlash uchun dasturlash imkonini beradigan aniqlik bilan tasvirlash mumkin degan taxminga asoslanadi. Sun'iy intellekt mavjud bo'lgan oltmish yildan ortiq vaqt davomida ochiq bo'lib qolayotgan va olimlarni yangi ixtirolarga undaydigan gipotezani inkor etib bo'lmaydigan tarzda isbotlash yoki rad etishga imkon beradigan hech narsa paydo bo'lmadi.

**Ko'tarilish va pasayish tarixi.** Mavjud bo'lgan qisqa vaqt ichida Sun'iy intellekt ko'plab o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Uning rivojlanish tarixida olti bosqich mavjud.

- Bashorat davri

Dastlab, birinchi muvaffaqiyatlar ta'sirida, tadqiqotchilar o'zlariga biroz beparvo bayonotlarga yo'l qo'yishdi, keyinchalik ular qayta-qayta qoralandi. Masalan, 1958 yilda keyinchalik iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotini qo'lga kiritgan amerikalik Gerbert Saymon agar mashinalarga xalqaro musobaqalarda qatnashishga ruxsat berilsa, yaqin o'n yil ichida ular shaxmat bo'yicha jahon chempioni bo'lishlarini aytdi.

- Qorong'u vaqtlar

1960-yillarning o'rtalarida taraqqiyot sekinlashdi. 1965 yilda o'n yoshli bola shaxmat o'yinida kompyuterni mag'lub etdi; 1966 yilda Amerika Qo'shma Shtatlari Senati tomonidan topshirilgan hisobotda mashina tarjimasining o'ziga xos cheklovlari haqida gapirildi. Taxminan o'n yil davomida matbuot Sun'iy intellekt haqida norozilik bilan gapirdi.

- Semantik Sun'iy intellekt

Tadqiqotlar to'xtamadi, balki yangi yo'nalishlarda davom etdi. Olimlar xotira psixologiyasi, ular kompyuterda taqlid qilmoqchi bo'lgan tushunish mexanizmlari va fikrlash jarayonida bilimning o'rni bilan qiziqdilar. Bu 1970-yillarning o'rtalarida sezilarli darajada rivojlangan bilimlarni semantik ifodalash usullarining paydo bo'lishiga , shuningdek, fikrlash jarayonlarini takrorlash uchun malakali mutaxassislarining bilimlaridan foydalanganligi sababli shunday nomlangan ekspert tizimlarini yaratishga olib keldi. 1980-yillarning boshida ekspert tizimlariga, masalan, tibbiy diagnostika uchun keng ko'lamli qo'llanilishi tufayli katta umidlar qo'yilgan edi.

- Neokonksionizm va mashinani o'rganish

Texnologik yutuqlar kompyuterlarga bilimlarni to'plash va o'z tajribalari asosida o'zlarini avtomatik ravishda qayta dasturlash imkonini beruvchi Machine Learning algoritmlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Bunday intellektual tizimlar turli vazifalarni (barmoq izini identifikatsiya qilish, nutqni aniqlash va h.k.) bajarish uchun, gibrid tizimlarni yaratishda esa sun'iy intellekt, informatika, sun'iy hayot va boshqa fanlar sohasidagi turli usullarning kombinatsiyasidan foydalanilgan.

- Sun'iy intellektdan inson-mashina interfeyslarigacha

1990-yillarning oxiridan boshlab Sun'iy intellekt hissiyotlar va his-tuyg'ularni o'z ichiga olgan aqlli agentlarni yaratish uchun robototexnika va inson-mashina interfeyslari bilan birlashtirildi. Bu, boshqa narsalar qatorida, yangi tadqiqot yo'nalishi - affektiv (yoki hissiy) hisob-kitoblarning paydo bo'lishiga olib keldi. hisoblash ), hissiyotlarni his qiladigan sub'ektning reaksiyalarini va ularni mashinada ko'paytirishni tahlil qilishga qaratilgan va dialog tizimlarini (chat botlari) yaxshilash imkonini berdi.

- Sun'iy intellektning qayta tug'ilishi

2010 yildan beri kompyuterlarning kuchi katta ma'lumotlar (Big Data) deb ataluvchi ma'lumotlarni sun'iy neyron tarmoqlardan foydalanishga asoslangan chuqur o'rganish usullari (Deep Learning) bilan birlashtirishga imkon berdi. Ko'p sohalarda (nutq va tasvirni aniqlash, tabiiy tilni tushunish, uchuvchisiz transport vositalari va boshqalar) juda muvaffaqiyatli qo'llanilishi Sun'iy intellektning qayta tug'ilishi haqida gapirishga imkon beradi.

**Qo'llanilishi.** Sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida erishilgan natijalarning aksariyati odamlardan ustundir: 1997 yilda kompyuter shaxmat bo'yicha o'sha paytdagi jahon chempionini mag'lub etgan, yaqinda, 2016 yilda esa boshqa kompyuterlar dunyoning eng yaxshi go va poker o'yinchilaridan ustun keldi. Kompyuterlar matematik teoremlarni isbotlaydi yoki isbotlashga yordam beradi; avtomatik ravishda, mashinani o'rganish usullari asosida va hajmi terabaytlarda (10 dan 12 gacha) va hatto petabaytlarda (10 dan 15 gacha) hisoblangan ulkan ma'lumotlar massivlari yordamida bilim yaratiladi.

Mashinani o'rganish usullari ba'zi avtomatlarga og'zaki tilni tanib olish va uni o'tgan yillardagi mashinistlar kabi yozish imkonini beradi, boshqalari esa o'n millionlab odamlarning yuzlari yoki barmoq izlarini aniq aniqlashlari va tabiiy tillarda yozilgan matnlarni qayta ishlashlari mumkin. Xuddi shu usullar tufayli avtomobillar mustaqil ravishda harakatlanadi, kompyuterlar uyali telefonlar yordamida olingan mollarning fotosuratlaridan melanoma tashxisini qo'yishda dermatologlarga qaraganda yaxshiroqdir, robotlar odamlar o'rniga jang qilishadi; va fabrikalarda konveyerlar tobora ko'proq avtomatlashtirilmoqda.

Olimlar ushbu usullardan biologik makromolekulalar, xususan, oqsillar va genomlarning funktsiyalarini ularning tarkibiy qismlari - oqsillar uchun aminokislotalar va genomlar uchun asoslar ketma-ketligiga qarab aniqlash uchun ham foydalanadilar. Umuman olganda, barcha fanlarda tajribalar *o'rtasidagi* sifat farqi tufayli jiddiy gnoseologik bo'shliq mavjud, *silico* - *shunday nomlangan, chunki ular silikon chiplari bo'lgan* kuchli protsessorlarda katta ma'lumotlarni ishlatadilar - tajribalardan *vivo* (tirik to'qimalarda) va ayniqsa *in vitro* (shisha naychalarda va Petri idishlarida).

O'z-o'zini o'rganadigan intellektual tizimlar deyarli barcha sohalarida, xususan, sanoat, bank, sug'urta, sog'liqni saqlash va mudofaa sohalarida keng qo'llaniladi. Endi ko'plab muntazam jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin, bu bizning kasblarimizni o'zgartiradi va oxir-oqibat ularning ba'zilarini yo'q qiladi.

**Axloqiy xavflar.** Sun'iy intellekt nafaqat aql-idrokning ko'p jihatlarini oqilona tahlil qilish va kompyuterlar tomonidan qayta ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi - ehtimol hazil bundan mustasno. Mashinalar ko'p sohalarida bizning kognitiv qobiliyatlarimizdan ancha yuqori, bu bizni ba'zi axloqiy xavflardan ehtiyot qiladi. Xatarlarning uch turi mavjud: odamlar o'rniga mashinalar bajaradigan ishning etishmasligi; shaxsning mustaqilligi va, xususan, uning erkinligi va xavfsizligi uchun oqibatlari; ko'proq "aqlli" mashinalar odamlar ustidan hukmronlik qilishi va insoniyatning o'limiga sabab bo'lishidan qo'rqadi.

Biroq, diqqat bilan o'rganib chiqsak, odamlar uchun mehnat yo'qolib ketmayotgani, balki o'zgartirilayotgani, yangi ko'nikmalarni talab qilishi ayon bo'ladi. Xuddi shu tarzda, insonning mustaqilligi va uning erkinligiga sun'iy intellektning rivojlanishi tahdid solmaydi - ammo biz texnologiyaning shaxsiy hayotga tajovuz qilishiga qarshi hushyor bo'lishimiz sharti bilan.

Va nihoyat, ba'zi bayonotlardan farqli o'laroq, mashinalar insoniyat uchun ekzistensial xavf tug'dirmaydi, chunki ularning avtonomiyasi faqat texnik xususiyatga ega va shu ma'noda ma'lumotdan qaror qabul qilishgacha bo'lgan moddiy sabab-oqibat zanjirlariga mos kelmaydi. Bundan tashqari, mashinalar axloqiy jihatdan o'zini-o'zi ta'minlay olmaydi va shuning uchun ular ba'zan bizni chalg'itsa va o'z harakatlari bilan bizni chalg'itsa ham, ular hali ham o'zlarining irodasiga ega emaslar va biz ularga qo'ygan maqsadlarga bo'ysunadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. George Luger, Artificial Intelligence: Structures and Strategies for Complex Problem Solving, Fourth Edition Addison-Wesley, 2002.
2. Nils J. Nilsson, Artificial Intelligence: A New Synthesis, Morgan Kaufmann Publishers, 1998.
3. Stuart Russell and Peter Norvig, Artificial Intelligence: A Modern Approach, Second Edition, Prentice-Hall, 2003.
4. Joseph Giarratano and Gary Riley, Expert Systems: Principles and Programming, Third Edition Brooks/Cole Publishers, 1998.
5. Peter Jackson, Introduction to Expert Systems, Third Edition, Addison-Wesley, 1998.
6. R. Zulunov. Preparing the educational process for the era of artificial intelligence. The journal of integrated education and research, Volume 1, issue 4, September 2022, p.261-263
7. R. Zulunov. Use of artificial intelligence technologies in the educational process. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), Volume 3, Issue 10, Oct., 2022, p. 764-770.

**ФУҚАРО АВИАЦИЯСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА  
ИМКОНИАТЛАРНИНГ ВОҚЕЛИККА АЙЛАНИШИ**

*Салимов Бахриддин Лутфуллаевич*

*Тошкент Давлат Транспорт Университети профессори вазифасини  
бажарувчи.*

*Кувондиқов Сардор Норбўта ўғли*

*Тошкент Давлат Транспорт Университети талабаси.*

*Жовлиев Дилхуш Сафарали ўғли*

*Тошкент Давлат Транспорт Университети талабаси.*

**Аннотация.** Мақолада темир йўл транспортининг пайдо бўлиши ва Ўрта Осиёга кириб келиши ҳақида маълумотлар берилган. Шунингдек, мустақиллик йилларида Ўзбекистондаги барча транспорт турлари қатори темир йўл транспортини ривожланиши, иқтисодиёт ва технологияни юксалтиришга йўналтирилган, ресурсларни мақбул тарзда самарали бошқарилиши натижасида соҳада мисли кўрилмаган ишлар амалга оширилганлиги таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** кашфиёт, темир йўл, самарадорлик, иқтисодиёт, мустақиллик.

**Аннотация.** В статье представлена информация о появлении железнодорожного транспорта и его внедрении в Среднюю Азию. Также было проанализировано, что за годы независимости были проведены беспрецедентные работы в области развития железнодорожного транспорта, экономики и техники, как результат эффективного управления ресурсами, наряду со всеми видами транспорта в Узбекистане.

**Ключевые слова:** открытие, железная дорога, эффективность, экономика, независимость.

**Кириш.** Ҳаво транспортдан йўловчи ташишнинг бошланиши, 1914 йилнинг 1 январида АҚШнинг «Benoist» фирмасига тегишли самолётда бошланган. Мазкур санада, максимал 103 км/соат тезликка эга Benoist 14 самолёти АҚШнинг Сент-Питерсберг – Тампа шаҳарлари орасидаги масофани 23 минутда учиб ўтган. Қизиғи шундаки, ушбу самолётда бор йўғи битта йўловчи бўлган ва у учувчининг ёнидаги ёғоч ўриндиқда ўтирган. Мазкур йўловчи Сент-Питерсберг шаҳрининг собиқ мэри Абрам Фил бўлиб, у 400 долларга чипта сотиб олган. Ушбу пулнинг қиймати ҳозирги кунда 10000 минг долларга тенг келади. Лекин бу парвозлар якка-якка ҳолда амалга оширилиб, ҳали оммавий йўловчи ташишга ўтилмаган эди. Ҳаво транспортда йўловчи ташишни бошлаб берган АҚШда ушбу транспорт туридан юқлар ташиш ва бошқа тижорий мақсадларда ишлари йўлга қўйилган. 1918 йилда Вашингтон – Филадельфия йўналишида доимий авиапочта хизмати йўлга қўйилган. Айтиш мумкинки, авиапочта хизмати

ўша пайтларда энг сердаромад соҳалардан бири бўлиб, ҳаво транспортига иқтисодий томондан катта фойда олиб келган.

**Муҳокама ва натижалар.** 1918 йилда 1 – жаҳон уруши ниҳоясига етказ, Европа давлатларида ҳам ҳаво транспорти соҳасидан иқтисодий кўтариш йўлида юк ташиш ва йўловчи ташиш мақсадларида фойдаланила бошланган. Янгидан яратилаётган самолётларни лойиҳалаштириш жараёнларида шу жиҳатларга ҳам эътибор қаратилди. Бундай турдаги самолётларнинг пайдо бўлиши Буюк Британия давлати учун айни муддао эди. Негаки, ўша даврларда бу давлатнинг дунё бўйлаб катта-катта мустамлака ҳудудлари мавжуд бўлган. Кўп сонли йўловчилар ва юклар билан узоқ масофаларга қисқа муддат ичида бориб келиш имконини берувчи учар машиналарнинг яратилиши ҳудудлараро алоқаларни анча яхшилади<sup>46</sup>. Айниқса, мустамлакачи ҳукмрон доираларнинг манфаатларига жуда мос келиб қолди. Олис масофаларга кўшинларни, ҳарбий аслахаларни тезлик билан етказиб бориш ва мустамлакалардан беҳисоб бойликларни олиб чиқиб кетишда авиация – жуда ҳам қулай транспорт турига айланди<sup>47</sup>.

Авиация транспорти алоҳида транспорт тури сифатида бўй кўрсатаётган 1920-1930 йилларда Ўзбекистон собиқ СССР давлати таркибидаги иттифоқдош республикалардан бири бўлган. Таъкидлаш жоизки, собиқ иттифоқ ҳам авиация транспорти ривожига катта таъсир кўрсатган давлатлардан бири эди. СССР ташкил этилган 1922 йилда Москва марказидаги Ходынкское майдонида самолётларнинг учиб кўниши учун асосий аэродром мавжуд бўлган. Ушбу аэродромдан Москва – Смоленск – Ковно (Каунас) – Кенигсберг – Берлин йўналишида парвозлар йўлга қўйилган. Мазкур йўналишда 1922 йилнинг ўзида 100 та қатнов амалга оширилган ва 338 йўловчилар ҳамда почта жўнатмалари манзилига етказилган. Бу – СССРдаги биринчи ички давлат авиайўналиш ҳисобланган. Советлар давлатининг раҳномоси В.И. Лениннинг ташаббуси билан 1923 йилнинг 9 феврилида қабул қилинган қарори билан барча фуқаролик авиациялари жамоалари устидан назорат мамлакатда ягона бўлган фуқаро авиацияси ҳаво флоти инспекцияси тасарруфига ўтказилди. Ўша йилнинг март ойида умумроссия ихтиёрий ҳаво флоти «Добролет» жамияти ташкил этилди. 1932 йилга келиб эса совет иттифоқида бутун дунёга маълум ва машҳур бўлган ўша «Аэрофлот» фуқаро ҳаво флоти бош бошқармаси ўз фаолиятини бошлайди.

СССРдаги ҳаво транспортининг ривожига истеъдодли конструктор Андрей Туполевнинг ҳиссаси катта бўлган. У ихтиро этган АНТ ва ТУ номли 150 русмдаги самолётлар аввал совет иттифоқи осмонини, кейин бутун дунё

<sup>46</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

<sup>47</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

осмонини забт этган. Шунингдек, собиқ иттифоқ ҳаво транспортида ИЛ, Ан, Як каби русмдаги самолётлари мавжуд бўлган ва уларнинг юк ҳамда йўловчи ташишда ўз ўрни ва аҳамияти бўлган.

Ўзбекистонга авиацияни кириб келиши ва ривожланиши ҳам республикамизнинг СССР таркибида бўлган даврига тўғри келади. 1923 йилнинг август ойида умумроссия ихтиёрий ҳаво флоти «Добролет» жамиятининг Ўрта Осиё бўлими ташкил этилди ва маҳаллий ички ҳаво йўллари очиш ишлари бошлаб юборилди. Бунинг учун марказдан соҳа мутахассислари жалб этилди. Самолётларнинг учиб кўниши учун қулай майдонлар текисланиб, аэродромлар қурилди, дастлабки самолётлар ҳам келтирила бошланди.

1924 йилнинг 12 май куни Ўзбекистон фуқаро авиацияси солномасида муҳим сана сифатида тарихга муҳрланиб қолган. Худди шу куни Тошкент – Пишпек – Олма-Ота йўналиши бўйлаб бортида йўловчилар бўлган «Юнкерс Р-13» самолёти, тажрибали учувчи В.Л.Галышев бошқарувида ўзининг биринчи қатновини амалга оширди. Шу йилнинг ўзида, кейинчалик Когон – Термез – Душанбе ва Когон Тошоуз – Хива йўналишлари бўйлаб доимий қатновлар йўлга қўйилди. 1927 йилда Тошкент – Қобул йўналишида илк халқаро ҳаво алоқалари ўрнатилди. 1930 йилнинг 8 август санасидан Москва – Тошкент – Москва йўналишида ҳаво кемаларининг қатнови бошланди. Шу тариқа Республика ҳаво йўллариининг умумий узунлиги ҳам аста секинлик билан орта борди. Дастлабки йилларда унинг узунлиги тахминан 2 минг километр атрофида бўлган бўлса, 1930 йилда 3,5 минг километр, 1940 йилда 9 минг километр ва 1968 йилда 50 минг километрга етган. Ҳозирги кунга келиб эса мамлакатимиз ҳаво йўллариининг умумий узунлиги 100 минг километрлик масофани ташкил этмоқда.

Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиши, кўп соҳалар қатори ҳаво транспортида ҳам туб ўзгаришларга олиб келди. 1992 йилнинг 28 январида «Ўзбекистон ҳаво йўллари» миллий авиакомпаниясига асос солинди. Айтиш мумкинки, мамлакатимиз ҳудудида ҳаво транспортига оид ишларни мувофиқлаштиришда ва соҳага оид давлат сиёсатини<sup>48</sup> рўёбга чиқаришда мазкур ташкилотнинг ўрни ва аҳамияти катта бўлган. Узоқ йиллар фуқаро авиациясининг асосий бошқарув органи саналган «Ўзбекистон ҳаво йўллари» миллий авиакомпанияси мамлакатда ҳаво транспорти соҳасини янги босқичга олиб чиқди. Мустақиллик йилларида дунёга «Uzbekistan airways» номи билан танилган «Ўзбекистон ҳаво йўллари» жаҳондаги энг ишончли, хавфсиз ва нуфузли авиакомпаниялардан бирига айланди. Ўтган йиллар ичида миллий авиакомпаниямизнинг иқтисодий салоҳияти ортиб бориб,

<sup>48</sup> Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

техник имкониятлари кенгая борди<sup>49</sup>. Авваллари мумкин бўлмаган ишлар, яъни жаҳоннинг кўплаб мамлакатларига тўғридан-тўғри бўлган қатновлар амалга оширила бошланди. Жумладан, миллий авиакомпания ташкил этилган йилнинг ўзидаёқ Лондон, Карачи, Дехли, Куала-Лумпур, Тель-Авив, Пекин каби қатор хорижий шаҳарлар йўналишлари бўйлаб мунтазам қатновлар йўлга қўйилди. Кейинги йилларда, Франкфурт, Бангкок, Афина, Манчестер, Сеул, Нью-Йорк, Бахрейн, Париж, Дакка, Эр-Риад, Рим, Бирмингем, Амритсар, Осака, Токио, Ханой, Рига, Шанхай, Астана, Урумчи, Лахор, Милан, Сочи, Бомбей, Мадрид, Калининград каби жаҳоннинг кўплаб сиёсий, савдо ва саноат марказлари бўлган шаҳарлари билан ҳаво кўприги ўрнатилди. Ҳозирги кунга келиб, Ўзбекистон дунёнинг аксарият давлатлари билан ҳаво йўллари орқали боғланиб бўлган.

Дунё бўйлаб ҳаво алоқаларини ўрнатилиши ва қатнов йўналишлари доирасининг кенгайиши ишлаб чиқарувчилар учун ҳам бир қатор афзалликлар туғдирди. Аввало, ишлаб чиқарувчиларнинг чет эллик ҳамкорлар билан узвий алоқа ўрнатишга, ижтимоий муносабатларни яхшилашга<sup>50</sup>, тез-тез кўришиб, ўзаро тажриба алмашишлари учун йўл очилди, бу биринчидан. Иккинчидан, маҳсулотларни сифатини сақлаган ҳолда, қисқа фурсатларда, исталган манзилларга етказиш имконияти яратилди. Шу боис, ҳаво транспортдан фойдаланувчилар сони йилдан-йилга ортиб бормоқда. Мижозлар орасида ҳаво транспортини афзал деб билаётганлар сони кўпаймоқда.

Энг муҳими, маҳаллий кадрларимиз миллионлаб одамларнинг узоғини яқин қилаётган замонавий, шу қатори мураккаб тузилган ҳаво кемаларини бошқармоқдалар ва уларга техник хизмат кўрсатаётирлар. Қувонарлиси, мамлакатимиз ҳаво транспорти тасарруфига ўтган барча самолётларга Ўзбекистон Республикасининг байроғи тасвири туширилган бўлиб, уларни бир қарашдаёқ таниб олишингиз мумкин. Албатта, осмону фалакда Ўзбекистон тамғаси туширилган самолётларнинг парвоз этаётганлигини кўриш кишига завқ-шавқ бағишлайди<sup>51</sup>.

Мамлакатимизнинг Тошкент, Бухоро, Самарқанд, Нукус, Қарши, Термиз, Урганч, Навоий, Андижон, Фарғона ва Наманган шаҳарларида 11 аэропорт мавжуд бўлиб, уларнинг ҳаммаси халқаро мақомга эга бўлган. Мазкур аэропортларнинг барчаси замонавий ва мукамал техника билан ҳамда жаҳон стандартларига мос келувчи йўловчи терминаллари ва бошқа ускуналар билан таъминланган. Ва айтиш керакки, аэропортлардаги мавжуд

<sup>49</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

<sup>50</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

<sup>51</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

техник базаси ҳамда йўловчи ва юк терминаллари инфратузилмаси доимий янгилашиб борилмоқда. Шунингдек, мамлакатимиз аэропортлардаги учуш-қўниш йўлаклари талаб даражасида реконструкция қилинди. Аэровокзалларнинг ички ва ташқи томонлари ҳам тўлиқ янгилашиб, уларда йўловчилар учун барча қулайликлар ва шароитлар яратиб берилган. Кутиш залларидаги юмшоқ ўриндиқлар, автомат массаж қилувчи креслолар, катта мониторли телевизорлар, дам олиш хоналари, тиббиёт хизмати хонаси, валюта айрибошлаш шаҳобчалари, кичик савдо дўконлари, чипталарни расмийлаштириш етарли кабиналар ва керакли хизматларнинг мавжудлиги ва бошқалар фикримизнинг исботидир. 2018 йилдан божхонадан ўтиш қонун-қоидаларини соддалаштириш, йўловчиларга энгиликлар яратиш мақсадида аэропортлардаги божхона чегара пункларида бирданига иккита, яъни, яшил ва қизил йўлаклардан ўтиш тизими йўлга қўйилган.

Нафақат, аэропортларимиз, балки бир неча ўн йиллардан буён маҳаллий ва халқаро йўналишларда самарали фаолият кўрсатиб келаётган «Ўзбекистон ҳаво йўллари» миллий авиакомпанияси ҳам халқаро миқёсдаги эътирофларга муносиб кўриб келинаётир. Мамлакатимиз фуқаро авиацияси жаҳон миқёсида эътироф этилиб, энг ишончли ва хавфсиз авиаташувчи сифатида тан олинган. Албатта, бундай юксак эътирофларга эришиш ўз-ўзидан бўлмаган. Бу, аввало Республика раҳбариятининг узоқни кўзлаб олиб борган сиёсати, керакли ва муҳим қарорларни ўз вақтида қабул қила олганлиги ҳамда фуқаро авиациясини барча ишчи – ходимларининг фидокорона меҳнатларининг самарасидир.

**Хулоса.** Ўзбекистонда фуқаро авиациясини доимий равишда такомиллаштириб бориш, уни жаҳон андозалари талабларига мослаштириб бориш ҳукуратимизнинг доимий эътибор марказида бўлиб келмоқда. Бунинг учун зарурий қарорлар қабул қилиниб, уларнинг амалий ижроси ҳам таъминланмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг соҳага оид қабул қилинган бир қатор фармон ва қарорлари мамлакатимизда ҳаво транспортидаги ислохотларнинг давомийлигини таъминлашда катта аҳамиятга эга бўлмоқда. Мамлакатимизда бир қанча муҳим ўзгаришлар амалга оширилди<sup>52</sup>. Жумладан, «Ўзбекистон ҳаво йўллари» миллий авиакомпанияси қайта ташкил этилиб, «Uzbekiston Airways» ва «Uzbekiston Airports» бир-биридан мустақил компаниялар тузилди. Юқоридаги ўзгаришлар мамлакатимизда авиация бозорини либераллаштиришга, парвозлар хавфсизлигини таъминлаш ва унинг географиясини кенгайтиришга, соҳага замонавий бошқарув усуллари олиб киришга, ҳамда йўловчиларга кўрсатилаётган сервис қулайликларини юқори савияга кўтаришга хизмат қилмоқда. Ўзбекистонда жаҳон андозаларига тўла мос келувчи, доимий такомиллашиб боровчи, замонавий фуқаро авиацияси

<sup>52</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

вужудга келтирилди. Албатта, буларнинг ҳаммаси мавжуд имкониятларнинг воқеликка айланаётганлигини яққол ифодасидир.

### References

1. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.
3. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.
4. I.V.Kudishin. AVIATSIYA. – Toskkent: DAVR, 2013. – B. 9.

## МОДЕЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ПОТОКОВ В ДИСПЕТЧЕРСКОЙ СЛУЖБЕ ТРАНСПОРТНОГО ПРОЦЕССА

*Джураев Т.Б*

*(ТУИТ, ИТ кафедры, ассистент)*

*Чориёров Н.К*

*(ТУИТ, ИТ кафедры, магистр)*

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы обеспечения стабильности информационных и материальных потоков в системе управления транспортными средствами в железнодорожных путях, показано, что автоматизация функционирования информационно-диспетчерские службы информационного обслуживания на основе разработанной модели транспортного процесса позволяет сэкономить расход временных и финансовых ресурсов.

**Ключевые слова:** информационные потоки, службы транспортных процессов, модели информационных потоков, системы управления.

**Annotation.** The article deals with the issues of ensuring the stability of information and material flows in the control system of vehicles on railways, it is shown that the automation of the operation of information and dispatch services of information services based on the developed model of the transport process allows saving time and financial resources.

**Key words:** information flows, transport process services, information flow models, control systems.

**Введение.** Необходимость повышения эффективности и безопасности транспортного процесса на внутренних железнодорожных путях Узбекистана требует постоянного развития и постепенного совершенствования технических средств и систем, задействованных в данном процессе. Актуальность этой задачи обусловлена построением новых железнодорожных линий.

Интенсивное развитие информационно-коммуникационных технологий позволяет использовать их для обеспечения эффективности и безопасности транспортного процесса. Решение поставленной задачи возможно на путях совершенствования транспортных автоматизированных систем управления движением поездов. Одной из важнейших составляющих систем управление движением поездов является информационно-диспетчерской службы [1]. Перспективным типом информационно-диспетчерской службы, которая может использоваться как составляющая системы управления движением поездов, является информационно-диспетчерская служба информационного обслуживания. Это информационная система, основными функциями которой являются прием и накопление полученной информации, ее интеллектуальная обработка и передача внешним потребителям на доступные им технические средства.

При этом алгоритм обработки и передачи информации может быть настроен в соответствии с требованиями потребителя. Информация, которой оперирует информационно-диспетчерская служба, может быть типизирована с точки зрения источника ее поступления и приемника, на который она передается. Функционирование информационно-диспетчерской службы носит во многом вероятностный характер. Для того чтобы выявить производительность системы, спроектировать оптимальную архитектуру программного обеспечения и выбрать аппаратные средства, необходимо проанализировать основные характеристики функционирования информационно-диспетчерские службы информационного обслуживания.

Если данную систему представить как систему массового обслуживания, то для анализа эффективности работы информационно-диспетчерской службы целесообразно применить методы теории массового обслуживания. С точки зрения средства массового обслуживания информационно-диспетчерскую службу можно квалифицировать как многоканальную систему с бесконечным числом требований, с потерями, многофазную, с несколькими очередями и беспriorитетной дисциплиной обслуживания. При этом, данные каждого типа информации можно представить как отдельный информационный поток. Вероятность поступления информационного потока на вход системы носит случайный характер. В связи с этим, процессы обработки и передачи информации потребителю также зависят от ряда заранее не известных факторов. Рациональное распределение информационных потоков между подсистемами являются весьма важным элементом эффективного функционирования информационно-диспетчерской службы в целом. Можно выделить два основных типа информационных потоков: входящие - это данные, поступающие от внешних источников, например: рейсовая информация от управленцев, информация, поступающая в системе эшелонных сообщений по УКВ-радиосвязи, информация автоматизированных информационных систем, радиолокационная информация; исходящие - это данные, предназначенные для внешних потребителей информации, например: путевая информация, включающая геоинформационные и навигационные данные, информация о дислокации эшелона поездов, о техническом состоянии поездов и т.д.

**Основная часть.** Входящие и исходящие информационные потоки информационно-диспетчерской службы могут быть рассмотрены как входящие и исходящие потоки требований систему массового обслуживания.

Анализ традиционно используемых на железнодорожных путях информационных потоков показывает, что рассматриваемые потоки требований могут быть представлены как простейшие, которым свойственны [2]:

- стационарность (распределение не зависит от положения интервала  $t$  на оси времени и зависит только от длительности  $t$ );

- отсутствие последствия (для любых двух непересекающихся промежутков времени число событий, наступающих за один из них, не зависит от числа событий, наступающих за другой);

- ординарность (вероятность наступления за элементарный промежуток времени более одного события пренебрежимо мала по сравнению с вероятностью наступления за этот промежуток времени одного события).

Случайный характер потока требований и длительности их обслуживания порождает в системе массового обслуживания случайный процесс. При этом, случайным процессом называется соответствие, при котором каждому значению аргумента ставится в соответствие случайная величина. Случайной называется величина, которая в результате опыта может принять одно, но не известное заранее числовое значение из данного числового множества. Количественное описание функционирования системы массового обслуживания значительно упрощается, если протекающий в ней случайный процесс является марковским. Случайный процесс, протекающий в системе массового обслуживания, называется марковским, если вероятность любого состояния системы в будущем зависит только от ее состояния в настоящем и не зависит от ее состояний в прошлом.

Как правило, для марковского процесса работа система массового обслуживания описывается с помощью аппарата системы дифференциальных уравнений первого порядка.

$$P'_j(t) = - \left( \sum_{\substack{i=1 \\ i \neq j}}^n \gamma_{ji} \right) P_j(t) + \sum_{\substack{i=1 \\ i \neq j}}^n P_i(t) \gamma_{ij}$$

где  $i, j$  – индексы состояния,  $j = 0, \dots, n$ ,  $i = 0, \dots, n$ ;  $P_j(t)$ -вероятность того, что система в момент  $t$  находится в состоянии  $j$ .

В итоге основные характеристики эффективности функционирования системы массового обслуживания выразится через параметры этой системы, потока заявок и дисциплины работы данной системы. Данные расчетные соотношения приводятся с учетом того, что система, моделирующая информационно-диспетчерской службы, является многоканальной, с числом каналов  $K$  и ограниченной очередью  $m$  ( $M/M/K/m$ ). Поток требований простейший, с параметром  $\gamma$ . Обслуживание в канале – по показательному закону с параметром  $\mu$ . При этом основные характеристики системы могут быть описаны следующим образом. Вероятность простоя системы

$$P_0 = \left[ 1 + \sum_{j=1}^k p_j \frac{1}{j!} + \frac{p^{K+1}(1-p_c)}{K \cdot K!(1-p_c)} \right]^{-1}, P_c = \frac{\gamma}{K\mu}$$

Вероятность отказа в обслуживании

$$P_{omk} = \frac{p^{K+m}}{K^m \cdot K!} * P_0.$$

Среднее число занятых каналов в системе

$$K_3 = p(1 - P_{omk}).$$

Число требований в очереди

$$n_0 = \frac{p^{K+1} * P_0}{K+K!} * \left\{ \frac{1-p^m [m+1-mp_c]}{(1-p_c)^2} \right\}.$$

Среднее время ожидания требования в очереди

$$t_{ож} = \frac{n_0}{\gamma}.$$

Среднее число требований в системе

$$j = n_0 - K_3.$$

Число требований очереди

$$t_c = t_{ож} + \frac{1}{\mu} (1 - P_{омк}).$$

Наиболее значимым параметром системы является дисциплина обслуживания требований. Это означает, что все входящую информацию по степени значимости ранжируется и их обработка осуществляется в таком же порядке. Следует отметить следующие варианты этого параметра:

- бесприоритетное обслуживание. При этом требование, поступающее на вход, помещается в очередь и находится там до тех пор, пока не будет обслужено;

- обслуживание с приоритетами: а) абсолютный приоритет, когда требование занимает обслуживающий прибор с прерыванием фазы обслуживания другого требования; б) относительный приоритет при этом требование занимает обслуживающий прибор без прерывания фазы обслуживания другого требования;

- обслуживание со смешанными приоритетами. При этом обслуживания называется смешанной, если наряду с абсолютными приоритетами допускается присвоить относительные приоритеты определенным требованиям, а остальные обслуживать без приоритетов. Обслуживания является приемлемой, когда существуют жесткие ограничения на время ожидания отдельных режимов, что требует присвоения им абсолютных приоритетов. В это время ожидания некоторых слабоприоритетных требований может оказаться недопустимо большим, хотя отдельные из них и имеют запас по времени ожидания.

В условиях практической эксплуатации информационно-диспетчерской службы базовой характеристикой качества обслуживания является среднее время ожидания -  $t_{ож}$ . При приоритетном обслуживании:

$$t_{ожi} = T_0 + \sum_{i=1}^n T_i, (i = \overline{1, n}),$$

где  $T_0$  – время обслуживания всех требований с более высоким приоритетом, поступивших в систему ранее рассматриваемого;  $T_i$  - время обслуживания всех требований с более высоким приоритетом, чем  $i$ , поступивших в систему за время ожидания  $t_{ожi}$  рассматриваемого требования.

Проводя некоторых последовательных преобразований, получаем, что для различных типов требований среднее время ожидания при бесприоритетной дисциплине обслуживания одинаково

$$\overline{t_{ож}} = \frac{\overline{T_0}}{(1-R)}, \text{ где } R - \text{ коэффициент загрузки.}$$

При обслуживании с относительным приоритетом время ожидания из  $i$  - го потока

$$t_{ож} = T_0 + \sum_{k=1}^n T'_k + \sum_{k=1}^n T''_k, i = \overline{1, n},$$

где  $\sum_{k=1}^n T'_k$  - время обслуживания всех требований с более высоким приоритетом, поступивших в систему ранее рассматриваемого;  $\sum_{k=1}^n T''_k$  - время обслуживания всех требований с более высоким приоритетом, чем  $i$ , поступивших в систему за время рассматриваемого требования. После соответствующих преобразований получим.

$$t_{ож i} = \frac{\overline{T_0}}{(1-R_{i-1})(1-R_i)}, i = \overline{1, n}.$$

При обслуживании с абсолютным приоритетом рассматривается вариант, когда требование возвращается к обслуживанию с того места, где оно было прервано. Обслуживания называется дисциплиной с абсолютным приоритетом и дообслуживанием. Среднее время ожидания требований при использовании дисциплины с абсолютными приоритетами составляет

$$\overline{t_{ож i}} = \frac{R_{i-1} \overline{x}_i}{1-R_{i-1}} + \frac{\sum_{k=1}^n \gamma_k \vartheta_k^{(2)}}{2(1-R_i)(1-R_{i-1})}, i = \overline{1, n}.$$

где  $\gamma_k$  - интенсивность входящего потока,  $x_i$  - среднее время обслуживания,  $\vartheta_k^{(2)}$  - второй начальный момент длительности обслуживания.

**Заключение.** В итоге можно отметить, что решения задачи повышения безопасности транспортного процесса железнодорожных путей возможно на путях совершенствования системы управления и информационно-диспетчерской службы, передачи информации внешним потребителям на доступные им технические средства. При этом алгоритм обработки и передачи информации может быть настроен в соответствии с требованиями получателя информации.

Функционирование информационно-диспетчерской системы носит вероятностный характер, поэтому для количественного анализа её работы целесообразно применить методы теории массового обслуживания.

### Литература

1. Якубов М.С., Тургунов М.Р. “Особенности логистики информационных ресурсов в электронном документообороте” International scientific journal “SCIENCE AND WORLD”. №3 (19), 2015, Vol II. с.107-111.
2. Jiyanbekov K., Usmonov J., & Azimov S. (2019). The probability model of railway transport system activity. Paper presented at the Transport Means - Proceedings of the International Conference, 2019- October 1256-1259. Retrieved from [www.scopus.com](http://www.scopus.com)
3. Usmonov J.T., Djuraev T.B, Pulatova Z.M. (2020). Optimization of global information flows in transport system management. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(7 Special Issue), 2024-2032. doi:10.5373/JARDCS/V12SP7/20202319 Retrieved from [www.scopus.com](http://www.scopus.com)

**ТРАНСПОРТ ВА КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМЛАРИ ИЖТИМОЙИ  
МУНОСАБАТЛАРНИНГ АЖРАЛМАС ЙЎНАЛИШЛАРИ СИФАТИДА***Салимов Бахриддин Лутфуллаевич**Тошкент Давлат Транспорт Университети профессор вб**Мардиев Саврунбек Кенжа ўгли**Тошкент Давлат Транспорт Университети 2-курс талабаси**Тохиров Жамолхўжа Шарофиддин ўгли**Тошкент Давлат Транспорт Университети 2-курс талабаси*

**Аннотация.** Мақолада жамиятда кечаётган барча жараёнлар, жамиятдаги мавжуд соҳалар, йўналишлар борки, ҳаммаси ижтимоий муносабатларнинг таъсир доирасига кириши, биргина фан, таълим, соғлиқни сақлаш эмас, балки бошқа соҳалар, жумладан, транспорт, коммуникация тизимлари ҳам ижтимоий муносабатларнинг ажралмас йўналишлари ҳисобланиши, мазкур соҳалар кишилиқ жамиятининг вужудга келишида, ривожланишида, умуман бугунги кун даражасида эришишида муҳим роль ўйнаши таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** жамият, ижтимоий муносабатлар, транспорт, коммуникация, бир макон - бир йўл.

**Аннотация.** В статье собраны все процессы, происходящие в обществе, существующие отрасли и направления в обществе, все они входят в сферу влияния общественных отношений не только науки, образования, здравоохранения, но и других сфер, в том числе транспорта, коммуникативные системы, рассматриваются неотъемлемые направления общественных отношений, эти сферы входят в состав личного общества, анализируется, что оно играет важную роль в его создании, развитии и в целом выходе на сегодняшний уровень.

**Ключевые слова:** общество, социальные отношения, транспорт, связь, один пояс - один путь.

**Кириш.** Илмий мулоқотда, оммавий ахборот воситаларида ва умуман кундалиқ турмушда қўлланиладиган ибора ва тушунчалар ўзининг қамраб олиш доирасига кўра турли хил даражада бўлади. Баъзи сўзлар тор маънони берса, бошқалари жуда кенг маънода қўлланилади. Ана шу жиҳатдан олганда, ижтимоий муносабатлар иборасининг кўлами ҳам анча каттадир<sup>53</sup>. Зеро, жамиятда кечаётган барча жараёнлар, жамиятдаги мавжуд соҳалар, йўналишлар борки, ҳаммаси ижтимоий муносабатларнинг таъсир доирасига кирази<sup>54</sup>. Биргина фан, таълим, соғлиқни сақлаш эмас, балки бошқа соҳалар,

<sup>53</sup> Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

<sup>54</sup> Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical psychology & sociology). – М., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.

жумладан, транспорт, коммуникация тизимлари<sup>55</sup> ҳам ижтимоий муносабатларнинг ажралмас йўналишлари ҳисобланади. Мазкур соҳалар кишилиқ жамиятининг вужудга келишида, ривожланишида, умуман бугунги кун даражасида эришишида муҳим роль ўйнаб келган. Келинг, энг қадимги, ғорларда яшаган ибтидоий одамлар ҳаётини кўз олдимизга келтирайлик. Бу даврлардаги одамлар ҳеч нарса яратмаганлар. Табиатдаги бор нарсалардан фойдаланишган.

**Муҳокама ва натижалар.** Ўзи аввалдан мавжуд бўлган ғорлардан бошпана сифатида фойдаланишган. Табиатдаги меваларни, ўт-ўланларни истеъмол қилишган, ҳайвонларни тутиб ейишган. Бунинг учун ўз бошпаналари бўлган ғорларидан маълум масофада узоқлашишга тўғри келган. Қоринлари тўйғач ғорларга яна қайтиб келиш лозим бўлган. Баъзан, йўлни йўқотиб адашиб қолишган ҳам. Лекин, бора-бора худудни яхши ўзлаштириб, ундаги йўлларни ҳам ўрганишлари натижасида адашмайдиган бўлишган. Яъни ибтидоий одамлар тунни ғорларда ўтказишиб, кундузлари эса ташқарига чиқиб кечиришган. Ўша худуддаги сўқмоқлар, йўллар қаерга олиб боришини яхши билишган. Жумладан, ўз бошпаналаридан узоқроқ масофага узоқлашган тақдирда ҳам, орқага қайта олишган, ўз ғорларини беҳато топиб келишган. Худди мана ҳолат инсоният тарихидаги дастлабки йўл, алоқа – коммуникация тизими ҳисобланади. Бу даврдаги илк транспорт тури эса бу одамларнинг ўзи, унинг оёқлари бўлган десак адашмаган бўламиз. Кейинчалик эса ҳайвонлардан транспорт воситаси сифатида фойдалана бошлаганлар. Ушбу мулоҳазадан кўриниб турганидек, коммуникация масалалари энг қадимий даврлардан бошлаб инсониятга ҳамроҳ бўлган<sup>56</sup>. Тўғрироғи, ибтидоий одамларнинг яшаб қолишида муҳим роль ўйнаган.

Кишилиқ тарихининг кейинги ривожланиш босқичларида коммуникациянинг одамлар ҳаётидаги ўрни ортса ортки, асло камаймади. Маълумки, ҳеч нарса ёки ҳодиса бир хилда қолиб кетмайди. Балки, ҳамма нарса – ҳодиса абадий ўзгаришга маҳкум этилган. Шу қатори, териб-термачлаб, пода-тўда бўлиб яшаган одамларнинг ҳаёти ҳам бир хилда қолиб кетиши мумкин эмас эди. Оллоҳ томонидан одамзотга берилган юксак ақл-идрок туфайли унинг ҳаёт тарзи ҳам ўзгаришга юз тутди. Жамиятнинг илк дебочаси ҳисобланган оила, уруғ ва қабилага бирлашди. Муайян ахлоқий қоидалар асосида яшашни ўрганди. Маълум иқтисодий қонуниятлар асосида ривожланадиган, сиёсий тартиботлар ўрнатилган, тегишли ҳуқуқлар берилган ёки чекланган шарт-шароитга кўниб умргузаронлик қила бошлади.

<sup>55</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

<sup>56</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

Бундай тарзда яшайдиган маскан, кейинчалик жамият деб олди. Айтиш мумкинки, жамиятда яшай бошланиши одамлар ҳаётини ҳақиқатдан ҳам янги босқичга олиб чиқди. Бу шунчаки, янги босқичгина эмас, балки тубдан ўзгарган юқори даражадаги ҳаёт тарзи эди. Жамиятдаги бу ҳаёт тарзи ўзининг мазмун-моҳияти жиҳатидан ибтидоий пода давридаги кун кечиришдан кескин фарқ қиларди<sup>57</sup>. Очиқ айтиш керакки, одамларнинг ибтидоий пода давридаги ҳаёти баъзи томонлари ҳайвонот дунёсига яқин бўлган. Ҳеч қандай ахлоқ қоидаларининг йўқлиги, тартибсиз, оммавий никоҳ, ижодкорлик, яратувчанликдан йироқлик, фақат тайёр нарсалардан фойдаланиш, ҳаётда мақсад-муддаонинг қўйилмаганлиги, асосий мақсад қорин тўйдириш, жинсий эҳтиёжни қондириш каби нафс эҳтиёжларини қондиришдан иборат бўлганлиги ва ҳоқозалар бунинг яққол исботи бўлган. Хулоса қилиб айтганда, ибтидоий пода даврда яшаганлар одам бўлиб одам бўлмаган, ҳайвон бўлиб ҳайвон бўлмаган. Ташқи кўриниши ҳозирги инсонларга ўхшаш бўлгани билан, яшаш тарзи ҳайвоний бўлган.

Ижтимоий муносабатларнинг меваси бўлган жамиятни вужудга келиши одамларнинг ана шу ҳайвонийликдан қутқарган<sup>58</sup>. Негаки, жамиятда ўрнатилган тартиботлар ҳайвонийликни инкор этиб, одамийликни тарғиб этган. Албатта, ҳайвонийликни рад этиб одамийликни қабул қилиш жараёни бирданига амалга ошиб қолмаган. Бунинг учун ўн йиллар, асрлар ўтиши керак бўлган. Шуни афсус билан қайд этиб ўтишга мажбурмизки, орадан шунча вақт ўтиб, минглаб йиллардан буён жамиятда яшаётганлигимизга қарамасдан, одамийликдан чекиниб, ҳайвонийликни афзал кўраётганлар орамизда учраб турибди. Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий тармоқларда кунора бериб борилаётган кўз кўриб, қулоқ эшитмаган ноинсоний ҳолатлар, вахшиёна жиноятлар бунга яққол мисол бўлади. Шукр қиламизки, бундайин кимсаларнинг жамиятда кўп эмаслигига. Жамият бино бўлган илк вақтларданок ноахлоқий, ноинсоний иллатларга қарши туриб келмоқда. Ўтган давр мобайнида ушбу курашда улкан муваффақиятларга эришилди. Шу билан бирга мағлубиятга учралган онлар ҳам бўлди. Лекин нима бўлганда ҳам охир-оқибатда одамийликнинг устун келаётганлиги ҳаммамизни қувонтиради.

Жамиятнинг вужудга келиши, одамлар турмуш тарзида коммуникациянинг мавқеини кучайишига, транспортга бўлган эҳтиёжнинг вужудга келишида ва унинг кейинги ривожланишида муҳим аҳамият касб этди<sup>59</sup>. Аввал оила, кейин уруғ ва қабила бўлиб яшашни ўрганган одамлар

<sup>57</sup> Салимов Бахриддин Лутфуллаевич, Ҳасанов Миршод Нўъмонович. ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 2, Issue 4, 2022. -P.1345-1354.

<sup>58</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

<sup>59</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

жамоасини аввалгидай тор худуд доирасида яшаш қониқтирмай қолган. Энди улар атроф муҳитдан ўзларига яшаш учун қулай жой излай бошлашган. Шу мақсадда теварак атрофдаги катта-катта худудларни ўрганишган, ўзлаштиришган. Бунинг учун янги-янги йўллар, сўқмоқлар очишган. Қулай жой топилгач эса, шу ерда ўрнашишган. Ушбу манзилгоҳлар ўрнида, вақт ўтиши билан шаҳарлар вужудга келган. Бундан хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, қадимий шаҳарлар ҳар томонлама мақбул бўлган ерда, жумладан, коммуникация масалалари ечим топган худудларда барпо этилган. Ана шундай қулай жойда қад ростлаган шаҳарларнинг истиқболи ҳам юксак бўлган. Қадимги юнон алломаси Афлотун ибораси билан айтганда ҳақиқий шаҳар бу “...Одамларнинг таҳсинга лойиқ одатлари ва ахлоқи рўёбга чиқишига шартшароит яратилган, жойлашган ери, табиий шароити қулай, яъни унга аҳоли учун озиковқат ва бошқа зарур нарсаларни олиб келиш мумкин бўлган шаҳардир”<sup>60</sup>. Ҳеч иккиланмасдан айтиш мумкинки, буюк юнон алломасининг бу мулоҳазаси тўғридан-тўғри коммуникацияга дахлдордир. Эътибор берсангиз, аҳоли учун озиковқат ва бошқа зарур нарсаларни олиб келиш мумкин бўлган, деган жумла қўлланилмоқда. Зарур нарсаларни олиб келиш учун нима бўлиши керак? Албатта, йўллар бўлиши керак. Шаҳарни бошқа худудлар билан боғловчи йўллари қанча кўп бўлса ва шаҳар минтақалараро йўл бўйида жойлашган бўлса, шак-шубҳасиз бу шаҳар ривожланади. Шунда, Афлотун айтганидек, бундай шаҳарларга ҳаёт учун, таракқиёт учун керак бўладиган ҳамма нарсаларни келтириш имконияти бўлади. Бундай шаҳарларда, ҳаётини зарур бўлган нарсаларга танқислик кўзатилмайди. Чунки исталган худуддан керакли маҳсулотлар пешма-пеш келтирилаверилган. Буни исботлаш ортиқча уриниш ҳам шарт эмас. Оддийгина, тарихда машҳур бўлган ва ҳозирги кунда ҳам мавжуд бўлган, бир неча минг йиллик тарихга эга бўлган шаҳарларнинг географик жойлашувига, ички ва халқаро йўллар силсиласида тутган ўрнига қарасак бас, ҳаммаси ойдинлашади. Негаки, маълум ва машҳур шаҳарларнинг ҳаммаси географик қулай худудда ва транзит йўллар кесишган нуқтада жойлашган. Узоққа бормайлик, ўзимизни Самарқанд, Бухоро, Тошкент, Термез каби шаҳарларимиз худди шундай муҳим чорраҳаларда жойлашганини кўришимиз мумкин<sup>61</sup>. Биринчидан, ушбу шаҳарлар худуддаги маҳаллий ички йўллар марказида жойлашган. Иккинчидан, Шарқ ва Ғарбни боғлаган, инсоният тарихидаги энг узун карвон йўли бўлган “Буюк ипак йўли” нинг тармоқлари ҳам мазкур шаҳарлардан ўтган. Ўз навбатида, бу омиллар шаҳарларнинг гуллаб-яшнашига имкон берган. Ушбу омиллар, бошқа мамлакатлардаги йирик саноат ва маданий марказларга айланган шаҳарларнинг шаклланишида ҳам ҳал қилувчи аҳамият касб этганлигини

<sup>60</sup> Фозил одамлар шаҳри. Абу Наср Форобий. Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. 41 бет.

<sup>61</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

ишонч билан айтишимиз мумкин. Демак, йўлларнинг кўплиги, мақбул коммуникацион тизимнинг мавжудлиги шаҳарлар учун сув ва ҳаводек зарурдир. Кишилиқ жамияти ривождаги кўп асрлик ушбу тарихий ҳақиқат, айтиш кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Ҳозир ҳам, замонавий дунёда йўл – коммуникация масалалари ўз устуворлигини сақлаб келмоқда. Дунё сиёсий харитасига назар ташласак, ушбу мулоҳазамиз ўз тасдиғини топади. Маълумки, ҳозирги кунда жаҳонда 230 ортиқ давлат мавжудлиги таъкидлаб келинади. Бу давлатларнинг майдони, аҳолисининг сони, ривожланиш даражаси ҳар-хил. Келинг, ривожланиш даражаси нисбатан юқорирак давлатларни номини келтирсак, булар: АҚШ, Хитой, Россия, Франция, Буюк Британия, Германия, Япония, Испания, Италия, Жанубий Корея, Сингапур, Малазия, Саудия Арабистони, БАА, Қувейт ва бошқалар. Собиқ иттифок ўрнида вужудга келган Латвия, Литва, Эстония каби давлатлар. Ушбу давлатларнинг ҳаммасида йўл – коммуникация масалалари тўлиқ ўз ечимини топган. Яъни, бу давлатлар тўғридан-тўғри денгизга чиқиш имконига эга. Ва айтиш мумкинки, бундай имкониятнинг мавжудлиги ушбу давлатларнинг бугунги мавқеи эришишида ҳал этувчи омиллардан бири бўлган. Айтиш дамда ҳам жуда катта имконияларга эга бўлган жаҳоннинг етакчи давлатлари кўшимча йўл – коммуникация йўлакларини очиш бўйича ҳам рақобатлашишмоқдалар.

**Хулоса.** Янги транспорт коридорларини очилиши иқтисодий салоҳиятини ошишига ва сиёсий таъсир доирасини кенгайтишига олиб боради. Бундай курашлар Европада, Кавказда ва Осиё минтақасида кескин тус олмоқда. Албатта, янги транспорт коридорларини очилиши, озми кўпми минтақадаги ривожланаётган давлатларнинг ижтимоий – иқтисодий тараққиётига ўз таъсирини кўрсатади<sup>62</sup>. Табиийки, бу таъсир кўпроқ ижобий характерда бўлади. Бунинг боиси, йўлларнинг қурилиши ва йўлларда транспортларнинг гавжум бўлиши, йўл бўйидаги ҳудудлар ривожига қулай шароит яратади. Шу сабабли, ривожланаётган мамлакатлар ҳам, янги транспорт коридорларини яратиш лойиҳаларида иштирок этишни маъқул кўрмоқдалар. Ана шундай лойиҳалардан бири, Хитой томонидан илгари сурилган “Бир макон, бир йўл” деб номланади. Мазкур ташаббусда, ҳам куруқлик, ҳам денгиз йўлларини ривожлантириш орқали Осиё, Европа ва Африка давлатлари орасида халқаро ҳамкорликни ўрнатиш, мустақамлаш ва келгуси истиқболларини вазифалари мақсад қилиб қилиб қўйилган. Натижада, лойиҳа иштирокчилари бўлган мамлакатлар ўртасида интеграция кучайиб, глобал эркин савдо алоқалари йўлга қўйилади. Тахминий ҳисоблаганда лойиҳанинг иқтисодий қиймати йигирма бир миллион АҚШ долларига тенглиги айтилмоқда. Шу боис, “Бир макон, бир йўл” лойиҳасида

<sup>62</sup> Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

қатнашиш истагини билдирган давлатлар сони кўпайиб бормоқда. Айни пайтда бундай хоҳишни билдирган давлатлар сони 100 тадан ортган.

### References

1. Фозил одамлар шаҳри. Абу Наср Форобий. Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. 41 бет.
2. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.
4. Salimov Bahriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.
5. Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical psychology & sociology). – М., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.
6. Салимов Бахриддин Лутфуллаевич, Ҳасанов Миршод Нўъмонович. ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 2, Issue 4, 2022. -P.1345-1354.

## МАГИСТРАЛ КЎЧАЛАРДА ТАШКИЛ ҚИЛИНГАН ВА ТАШКИЛ ҚИЛИНМАГАН АВТОМОБИЛЛАР ТЎХТАБ ТУРИШ ЖОЙЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ

*Дарабов Музрон*

*Тошкент давлат транспорт университети, т.ф.н. доц.,*

*Худайбергенов Сардор Камараддинович*

*Тошкент давлат транспорт университети, асс.*

**Annotation.** Today, many measures are being taken to ensure the safety of movement on the highways of our Republic. Currently, as a result of the increase in the number of cars, traffic jams on highways are increasing. The increase in traffic jams occurs not only as a result of an increase in the number of cars, but also as a result of irregular parking of cars on the roadside of highways. In this article, you can get information about the parking lots of vehicles on the streets of the city of Tashkent.

**Keywords:** highway, roadside, parking, traffic jams, public transport, speed of movement of the flow, Street, pedestrian.

**Аннотация.** На сегодняшний день проводится множество мероприятий по обеспечению безопасности движения на автомобильных дорогах нашей Республики. В настоящее время в результате увеличения количества автомобилей увеличиваются пробки на автомагистралях. Увеличение пробок происходит не только в результате увеличения количества автомобилей, но и в результате нерегулярной парковки автомобилей на обочинах автомобильных дорог. В данной статье вы можете получить информацию о стоянках автотранспорта на улицах города Ташкента.

**Ключевое слово:** автодорога, обочина, автостоянка, пробки, общественный транспорт, скорость движения потока, улица, пешеход.

**Аннотация.** Бугунги кунда Республикамиз автомобиль йўлларида ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш бўйича кўпгина чора-тадбирлар олиб борилмоқда. Ҳозирги кунда автомобилларнинг сони ошиши натижасида автомобиль йўлларида тирбандликлар ошиб бормоқда. Тирбандликларнинг ошиши фақат автомобиль сонининг ошиши натижасида эмас балки автомобиль йўллари йўл ёқасида автомобилларнинг тартибсиз тўхтаб туриши натижасида ҳам вужудга келмоқда. Ушбу мақолада Тошкент шаҳри кўчаларида транспорт воситаларининг тўхтаб туриш жойлари тўғрисида маълумотларни олишингиз мумкин.

**Калит сўзи:** автомобиль йўли, йўл ёқаси, тўхтаб туриш жойи, тирбандлик, жамоат транспорти, оқимининг ҳаракатланиш тезлиги, кўча, пиёдалар.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгандан сўнг иқтисодий ўзгаришлар ҳаётга изчил жорий этила бошлади. Чўнончи, автомобил ишлаб чиқариш саноати йўлга қўйилди, йўл қурилиш соҳаси жадаллаштирилди, шунингдек, чет эл давлатлари билан савдо алоқалари юқори даражага

кўтарилди. Бу эса, табиий равишда Республика автомобил йўлларида ҳаракат миқдорининг йилдан-йилга ортишига олиб келди. Ҳозирги ва истиқболдаги асосий масалалардан бири, автомобил йўлларида ҳаракат хавфсизлигини таъминлашдан иборат бўлиб, унда йўл-транспорт ҳодисалари, уларда ҳалок бўлувчилар ва тан жароҳати олувчилар сонини, кўриладиган умумий ижтимоий-иқтисодий зарарларни камайтиришга қаратилиши зарур [2].

Бугунги кунда Республикада, шу жумладан пойтахтимиз Тошкент шаҳрида ҳам транспорт воситаларининг сони кескин ошиб бормоқда, бунинг натижасида шаҳарнинг марказий кўчаларида тирбандликлар ва йўл транспорт ҳодисаларининг сони ошиши кузатилмоқда. Албатта бунга жуда кўплаб омиллар ўз таъсирини кўрсатмоқда, шулардан бири шаҳарнинг марказий кўчаларида автомобилларнинг кўча бўйлаб тўхтаб туришидир. Улар кўчанинг қатнов қисмидаги бир ёки иккита тасмани эгаллаб, қатнов тасмалари сонини камайтириб юбормоқда.

Юқорида таъкидлаганимиздек, шаҳардаги транспорт воситаларининг сони ортиши билан транспорт воситаларининг тўхтаб туриш жойларига бўлган талаби ҳам ошмоқда. Транспорт воситаларининг кўча бўйлаб тўхтаб туриши натижасида кўринишнинг ёмонлашиши, ҳаракат тезлигининг пасайиши, жамоат транспортларининг ҳаракатланишини қийинлашиши, махсус транспорт воситаларининг ишлашига ҳалақит бериши ва йўл транспорт ҳодисалари содир бўлиш эҳтимолининг ошишига олиб келади.

Бундай ҳолатдаги автомобиллар тўхтаб туриш жойларини шаҳримизнинг жуда кўплаб кўчаларида кузатишимиз мумкин, жумладан А.Навоий, А.Темур, Шаҳрисабз, Ш.Руставели, У.Носир ва бошқа кўчалар.

А.Навоий кўчасида олиб борилган кузатувлардан шу нарса маълум бўлдики қатнов қисмининг биринчи тасмасидан транспорт воситаларининг ҳаракатланиши учун фойдаланилмаётганлиги аниқланди, чунки бу тасмани тўхтаб турган транспорт воситалари эгаллаб турибди. Бунга сабаб улар кўчадан ташқаридаги турар жойига сиғмайди, агар сиғган тақдирда ҳам ҳайдовчилар бу жойларга қўйишни хоҳлашмайди, чунки автомобиллар тўхташ жойлари ноқулай жойлашган ёки автомобилларни сақлаш талабларига жавоб бермайди. Кузатувлар шуни кўрсатдики, қатнов қисмининг битта тасмасини 60% гача кун давомида 4-6 соатгача тўхтаб турган транспорт воситалари банд қилади [4]. Бу ҳолат транспорт воситаларининг ҳаракатланишини жуда ёмонлаштиради, айниқса, жамоат транспортининг ҳаракатига куннинг эрталабки ва кечки тифиз пайтларида жуда катта таъсир кўрсатади.

Қуйидаги жадвалда А.Навоий ва А.Темур кўчаларидаги қатнов қисмини банд қилиб турган транспорт воситалари ва йўл шароити ҳақидаги маълумотлар келтирилган.


1 - жадвал

Транспорт воситаларининг тўхтаб туриш	Туриш	Қатнов	Ў	Қ	С	И	Ў	И	Т
---------------------------------------	-------	--------	---	---	---	---	---	---	---

жойлари тўғрисидаги маълумот						вақти, соат.			қисмида турган ТВнинг миқдори, дона	
Жойлашган ўрни, км	Сигими, дона	Пулик	Йўл белгилари	Қоплама тури	Ёритилган лик	мин	мах	ўрғача		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
<b>А.Навоий кўчасининг ўнг тамони</b>										
0-1	60	-	-	Асфальт	+	1	7	4	80	62
1-1.7	30	-	-	Асфальт	-	1	7	4	52	58
1.7-2	70	-	-	Асфальт	+	1	9	5	16	42
2-2.1	20	-	-	Асфальт	-	1	4	2.5	12	94
2.1-2.5	-	-	-	-	-	1	3	2	40	78
2.5-2.9	-	-	-	-	-	1	3	2	40	78
2.9-3.1	80	+	+	Асфальт	+	2	4	3	62	93
3.1-3.2	-	-	-	-	-	1	3	2	23	69
3.2-3.3	70	-	-	Асфальт	+	1	6	3.5	20	60
3.3-3.6	30	+	-	Асфальт	+	1	6	3.5	60	60
3.6-3.8	40	-	-	Асфальт	-	1	6	3.5	80	100
3.8-4.1	-	-	-	-	-	1	3	2	70	70
4.1-4.2	-	-	-	-	-	1	3	2	22	66
<b>А.Навоий кўчасининг чап тамони</b>										
4.2-3.9	25	-	-	Асфальт	+	1	6	3.5	24	62
3.9-3.8	200	-	-	Асфальт	+	1	8	4.5	12	93
3.8-3.6	20	-	-	Асфальт	-	1	6	3.5	14	54
3.6-3.5-	50	-	-	Асфальт	-	1	6	3.5	25	37
3.5-3.3	100	-	-	Асфальт	+	2	6	4	60	90
3.3-3.2	-	-	-	-	-	1	3	2	9	70
3.2-3.1	30	-	-	Асфальт	-	1	8	4.5	31	93
3.1-2.9	70	+	+	Асфальт	-	1	6	3.5	14	54
2.9-2.8	25	+	-	Асфальт	+	1	6	3.5	14	42
2.8-2.6	30	+	+	Асфальт	-	1	6	3.5	18	70
2.6-2.5	50	+	+	Асфальт	-	1	6	3.5	9	70
2.5-2.1	25	+	-	Асфальт	+	1	6	3.5	12	23
2.1-1.7	-	-	-	-	-	1	3	2	14	27
1.7-1	45	+	+	Асфальт	-	1	8	4.5	23	25
1-0	120	+	-	Асфальт	+	1	5	3	18	14
<b>А.Темур кўчасининг ўнг тамони</b>										
0-0.4	25	-	-	Асфальт	+	1	3	2	42	82
0.4-0.7	70	+	+	Асфальт	+	1	3	2	52	52
0.7-0.8	100	+	+	Асфальт	+	1	8	4.5	30	90
0.8-1.1	-	-	-	-	-	-	-	-	25	65
1.1-1.3	50	-	-	Асфальт	-	1	6	3.5	10	39
1.3-1.8	30	-	-	Асфальт	+	1	4	2.5	18	28
1.8-2.2	50	-	-	Асфальт	+	1	3	2	10	15
2.2-3.2	40	+	+	Асфальт	+	1	3	2	48	37
3.2-3.8	-	-	-	-	-	-	-	-	43	56
3.8-4.2	-	-	-	-	-	-	-	-	12	23
4.2-4.6	20	+	+	Асфальт	+	1	4	2.5	27	52

4.6-5.3	40	+	+	Асфальт	+	1	3	2	102	44
5.3-5.7	40	-	+	Асфальт	+	1	3	2	60	45
5.7-6.3	-	-	-	-	-	-	-	-	22	28
А.Темур кўчасининг чап томони										
6.3-5.9	-	-	-	-	-	-	-	-	37	72
5.9-5.5	100	-	-	Асфальт	-	1	3	2	52	100
5.5-5	-	-	-	-	-	-	-	-	40	62
5-4.3	-	-	-	-	-	-	-	-	34	38
4.3-3.8	20	-	-	Асфальт	-	1	4	2.5	12	19
3.8-3	-	-	-	-	-	-	-	-	64	62
3-2.3	40	+	+	Асфальт	+	1	8	4.5	48	53
2.3-1.5	50	+	+	Асфальт	-	1	4	2.5	31	30
1.5-0.8	60	-	-	Асфальт	+	1	8	4.5	72	80
0.8-0.3	20	-	-	Асфальт	-	1	8	4.5	36	56
0.3-0	-	-	-	-	-	-	-	-	12	31

Кўча бўйлаб автомобиллар тўхташ жойларини сунъий йўлдош орқали тасвирга олинган фотолавҳалардан ҳам кўришимиз мумкин (1,2-расмлар).



1-расм. А.Навоий кўчасининг сунъий йўлдош (спутник)дан олинган фотолавҳаси.



2-расм. А.Темур, А.Навоий ва Шаҳрисабз кўчалари кесиммасининг сунъий йўлдош (спутник)дан олинган фотолавҳаси.

Шаҳарнинг магистрал кўчалари ҳисобланган А.Темур, А.Навоий, Шаҳрисабз, Ш.Руставелли ва У.Носир кўчаларида ҳам жуда кўплаб ташкил қилинмаган автомобиллар тўхтаб туриш жойларини кузатишимиз мумкин. Бу ерда кўча бўйлаб автомобиллар тўхтаб туриш жойлари 30 м дан 700 м гача чўзилганлигини кўришимиз мумкин. Албатта бу ҳолат кун давомида сақланиб, масофасининг ортиб бораётганлигини кузатишимиз мумкин.

Бундай муаммолар кўплаб ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда ҳам кузатилмоқда. Баку шаҳрида ҳам транспорт воситаларининг сони ортиши билан автомобилларнинг тўхтаб туриш жойларига бўлган эҳтиёж жиддий муаммога айланмоқда, охириги вақтда, транспорт воситалари пиёдалар йўлакчасида, кўкаламзорлаштирилган майдонларда, болалар майдончаларида ва бошқа жойларга қўйилиб кетилмоқда. Албатта, бу ўз навбатида пиёдаларнинг ҳаракатланишига ва турли хил махсус ишларни бажараётган транспорт воситаларининг ишига ҳалақит бермоқда. Афсуски, бугунгача қилинган тадбирларга қарамасдан автомобилларни тўхтаб туриш жойлари муаммоси ўз ечимини топмасдан, долзарблигича қолмоқда [5].

Тошкент шаҳар ИИББ ЙҚХБга 2000 йилдан шу кунга қадар **рўйхатдан ўтказилган автомобиллар** автомобиллар тўхтаб туриши учун пуллик хизмат кўрсатувчи ташкилотлар мурожат этишган ва улар автомобиллар тўхтаб туриш жойларида ҳаракатни ташкил этиш чизмасини Тошкент шаҳар ИИББ ЙҚХБ билан келишиб тасдиқланган ва улар лойиҳи асосида қурилган.

Шу билан бир қаторда Тошкент шаҳар ИИББ ЙҚХБ томонидан ўтказилган тадбирлар давомида тегишли ҳужжатларсиз ноқонуний фаолият

кўрсатаётган автомобиллар тўхтаб туриш жойлари аниқланган. Ушбу автомобиллар тўхтаб туриш жойларининг фаолиятини тўхтатиш бўйича кўрилатган чораларга қарамасдан, уларни тўлиқ бартараф этиш имкони бўлмапти.[1]

Тошкент шаҳар ИИББ ЙҚХБдан олинган маълумотларга кўра юқорида кайд қилиб ўтилган автомобилларнинг тўхташ жойлари ҳаракат хавфсизлигига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Албатта, буни олдини олиш учун қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқиш зарур.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. ТРАНСПОРТ СОҲАСИДАГИ ХАЛҚАРО МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ”, doi: 10.24412/2181-1385-2022-1-602-605.
2. Азизов Қ.Х. Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари. –Т.: “Фан ва технологиялар” 2009.-243б.
3. Азизов Қ.Х., Дарабов М., Сайфутдинова Р.А. Обеспечение безопасности движения на городских улицах. –Т.:2009.-132с.
4. Азизов Қ.Х. “Влияние уличных стоянок на режим движения транспортных средств” “ Ўзбекистон автомобил-йўл комплексининг долзарб вазифалари” Республика илмий амалий анжумани Тошкент 2008 й206-207с.
5. <http://wagonlong.com/illegal-parcontinue> reading “Незаконная парковка в Баку: борьба за тротуары” 2010г.

## КОРХОНАЛАРДА ПЕРСОНАЛНИ БОШҚАРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ОМИЛЛАРИ ТАХЛИЛИ

*Ахмедов Музаффар Шокиржонович*

*Наманган муҳандислик-технология институти таянч докторанти*

**Аннотация.** Мақолада корхона персоналини бошқаришда муҳим рол ўйнайдиган мотивацион омиллар тахлили ёритилган. Ушбу мақолада келтирилган муносабатлар персонални бошқаришга таъсир қилувчи мотивацион омилларни тушунишга имкон беради.

**Калит сўзлари:** персонал, мотивация, эҳтиёж, мотивация омиллари, ташқи омиллар, ички омиллар.

**Аннотация.** В статье представлен анализ мотивационных факторов, играющих важную роль в управлении персоналом предприятия. Представленная в данной статье взаимосвязь позволяет понять мотивационные факторы, влияющие на управление персоналом.

**Ключевые слова:** персонал, мотивация, потребность, мотивационные факторы, внешние факторы, внутренние факторы.

**Annotation.** The article presents an analysis of motivational factors that play an important role in the management of human resources of the enterprise. The relationship presented in this article allows us to understand the motivational factors that affect human resource management.

**Keywords:** personnel, motivation, need, motivational factors, external factors, internal factors.

3. Ismoilov, D. (2022). CALCULATION OF THE POWER OF THE GRINDER ELECTRIC MOTOR. *Science and Innovation*, 1(7), 629-633.
4. Шавқиев, А., & Исмоилов, Д. (2022). БИНО ВА ИНШООТЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ МАТЕРИАЛЛАР АСОСИДА ҚУРИШДА ГАЗОБЕТОНДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИ. *Science and innovation in the education system*, 1(5), 80-87.
5. Ismoilov, D. (2022). JAG 'LI MAYDALAGICHNING ELEKTRODVIGATELI QUVVATINI HISOBLASH. *Science and innovation*, 1(A7), 629-633.
6. B.A.Tursunov, X.A.Akramov, D.Ismoilov "Producing of the optimal ingredients of multi-component cements and research of the physical-mechanical properties ". Novateur publications Journalnx-AmultidisciplinaryPeerreviewedjournal issn no: 2581 - 4230 volume 8, issue 7, july-2022.

## VALIKLI VA KONUSLI MAYDALAGICHLARNING AFZALLIKLARI

*Ismoilov Dilshod Jo'raqul o'g'li*  
*Jizzax Politexnika instituti assistenti*

*Begaliyev B, Raximov M, Siddiqov R, Mixliyev Sh, Ortiqov H,*  
*811-20 D va PQMT guruhi talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yirik o'lchamdagi tog' jinslarini maydalash va beton uchun ishlatiladigan yirik va mayda to'ldiruvchilarning kerakli bo'lgan fraksiyalarini xosil qilishda ishlatiladigan valikli va konusli maydalagichlarning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risi haqida xulosa qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Valikli maydalagich, konusli maydalagich, elektrodvigatel, eksstentrik val, maydalanadigan material, tog' jinslari, mustahkamlik chegarasi.

**Аннотация.** В данной статье обобщены преимущества и недостатки валковых и конусных дробилок, применяемых при дроблении крупных пород и получении требуемых фракций крупных и мелких заполнителей, используемых для бетона.

**Ключевые слова:** Валовая дробилка, конусная дробилка, электродвигатель, эксцентриковый вал, измельчаемый материал, горные породы, предел прочности.

**Abstract.** This article summarizes the advantages and disadvantages of roller and cone crushers used in the crushing of large-sized rocks and the production of the required fractions of large and small aggregates used for concrete.

**Key words:** Shaft crusher, cone crusher, electric motor, eccentric shaft, material to be crushed, rocks, strength limit.

Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, yangi turdagi yuqori sifatli qurilish materiallariga bo'lgan ichki talabni qondirish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish borasida "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

*(5-bandning o'chinchil xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yil 30-apreldagi PF-6218-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)*

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

**Maydalagich** - maydalash uchun uskunalari, ya'ni qattiq materiallarni kichraytirish uchun ularga mexanik ta'sir ko'rsatadi.

Qoida tariqasida, maydalagichlar materiallarni 5-6 mm gacha hajmini kichraytiruvchi mexanizmlar deb ataladi. Kichikroq o'lchamlarni olish uchun yanchish jarayoni ishlatiladi va tegirmonlarda amalga oshiriladi .



Temir uchlari bo'lgan erkin tushadigan maydalagich .

Qattiq materiallarni yanchishning birinchi mexanizmi Suv bilan boshqariladigan maydalagichlar 15-16 asrlarga to'g'ri keladi. Maydalagich metall bilan mustahkamlangan yog'och chuqurchadan iborat bo'lib, erkin tushadigan temir uchli maydalash bo'lib xizmat qilgan.

Tasniflash bug' mashinasining ixtiro qilinishi ishqalanish, bo'linish va boshqalar tamoyillari asosida ishlagan. Maydalangan materialning o'lchamiga ko'ra maydalagichlar katta, o'rta va mayda maydalagichlarga bo'linadi.

Maydalagich turi	Dastlabki materialning o'lchami, mm	Tayyor materialning o'lchami, mm
Katta maydalash	1500	100 - 350
O'rtacha maydalash	100 - 250	40 - 50
Mayda maydalash	40 - 50	5

Ishlash printsipi maqsad va texnologik vazifalarga qarab, maydalashning turli tamoyillarini amalga oshiradigan tuzilmalar qo'llaniladi:

- maydalash,
- yirtib tashlash,
- kesish yoki bo'shatish
- zarba (bolg'a, kaltaklar, maydalagichlar),
- perkussiya harakati ("erkin zarba", "toshga tosh" zarbasi).

Sanoatda qo'llaniladigan maydalagichlarning ko'pchiligi ikkita po'latdan birlashtiruvchi yuzalar orasidagi ruda bo'laklarini maydalash printsipi asosida ishlaydi. Konusli yirik maydalagichlar qabul qilish teshigining eni bilan harakterlanadi. Maydalash mumkin bo'lgan toshlarning o'lchami 400□1200 mm, maydalangan tosh o'lchami esa 75□300 mm ni tashkil qiladi. Ish unumdorligi esa 150□2600 M3/soat.

Sanoatda quyidagi o'lchamdagi konusli yirik maydalagichlar ishlab chiqariladi. KYM: 500,900,1200,1500 mm (bu o'lcham qabul qilish o'lchami)

Konusli o'rta va mayin maydalovchi maydalagichlar qo'zgaluvchi konusning asosi diametri bilan xarakterlanadi va sanoatda quyidagi o'lchamdagi maydalagichlar ishlab chiqariladi. D=600,900 mm (KO'M)

D=1200,1750,2200 mm (KO'M va KMM)

Konusli yirik maydalagichlarda maydalangan materialning tushish tirqishi o'lchami 10 - 90 mm bo'lib, 75□300 mm gacha o'lchamdagi toshlarni maydalash mumkin. Ish unumdorligi esa 19□580 M3/soat.

Konusli mayin maydalovchi maydalagichlarda maydalangan materialning tushirish tirqishi o'lchami 3□20 mm, bo'lib ish unumdorligi 24□180 M3/soat gacha. Maydalanishi mumkin bo'lgan tosh o'lchami 40□110 mm.

Konusli maydalagichlarda material ichki va tashqi konuslar orasida ichki konusning eksentrikli valda aylanishi natijasida maydalanadi.

#### Адабиётлар

1. Dilshod, I. (2022). PRODUCING OF THE OPTIMAL INGREDIENTS OF MULTI-COMPONENT CEMENTS AND RESEARCH OF THE PHYSICAL-MECHANICAL PROPERTIES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(11), 90-92.
2. Ismoilov, D. (2022). CALCULATION OF THE POWER OF THE GRINDER ELECTRIC MOTOR. *Science and Innovation*, 1(7), 629-633.
3. Шавқиев, А., & Исмоилов, Д. (2022). БИНО ВА ИНШООТЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ МАТЕРИАЛЛАР АСОСИДА ҚУРИШДА ГАЗОБЕТОНДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИ. *Science and innovation in the education system*, 1(5), 80-87.
4. Ismoilov, D. (2022). JAG 'LI MAYDALAGICHNING ELEKTRODVIGATELI QUVVATINI HISOBLASH. *Science and innovation*, 1(A7), 629-633.
5. В.А.Турсунов, Х.А.Акрамов, Д.Исмоилов "Producing of the optimal ingredients of multi-component cements and research of the physical-mechanical properties ". Novateur publications Journalx-AmultidisciplinaryPeerreviewedjournal issn no: 2581 - 4230 volume 8, issue 7, july-2022.
6. Ismoilov Dilshod Jo'raqul o'g'li, Davronov D, Smaylov Y, Sulonov Sh, Rayimqulov Y, Jumanov B. (2022). NOTO'G'RI VA TO'G'RI GEOMETRIK SHAKLGA EGA BO'LGAN QURILISH MATERIALLARINING HAJMI VA O'RTACHA ZICHLIGINI ANIQLASH. *ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE*, 1(19), 54-57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7414080>

**MUHANDISLIK GRAFIKASI VA CHIZMA GEOMETRIYA  
FANLARIDAGI ONA TILI QOIDALARIGA XILOF, NOTO‘G‘RI VA  
NOANIQ BAYON QILINAYOTGAN TERMINLAR VA ULARNING  
OLDINI OLISH**

*Xamidova Gulmira Xamidovna*  
*Navoiy davlat pedagogika instituti*  
*“San’atshunoslik” fakulteti*

*“ Tasviriy san’at va muxandislik grafikasi ” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muhandislik grafikasi va chizma geometriya terminlarini ona tili qoidalariga xilof, noto‘g‘ri va noaniq bayon qilinishi va ularning oldini olish, darsliklardagi xato va kamchiliklar, talaba va o‘qituvchilarni terminlarni qo‘llash qonun - qoidalarga amal qilinishi haqidagi ma’limotlar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Terminologiya, termin, murakkab komponentli termin, proyeksiya, etimologiya, detal, konstruksiya.

**Аннотация.** В данной статье термины инженерной графики и геометрии чертежа объясняются по правилам родного языка, неправильным примечаниям и нечетким формулировкам и документам, ошибкам и повреждениям в учебниках, а также правилам употребления терминов учащимися и преподавателями.

**Ключевые слова:** Терминология, термин, сложносоставной термин, проекция, этимология, деталь, конструкция.

**Abstract.** In this article, the terms of engineering graphics and drawing geometry are explained contrary to the rules of the native language, wrongly and ambiguously, and their prevention, errors and shortcomings in textbooks, information about the application of the terms to students and teachers, and the laws and regulations. explained.

**Keywords:** Terminology, term, complex component term, projection, etymology, detail, construction.

**Kirish.** Yosh avlodni hozirgi zamon talablari darajasida o‘qitish va tarbiyalash har bir o‘qituvchining muqqadas vazifasidir. Bu vazifani amalga oshirish, u yoki bu fan bo‘yicha darslarni va sinfdan tashqari ishlarni chuqur ilmiy va metodik mahorat bilan tashkil etishni taqazo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoniga muvofiq ta’limning barcha bosqichlarida davlat tili o‘qitilishi hamda o‘zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish, o‘zbek tili o‘quv leksikografiya tarmog‘ini rivojlantirish, zamonaviy, yangi avlod o‘quv lug‘atlarini tuzish hamda ularning elektron shakllarini va sohalar bo‘yicha atamalar lug‘atini yaratish kabi vazifalar qo‘yildi.

Chizmachilik va chizma geometriya kursini o‘rganishda talabalar ko‘pgina fanga oid terminlarga duch keladi. Ba’zan talabalar bu terminlarning ma’no mazmuniga ahamiyat bermasdan “quruq” yodlab oladi. O‘qituvchining vazifasi bu

terminlarning adabiy talaffuzi, yozilishi, ayniqsa, ularning lugʻaviy maʼnosi, etimologiyasini ochib berishdan iborat. Chunki, bu talabalarda chizmachilik tushunchalarini shakllantirishda muhim taʼlimiy ahamiyatga egadir.

Hozirgi davrda maktablarimizda chizmachilik fanini oʻqitish va oʻrganish talab darajasida emas. Bu fan soatlari kam va ikki yilda chizmachilik fani terminlarini hatto yodida ham saqlab qolishmaydi. Chizmachilik faniga chet tillardan (asosan rus tili orqali) oʻzbek tiliga kirib kelgan terminlarni lugʻaviy maʼnosini oʻrganish esa maktab oʻquvchilariga murakkablik qiladi. Oliy taʼlimga kelgan har bir talabaga birinchi boʻlib chizmachilik terminlari haqida maʼlumot berish va oʻrgatish zarurdir.

Maktab chizmachilik kursida qoʻllaniladigan terminlardan, faqatgina, *“proektsiya”*–lotincha, *“oldinga tashlamoq”*, *“aksionometriya”* – grekcha *“oʻqlar boʻylab oʻlchash”*, *“frontal”*–frantsuzcha *“yuzma–yuz”*, *“profil”*–frantsuzcha soʻz boʻlib *“yon tomondan”* maʼnosini bildiradi degan izoh bilan cheklanilgan.

Maktab oʻqituvchilari esa har yili toifa olish va bilimlarini sinovdan oʻtkazish maqsadida attestatsiyadan oʻtkaziladi. Bu sinovda albatta chizmachilik terminlarini bilish va maʼno mazmunini va tasvirini koʻra bilish katta ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sabablaridan biri chizmachilik terminlarining etimologiyasiga doir adabiyotlarning kamligidir. Xatto, chizmachilikdan yangi standart va fan dasturlari asosida yozilgan darsliklarda ham bunga kam eʼtibor berilganligidir.

**Asosiy qism.** Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilishi barcha sohalarga va shu jumladan aniq fanlar oldiga ham muhim vazifalarni yukladi. Bular jumlasiga fanlar boʻyicha oʻzbek tili terminlarining bugungi ahvolini oʻrganish, uning terminologik tizimini ilmiy asosda tadqiq qilish, notoʻgʻri qoʻllanilayotgan oʻrinlarni belgilash bilan ularni tartibga solish, chegaralash va terminlarning tushuncha mohiyatini tahlil qilish hamda undan taʼlim jarayonida toʻgʻri foydalanish kabi masalalar chizmachilik va chizma geometriya fanlariga ham bevosita taalluqlidir.

Biz chizmachilik fanining terminologik tizimini oʻrganishda, bir qator kamchiliklarning borligini koʻramiz:

- 1) Maʼlum bir tushunchaning xilma–xil terminlar bilan ifodalanilayotganligi;
- 2) Koʻp maʼnoli terminlarning qoʻllanilayotganligi;
- 3) Oʻzbek tili qoidalariga mos kelmaydigan tarzda yasalgan terminlarning ishlatilayotganligi;
- 4) Termin oʻzlashtirish masalasiga yetarli eʼtibor berilmayotganligi;
- 5) Terminologik lugʻatlarning deyarli yoʻqligi va chop etilgan yagona lugʻatning talab darajasida emasligi, ularning ilmiy jihatdan oʻrganilmaganligi har-xil noaniqlik, xatoliklar shu soha terminologiyasi masalalarini oʻrganishga, ularni tartibga solish va takomillashtirishni taqazo qiladi.

Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini yuqorida fikr qilingan muammolarining hal etilishi bilim asoslarini chuqur egallashga, oʻqish–oʻqitish ishlari sifatini koʻtarishga sezilarli taʼsir etadi deb oʻylaymiz.

Shu sababli ham, chizmachilik terminologiyasini o'rganish uni tartibga solish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini hisobga olish kerak bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, ayrim detallarning konstruktiv qismlarini va detal elementlarini ifodalovchi terminlar, chizma geometriya belgi va simvolikalari haqida ham qisqacha fikr yuritilishi kerak.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'zbek tilidagi chizmachilik terminlarining shakllanishida asosan rus tilida yaratilgan chizmachilik fani darsliklari va o'quv adabiyotlarini tarjima qilish bilan bog'liq. Bunday tarjimalar chizmachilik fanining talablarini bir qator qoniqtirib kelayotgan bo'lsada, o'zbek tilining hozirgi talablariga to'la javob bera olmaydi. Bu ayniqsa, murakkab komponentli (ko'p komponentli) terminlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, terminning murakkab bo'lishi o'sha tushunchani ifoda qilishda ancha noqulaydir. Shunga qaramasdan chizmachilikda ehtiyoj tufayli murakkab komponentli terminlardan foydalanib kelinmoqda. Murakkab komponentli terminlar deganda uch va undan ortiq komponentga ega bo'lgan atamalar tushiniladi. Quyida ularning faqat uch komponentli turi haqida fikr yuritiladi. Har qanday terminlarda ko'ringanidek, chizmachilik terminlarida ham hokim komponent sifatida so'z shakli yoki birikma qatnashishi mumkin. Ular tarkibidagi so'z shakllari turli grammatik munosabatlarga bo'ladi:

a) bir so'z shaklli hokim komponent: gorizontaal proyeksiyalovchi tekislik, ko'rish burchagining bissektrissasi, ikki pallali giperboloid, nuqtalar to'plamining modeli, proektsiyalar tekisligini almashtirish, nurlar asosi perspektivasi, geometrik obrazning vaziyati, uch yoqli burchak, qirqimda materialni tasvirlash, ayqash to'g'ri chiziq,

b) so'z birikmasi hokim komponent: kesishuvchi to'g'ri chiziqlar, yopiq egri chiziq, kartinaning bosh nuqtasi, nuqtaning markaziy proektsiyasi, fazoviy kordinata o'qlari, chiziqning parallel proektsiyasi, modelning profil proektsiyasi, proektsiyalovchi nurlar to'plami, profil proektsiyalar tekisligi, ingichka tutash chiziq.

Ona tili qoidalariga xilof, noto'g'ri va noaniq bayon qilinayotgan terminlar va ularning oldini olish.

Hozirgi davr hayotimiz mazmunining o'zgarishi, qayta qurish jarayoni, izchillik bilan o'sib borayotgan ilmiy texnika rivojlanishi keng miqyosda yangi tushuncha va iboralarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Inson mehnat faoliyatining o'sishi, u bilan bog'liq bo'lgan bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ilmiy-texnikaning taraqqiy qilishi chizmachilik va chizma geometriya terminlarining maydonga kelishi, shu soha terminologiyasini yaratdi.

Hozirgi adabiyotlarda va lug'atlarda ishlatilib kelinayotgan ayrim terminlar, masalan: *konusaviy sirt*, *sharikaviy podshipnik*, va boshqalar ona tili qoidalariga xilof tarzda yasalgandir.

Ma'lumki, konus, vint, sharik – o'zak, "viy" esa affiksdir. Bu yerda "a" hech qanday vazifani bajarmaydi. Shuning uchun ham bu terminlarni quyidagicha konus

sirt, vint/li/ sirt, sharikli podshipnik deb qabul qilinishi va ishlatilishini lozim deb bilamiz.

“Chizmachilikdan terminalogik lug‘at–spravochnik” kitobida “strelkaga” “teng yonli uchburchakli shaklidagi uchlik” deb noaniq izoh berilgan. Birinchidan u teng tomonli bo‘lishi ham mumkin, ikkinchidan, uchburchak shakli “uchlik” deyilishi mutlaqo noto‘g‘ri. Chunki chizishda hech qachon teng yonli uchburchak shaklida chizilmaydi va chizilish qoidasi ham boshqa.

Umuman “strelka” o‘zbek adabiy tilida “ko‘rsatkich” deb atalishi lozim.

Detallarning konstruktiv qismlarini ifodolovchi terminlar va ulardan umumli foydalanish.

Ishlab chiqarish sohasidagi har bir detal yoki uning biron qismi, avval aytganimizdek ma’lum vazifani bajaradi. Shuning uchun ham detal konstruktsiyasida uchraydigan elementlar yoki detalning o‘zi texnik vazifasiga mos ravishda ma’lum nomlar bilan ataladi.

Detailning yozma yoki og‘zaki obrazini yaratishda uning texnik nomini va elementlarining nomlarini bilish kerak. Bu tushuncha hosil qilishda uni anglashni osonlashtiradi, uni texnika tiliga (terminologiyasiga) muvofiqlashtirishda qulaylik beradi.

Texnikada ishlatilayotgan har qanday detalning nomlanishi, aksariyat hollarda uning vazifasiga, xususiyatiga bog‘liq holda berilgan bo‘ladi. Masalan “Tanchiq” (opora), “Tana” (korpus), “Val”, “Sirg‘aluvchi” (Polzun) va boshqalar. Shulardan “Tana” (korpus) aniq bir vazifani bajaradigan ko‘p sonli detallarni o‘zida birlashtiradigan mashinaning barcha mexanizmlarini ko‘taradigan hamda yig‘ma birlikning asosi, negizi hisoblanadi va u vazifasiga ko‘ra unga mos ravishda shu termin bilan nomlangan.

Detallarning konstruktiv tuzilishi, qiyofasi yig‘ma birlikning murakkabligiga, mexanizmning turiga, birikadigan detallarning tarkibiy qismlariga ko‘ra, u ham ma’lum murakkablikda bo‘ladi.

Detailning tarkibiy qismlari va unga oid terminlarning o‘ziga xos hususiyatlarini e’tiborga olish.

Har qanday buyum, ayniqsa detal aniq bir vazifani, funksiyani bajaradi. Detailni nomlashda ham uni vazifasiga ko‘ra yoki uning biror narsaga nisbatan o‘xshashligiga ko‘ra (metaforalashib) nom beriladi: masalan “tirsakli val”, “korpus”, “dasta”, “tirgak”, “qopqoq”, “quloq” va boshqalar.

Har bir detalning umumiy konstruktiv tuzilishi ham uning biron mexanizmdagi ish bajarish funktsiyasiga ko‘ra aniqlanadi va ishlab chiqariladi. Ularning konstruktsiyasi alohida qismlarga ega va bu konstruktiv qismlar ma’lum unsur (element)lardan tashkil topgan bo‘lib, ularning birikuvidan detal butunligi hosil bo‘ladi. Bu elementlarning shakli va texnik detalning umumiy formasiga bog‘liq.

Har qanday detalning shaklini tahlil qilishda ikki xil yondashish mumkin: birinchidan, butun detal shaklini hosil qilayotgan oddiy abstraktiv tushuncha hosil

qilmaydigan geometrik sirtlarga ajratib o'rganish bo'lsa, ikkinchidan, yaxlit qismlarga bo'lib o'rganishdir.

Detalning umumiy tuzilishi uning vazifasiga yoki tashqi kiyofasiga ko'ra berilgan nomi monolit tarzda aniqlab bera olmaydi. Masalan, "qopqoq" - bu detal nimanidir yopishga mo'ljallangan. Uning umumiy tuzilishi, shakli turli xil bo'lishi mumkin: "Korpus" - bu biror yig'ma birlikning asosi (bosh), ya'ni tanasi hisoblanib, unga barcha boshqa detallar birlashtiriladi. Birok bu nom bilan juda ko'plab turdagi detallar mavjud bo'lib, ularning tuzilishi ham har xil bo'ladi. Bu tuzilish ularning ishlatilish joyidagi ularning xarakteri va xususiyatiga bog'liq.

Detallarning tarkibi ham uning xarakteri va xususiyatiga ko'ra "asos", "tirgak", "chiqiq", "mustahkamlik qovurg'asi", "paz" kabi konstruktiv qismlardan iborat bo'lib, har bir konstruktiv qism geometrik sirtlardan tashkil topgan. Bu sirtlar parallelepiped, prizma, piramida, silindr, konus, shar va boshqa geometrik butunliklar hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, rus tilida ko'pincha detallarda bir xil nomda ishlatiladigan "stoyka" o'zbekcha terminlarda quyidagicha qo'llanilgani ma'qul: tayanchiq (opora) turida "ustun" sirg'aluvchida "tirgak", tayanchiqdagi "bo'rtiq" (vestup) sirg'aluvchida "chiqiq", tayanchiqdagi "ariqcha" sirg'aluvchida "paz" va boshqalar.

**Xulosa.** Xullas, har bir fanda o'z terminlari tushunchalari bo'lgani kabi muhandislik grafikasi va chizma geometriya fanida ham o'z terminologiyasi mavjud bo'lib, bu terminlarni o'rganish etimologiyasini bilish har bir chizmachilik o'qituvchisini vazifasi bo'ladi. Terminlarni bilgan o'qituvchi darsni tushuntirishda va o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazishda qiyinchilikka duch kelmaydi.

#### Adabiyotlar

1. Ф.П.Филин. О лексико–семантических группах слов. Языковедчески исследования в честь на академика Стефан Младова.София.1957. ст.525
2. А.Умронхўжаев. Мактабда чизмачилик ўқитиш. Тошкент, "Ўқитувчи", 1986 йил, 4–бет.
3. Amonova Zarifa Usmonovna, Xamidova Gulmera Xamidovna Eurasian Scientific Herald, 7, 275–278. The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts <http://www.geniusjournals.org>
4. Khamidovna, K. G. (2021). Use of computer technologies in the study of architectural decoration in fine arts classes. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 787-798.
5. KG Khamidovna. Aesthetic importance of the use of information and communication technologies in fine and applied arts lessons - Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2021
6. <https://scholar.google.ru/scholar?oi=bibs&cluster=9564468802692588047&btnI=1&hl=ru>

## COMPARISON BETWEEN JAW CRUSHER AND CONE CRUSHER

*Ismoilov Dilshod Jo'raqul o'g'li*  
*Jizzax Politexnika instituti assistenti*

*Abdiqulov Y, Abduraxmonov N, Djorayeva H, Doniyorov T, Ibodullaev M*  
*812-20- group students*

**Annotation.** In this article, grinding methods and their application. General information about Jaw and Cone grinder and their working principle and mutual differences between these two grinders

**Key words:** Grinding. Application, Jaw crusher, Cone crusher, Scheme of working principle, Proportion.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maydalash usullari va qo'llash. Jag'li va konusli maydalagich va ularning ishlash printsipi va bu ikki maydalagich o'rtasidagi o'zaro farqlar haqida umumiy ma'lumot.

**Kalit so'zlar:** Maydalash. qo'llanilishi, Jag'li maydalagich, Konusli maydalagich, Ishlash prinsipi sxemasi mutanosiblik.

**Аннотация.** В этой статье методы шлифования и их применение. Общие сведения о щековых и конусных шлифовальных машинах, принцип их работы и взаимные отличия этих двух шлифовальных машин.

**Ключевые слова:** Измельчение Применение, Щековая дробилка, Конусная дробилка, Принцип работы, Пропорции.

The chemical industry is in the forefront in terms of the number of types of hard materials to be ground, the degree of grinding and the types of grinders. The materials to be ground are hard, soft, brittle, viscous, sticky, thermally unstable, neutral, chemically active, flammable and explosive, for those around harmful can be harmless.

Grinding means breaking pieces of solid material to the required size, i.e. to the size required to use the material in industry. The grinding process of materials is divided into grinding and powdering stages. Depending on the fragility of the initial piece, the grinding process is divided into large 350-100mm, medium 100-30mm, fine 30-8mm and fine 0.5mm. There are different levels of coarse 0.5 mm, fine 0.1 mm and ultra fine 0.01 mm in grinding. Depending on the task and mode of operation, each grinding unit has four types of impact of the abrasive force on the pieces of material to be crushed. can be used: crushing, hitting, bending, rubbing.

**Jaw crusher.** Jaw crushers work in the following way. The material to be ground is placed in a cone-shaped crushing chamber with two jaws. Since the camera is cone-shaped, the pieces of material are placed in the chamber according to their size: larger ones are on top, smaller ones are on the bottom. Jaws when moving, the material is crushed. When the movable jaw moves away from the fixed jaw, the pieces of material fall down under the influence of gravity, and then the cycle repeats. Grinding level  $i=3-4$ . Productivity ranges from 1 to 500t/hour and more. Crushers are distinguished by inlet and outlet holes. The inlet hole is

called humza or jaw, and the outlet hole is called slot. When the size of the jaw crusher is 100x150 mm, the width of the slot is 25 mm or more, when the size of the jaw is 1500x2100 mm, the width of the slot is 300 mm. About 0.85 is accepted.

According to kinematic characteristics, jaw crushers can be divided into the following two groups:

- Movable jaws are simple oscillating crushers (in which movement is transmitted from the crankcase to the movable jaw through a certain kinematic chain, the movement trajectory of the points of the movable jaw consists of a part of a circular arc.

- Movable jaws are complex mobile crushers (in which the trajectory of the curves and points of the movable jaw is a closed curve, often an ellipse. Shown is a simple mobile crusher with a movable jaw designed for large crushing. "diamond jaw" is clamped. Two pairs of bearings for the axle are clamped on the longitudinal walls of the frame in parallel. A movable jaw is installed on the axle. An eccentric shaft with two flywheels is installed on the second bearing. The side case the plates are mounted on the crusher jaw and the walls of the crusher, they protect the wall from being eaten. The movable jaw 7 is fixed to the axis 4, and the jaw of the crusher is formed with the fixed jaw. It is made of steel. The inner side of the jaw is ribbed for lightness, and sometimes it is boxed. Grinding plates are cast on the surface of the jaw, they must be in close contact with the jaw, so lead gaskets are used. installed. Grinding plates are quickly eaten are replaced periodically, they are made of chromium and manganese steel.

Bleached cast iron plates can be used for crushing soft rocks. The working surface of the plates is grooved. The grooves are in the form of teeth and should fit into one jaw socket. The ratio of tooth height to pitch is 1:4 to 1 Acceptable up to :2.

Plates for grinding hard rocks are smoothed. When the teeth are eaten by more than 30% of their height, the mobile and fixed jaws are replaced with new ones. The teeth are covered with stalinite and restored. are installed or mounted on thrust bearings. Because they are under the influence of a large force, they are made of special steel: chrome-nickel, chrome-molybdenum and vanadium steel. Depending on the size of the grinders, the eccentricity of the shaft is from 10 to 60 mm. The bearings should not heat up more than 30-40C. The connecting rod and two flywheels are freely transferred on the eccentric shaft, and one of the flywheels is a transmission pulley with a belt. at the bottom there are grooves 9, into which support plates 5 are inserted. gan is supported by a special pillar 10. When the eccentric shaft 4 rotates, the connecting rod moves back and forth. When the connecting rod moves up, the support plates are straightened and push the lower end of the movable jaw towards the fixed jaw, as a result, the material is crushed between the jaws.

When the connecting rod moves down, there is a free movement, which causes the force to fall unevenly on the moving driver. Therefore, the power of the free movement of the electric motor is collected in the flywheel and it is used in

the working movement. The tensioner 13, which connects the movable jaw to the rear wall of the frame, always pulls the movable jaw to the rear wall with the help of a cylindrical spring 12, as a result, the support plates do not come out of the slot when the connecting rod is lowered.

In jaw crushers, movable and fixed jaws, support plates, nests of support plates, and side armor plates are eaten faster. The movement is transmitted from the electric drive to the flywheel pulley on the eccentric shaft through a V-belt drive. It is connected with the main electric drive pulley. In the jaw crushers, the drive plate is directly installed on the eccentric part of the shaft, so it moves forward and upward at the same time, they are also suitable for medium and fine grinding performance is used in small points. Recently, many companies have been producing complex vibration crushers, whose dimensions are larger than the dimensions of ordinary vibration crushers. This was achieved after the creation of large vibration bearings that can withstand large dynamic stresses.

**Cone grinder.** Enterprises producing inorganic substances and non-metallic materials use conical crushers to grind materials with low natural moisture. In them, the material is crushed under the influence of continuous and gradually increasing compression force in the annular space between two truncated cones. and is placed between the internal grinding cone. When the grinding surfaces are close, the ground material falls down.

Conical grinders are characterized by the following main characteristics:

1. Installation of a vertical shaft or axis - with the upper support of the driven shaft, with the lower support of the driven shaft.
2. According to the type of movement of the movable cone - a cone with rotational vibration movement, eccentric with respect to the inner surface of a fixed cone, and a cone with progressive movement in the horizontal plane.
3. According to the type of method - one-sided and two-sided tape or reduction method.
4. Without shock absorbers and with shock absorbers according to the availability and structure of shock absorbers.
5. According to the technological task:

YMK-with a large grinding cone, the width of the outlet opening is 50-200mm, the size of the pieces is 300-1500mm, the grinding level is 3-4,  $Q=150-2600\text{m}^3/\text{h}$ .

UMK-medium grinding cone, the size of the pieces when the width of the exit hole is 15-50mm, the grinding level is 4-5,  $Q=190-580\text{m}^3/\text{hour}$ .

MMK-fine grinding cone, when the width of the exit hole is 3-15mm, the size of the pieces is 30-75mm, grinding level is 4-6,  $Q=180\text{m}^3/\text{h}$ .

By structure, grinders are divided into the following types:

- installation shaft grinder,
- eccentric grinders,
- cantilever shaft grinders (these are divided into normal cone, medium cone and short cone types).

In cone grinders, the material is crushed in a grinding chamber that creates two conical surfaces. The outer cone surface is fixed, the inner one is movable. For coarse grinding, the shaft is hinged, the work efficiency is 5000t/h, the power of the driver is 420kW (570 horsepower) grinders are used. For medium and fine grinding, smaller and more compact cantilever shaft grinders are used. These grinders have a grinding level of 20 or more.

The grinding details of such crushers consist of an external fixed cone 1 and a movable cone 2. The movable cone is connected to the oscillating shaft 3. The shaft is a cup connected by a cone transmission consisting of gears 5 and 6. 4 is installed eccentrically. When the gears rotate, the movable cone crusher with the help of an electric motor oscillates around the vertical axis, sometimes it approaches the fixed cone, and sometimes it moves away from it. crumbles down.

In cone crushers, as in jaw crushers, raw material is crushed between its parts that come close to each other. However, in a cone crusher, the grinding process continues without interruption. Therefore, the productivity of cone crushers is much higher.

The jaw crusher is mainly used for crushing hard stone materials, i.e. gravel and cobblestones, the cone crusher is used for grinding inorganic substances and non-ferrous materials. It is divided into certain types, the level of grinding in them is different. YMK grinding level 3-4, UMK grinding level 4-5, MMK grinding level 4-6. The main parts of a simple moving jaw crusher are: fixed jaw, eccentric shaft, connecting rod, axle, support plates, flywheel, movable jaw, grooves, swashplates, spring, tensioners. The main parts of the fixed shaft cone crusher are: integral base, outer cone, armor plates, crossbar, crossbar head, main shaft, inner cone, bushing, gear wheel, gear, guide. It consists of axle, supporting windows, assembly, support, bushings.

### References

1. Tursunov, B. A., Akramov, X. A., & Ismoilov, D. (2022). Producing of the optimal ingredients of multi-component cements and research of the physical-mechanical properties. *Open Access Repository*, 8(7), 49-53.
2. Dilshod, I. (2022). PRODUCING OF THE OPTIMAL INGREDIENTS OF MULTI-COMPONENT CEMENTS AND RESEARCH OF THE PHYSICAL-MECHANICAL PROPERTIES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(11), 90-92.
3. Ismoilov, D. (2022). CALCULATION OF THE POWER OF THE GRINDER ELECTRIC MOTOR. *Science and Innovation*, 1(7), 629-633.
4. Шавқиев, А., & Исмоилов, Д. (2022). БИНО ВА ИНШОТЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ МАТЕРИАЛЛАР АСОСИДА ҚУРИШДА ГАЗОБЕТОНДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИГИ. *Science and innovation in the education system*, 1(5), 80-87.

5. Ismoilov, D. (2022). JAG ‘LI MAYDALAGICHNING ELEKTRODVIGATELI QUVVATINI HISOBLASH. *Science and innovation*, 1(A7), 629-633.
6. B.A.Tursunov, X.A.Akramov, D.Ismoilov “Producing of the optimal ingredients of multi- component cements and research of the physical-mechanical properties ”. Novateur publications Journalnx-AmultidisciplinaryPeerreviewedjournal issn no: 2581 - 4230 volume 8, issue 7, july-2022.

**YIRIK VA MAYDA TO'LDIRUVCHILARNI MAYDALASHDA  
ISHLATILADIGAN G'ALVIRLARNING TURLARI**

*Ismoilov Dilshod Jo'raqul o'g'li*  
*Jizzax Politexnika instituti assistenti*

*Ibragimov S, Inomqulova A, Iskandarov E, Jonimova Z, Jozilov Sh, Mamatov Sh*

*812-20 guruh talabalari*

**Annonatsiya.** Ushbu maqolada saralash va botitish uskunalari ishlash prinsipi haqida ma'lumot. G'alvirlar tasnifi, turli xil g'alvirlar haqida ma'lumot.

**Kalit so'zlar:** Saralash, boyitish, g'alvirlar, panjarali g'alvirlar, silkinadigan yassi g'alvirlar, tebranma g'alvirlar, elektromagnitli tebranma g'alvirlar, barabanli g'alvirlar.

**Annotation.** In this article, information about the principle of operation of sorting and dipping equipment.

**Key words:** Sorting, enrichment, sieves, grating sieves, vibrating flat sieves, vibrating sieves, electromagnetic vibrating sieves, drum sieves.

**Аннотация.** В данной статье информация о принципе работы сортировочно-погружного оборудования.

**Ключевые слова:** Сортировка, обогащение, сита, грохоты, вибросита плоские, вибросита, электромагнитные вибросита, барабанные решета.

Maydalanadigan qattiq materiallar turlarining ko'pligi, maydalash darajasi va maydalagichlarning turlari bo'yicha kimyo sanoati oldingi qatorlarda turadi. Maydalanadigan materiallar qattiq, yumshoq, mo'rt, qovushqoq, yopishqoq, termik beqaror, neytral, kimyoviy aktiv, yonuvchi va portlovchi, atrofda uchun zararli zararsiz bo'lishi mumkin.

Materialni saralash va boyitish, ya'ni uni keraksiz, begona jinlardan, zararli aralashmalardan tozalash tegirmondan chiqadigan tayyor mahsulotning sifatiga xamda baxosiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Saralash jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) materialni maydalashdan oldin mazkur mashinada maydalash uchun yo'l qo'yiladigan o'lchamdan yirikroq parchalarni ajratib tashlash. Tayyor mahsulot donalari (zarralari) dan maydaroq dona yoki zarralarni ajratib olish; 2) material maydalangan va tuyilgandan keyin materialni yirik-maydaligiga qarab to'dalarga ajratish, keyinchalik ulardan muayyan nisbatda massa yokishixta tashkil etish, mashin ayopiq siklda ishlatilganda yirik donalarni ajratib qo'yish (keyinchalik ular qaytadan maydalanadi) materialni unga aralashgan metal buyumlar va qipiqdan tozalash, materialni boyitish.

Materialni boyitish deganda, yuqorida aytib o'tilgandek, uni keraksiz, begona va zararli aralashmalardan tozalash jarayoni tushuniladi. Boyitish natijasida tayyor mahsulotning sifati yahshilanadi va xokazo. Saralash va boyitish bilan bog'liq ishlar mashinalar, suv, xavo, magnitlar yordamida, flotatsion va boshqa usullarda amalga oshiriladi. Mexanizmlar yordamida saralash eng ko'p tarqalgan usul xisoblanadi. Bu usulda material serteshik yassi yoki egri yuzato'rlarda saralanadi,

bu jarayon elash deb, bu vaqtda foydalanadigan mashina va qurilmalar esa g'alvir mashina (elak) deb yuritiladi. G'alvirda elanadigan sochilib turadigan aralashmalar dastlabki material deb yuritiladi.

G'alvirlarning turlari:

1) xarakatchanligi jihatidan-qimirlamay turadigan va xarakatlanadigan g'alvirlar.

2) elaydigan yuzasining shakli jihatdan –yassi, barabanli, rolikli, juvali g'alvirlar.

3) elaydigan yassi yuzasining turish vaziyati va qanday harakatlanishi jihatdan –yopiq joylashgan va ilgari lama-qaytma xarakat qiladigan g'alvirlar, assimetrik joylashgan va o'z tekisligida xarakatlanadigan g'alvirlar prujinalanadigan qiya ustunliklarda yotiq vaziyatda o'rnatilgan g'alvirlar va hokazo.

4) tebratuvchi mexanizmning tuzilishi jihatidan-ekstentrikli, inversion mexanizmli va elektrikli, inversion mexanizmli va elektr magnitli g'alvirlar.

5) elaydigan yuzasining xili jihatidan-kolosnikli, to'rli yoki panjarali g'alvirlar.

6) elaydigan materialning yirik-maydaligi jihatidan bo'laklarning kattaligi 200-500 mm keladigan yirik materialni elashga mo'ljallangan g'alvirlar.

**Panjarali g'alvirlar.** Qimirlamaydigan qilib o'rnatilgan va silkinadigan kolosnikli g'alvirlar mavjud. Qimirlamaydigan g'alvirlar materialni dastlabki maydalagich oldiga, bunkerlar va yashikdan iborat ta'minlagichlari bo'lgan aralash tirgichlar tepasiga o'rnatiladi va hokazo. Bu g'alvir xar hil kesimli kolosniklardan tashkil topgan. G'alvirning tuzilishi soda, u mustahkam, lekin ish unumdorligi-Q katta emas, shu bilan birga, g'alvir 30-50 qiyalantirilganda elanayotgan materialni qo'lda surishga to'g'ri keladi. Xarakatlanadigan g'alvirlar, materialni elash bilan birga, ayni paytda ta'minlagich vazifasini xam bajaradi. Yirikligi 40mm keladigan bo'laklar 14-16 qiyalatib joylashtirilgan kolosnikli panjara tirqishlaridan tushib ketadi. G'alvirning kengligi (eni) 1,5-2m, a=3-3,5m, Q=150t/soat, quvvat sarfi  $-0,037-0,052 \text{ kvt} = t/\text{soat}$ .

**Silkinadigan yassi g'alvirlar.** Bunday g'alvirlar og'irlik kuchi bilan inersiya va ishqalanish kuchlarining o'zaro ta'sir ko'rsatish prinsipida ishlaydi. Materialni saralanishi uchun g'alvirlar yuzida (unga) nisbatan surilishi kerak. Ilgarilanma-qaytma xarakat qilib, ya'ni tebranib turadigan, yotiq o'rnatilgan g'alvirlar material zarur yo'nalishda surilishi uchun maxsus assimetrik mexanizmlar uni oldinga va orqaga xar hil tezlikda silkitib-tebratib turmog'I lozim. Agar g'alvir nekstentrikli oddiy simmetrik mexanizm xarakatlaniradigan bo'lsa, bunday xollarda g'alvir qiya ustunchalarga o'rnatilgan bo'lishi kerak.

**Tebranma g'alvirlar.** Bunday g'alvirlar quruq va suyuq materiallarni saralashga mo'ljallangan. Ularning tebranishga qulochi (amplitudasi) 0,55:25 mm keladigan, minutiga 800-3000 marta tebranadigan dinamik omillar to'liq yoki qisman sababchidir. G'alvir tebranayotganda material qatlamlanadi, ya'ni mayda zarralar yirik zarralar tagiga tushadi, buning natijasida material ancha yahshi elanadi (saralanadi) ish unumdorligi ortadi va foydali ish koeffisienti taxminan 90

foizi tashkil etadi. Bunday g'alvirlarning ikkita asosiy guruhi mavjud: mexanik tebranma g'alvirlar va elektromagnitli tebranma g'alvirlar.

Mexanik tebranma g'alvirlar guruhi o'z navbatida yana uch xilga ajratiladi: ekstsentrikli g'alvirlar, zarb bilan ishlaydigan g'alvirlar va inversion g'alvirlar.

**Elektromagnitli tebranma g'alvirlar.** Bu g'alvirlarning ishi elektromagnit orqali o'zgaruvchan elektr toki o'tib turishiga asoslangan, shunday tok o'tganda elektromagnit g'alvir turini vaqt-vaqti bilan o'ziga tortadi. Elektromagnitli langarni ta'sir etishi natijasida to'r tebranadi. Elektromagnit tizimiga  $N=0,74-1,1$  kvv quvvatli elektr generator-motordan bir sekundiga davriyligi 8-15 yoki 30 bo'lgan o'garuvchan tok o'tib turadi. G'alvir turi 25-40 qiya joylashganligi va tebranib turganligi sababli g'alvirdagi material surilib, elanadi. Elektr generator-motor o'rnatish zarurligi bu kamchiliklarning kamchiligi xisoblanadi. G'alvirning ish unumdorligi xilma-xil omillarga bog'liq: Yotiq joylashgan tebranma g'alvirlar uchun

$$Q=0,65F*q*K1*K2 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Qiya joylashgan g'alvirlar uchun

$$Q=0,4*F*q*K1*K2 \text{ m}^3/\text{soat};$$

Bu yerda  $F$ -to'rning maydoni,  $q$ - $1\text{m}^2$  to'rning xisobdagi ish unumdorligi,  $K1$ -quyi sinfga mansub zarralar miqdori,  $K2$ -to'r ko'zi yarim o'lchamining kattaligi.

**Barabanli g'alvirlar.** G'alvirlarning bu turi tolqonsimon materiallarni saralashga mo'ljallangan bo'lib, qiya o'rnatilgan silindr, ba'zan esa kesik konus yoki to'r stakanli ko'pqirrali kesik prizma ko'rinishidadir. Ko'pqirrali barabanli g'alvirlar burat deb ataladi. Barabanli g'alvirlarning afzalligi shundan iboratki, ular sekin va ravon aylanadi, soda tuzilgan, lekin 1,3-3,5mm yiriklikdagi zarralar uchun foydali ish koefisientiga kichiklik qiladi. Tegirmon yopiq siklda ishlatilib, xom ashyo xo'l usulda tuyilgan xollarda yuzasi yoysimon kolosnikli g'alvirlardan foydalanish mumkin. Sement zavodlarida xom ashyo xo'l usulda tuyilganda bu agregardan suyuq holdagi material aralashmasini tayyor mahsulotga va takror tuyiladigan chala maxsulotga ajratish uchun foydalaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyot

1. Tursunov, B. A., Akramov, X. A., & Ismoilov, D. (2022). Producing of the optimal ingredients of multi-component cements and research of the physical-mechanical properties. *Open Access Repository*, 8(7), 49-53.
2. Dilshod, I. (2022). PRODUCING OF THE OPTIMAL INGREDIENTS OF MULTI-COMPONENT CEMENTS AND RESEARCH OF THE PHYSICAL-MECHANICAL PROPERTIES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(11), 90-92.
3. Ismoilov, D. (2022). CALCULATION OF THE POWER OF THE GRINDER ELECTRIC MOTOR. *Science and Innovation*, 1(7), 629-633.
4. Шавқиев, А., & Исмоилов, Д. (2022). БИНО ВА ИНШОТЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ МАТЕРИАЛЛАР АСОСИДА ҚУРИШДА ГАЗОБЕТОНДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЭНЕРГИЯ

- САМАРАДОРЛИГИ. *Science and innovation in the education system*, 1(5), 80-87.
5. Ismoilov, D. (2022). JAG ‘LI MAYDALAGICHNING ELEKTRODVIGATELI QUVVATINI HISOBLASH. *Science and innovation*, 1(A7), 629-633.
  6. B.A.Tursunov, X.A.Akramov, D.Ismoilov “Producing of the optimal ingredients of multi- component cements and research of the physical-mechanical properties ”. Novateur publications Journalnx- AmultidisciplinaryPeerreviewedjournal issn no: 2581 - 4230 volume 8, issue 7, july-2022.

**KONUSLI MAYDALAGICH VA UNING ISHLATILISHI**

*Ismoilov Dilshod Jo'raqul o'g'li*  
*Jizzax Politexnika Instituti asistenti*

*Raxmonov S, Maxmudov U, Muxtorov U, Muxtorov S, Nazarov A, Qosimova D,*  
*Saparov D*  
*812-20 D va PQMT guruhi talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yirik o'lchamdagi tog' jinslarini maydalash va beton uchun ishlatiladigan yirik va mayda to'ldiruvchilarning kerakli bo'lgan fraksiyalarini hosil qilishda konusli maydalagichning elektrodvigateli quvvatini hisoblash natijalari asosida konusli maydalagichning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida xulosa qilinadi.

**Kalit so'zlari.** *Konusli maydalagich, elektrodvigatel, maydalanadigan material, tog' jinslari.*

**Аннотация.** В этой статье крупномасштабное дробление горных пород и бетона. Получение необходимых фракций крупных и мелких наполнителей, используемых для по результатам расчета мощности электродвигателя конусной дробилки сделаны выводы о преимуществах и недостатках конусной шлифовальной машины.

**Ключевые слова.** Конусная дробилка, электродвигатель, дробленый материал, скалы, мусташка.

**Annotatsion.** In this article, large-scale rock crushing and concrete Obtain the necessary fractions of large and small fillers used for based on the results of calculating the power of the electric motor of the cone crusher the advantages and disadvantages of the cone grinder are concluded.

**Keywords.** Cone crusher, electric motor, crushed material, rocks.

Konusni maydalagich Konus maydalagich - bu katta maydalash nisbati, yuqori samaradorlik va bir xil mahsulot donadorligiga ega bo'lgan ekstruzion maydalovchi uskunalarning bir turi. Konusli maydalagich o'zining konstruktiv xususiyatlariga ko'ra qattiqligi yuqori bo'lgan har xil tosh materiallarni maydalashga yaroqlidir va turli xil metall rudalarini, daryo toshlarini, granit va diabazani maydalashda keng qo'llaniladi. Bizning assortimentimizda turli xil vazifalar uchun mo'ljallangan va turli vaziyatlarda qo'llaniladigan turli xil mahsulotlar mavjud. Eng yangi texnologiyalar va yuqori malakali mutaxassislar tufayli ushbu mahsulotlar yuqori sifatli materiallardan tayyorlanadi, shuning uchun xizmat muddati uzoq.



*1-rasm . PSJ Konusni Maydalagich: PSG konusning maydalagichi eng ilg'or texnologiya asosida ishlab chiqilgan. PSG metall va metall bo'lmaganlar, tsement, qurilish, qum va tosh metallurgiyasida keng qo'llaniladi. Temir rudalari, rangli metallar rudalari, granit, ohaktosh, bazalt, shag'al uchun qo'llaniladi. va boshqalar.*

Materiallarni konusli maydalagichlarda maydalash, jag'li maydalagich kabidir, lekin konusli maydalagichda yuk tushurish uzluksiz amalga oshiriladi. Maydalash zapasini ketma-ket aylanma bo'ylab bo'lishi maydalagichni ish unumdorligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari konusli maydalagichlarning ustunliklariga quyidagilar kiradi:

- harakatdagi qismlarning yuqori sokinligi;
- maydalagichning ishga tushirilishi materiallar to'lig'ida ham;
- ish vaqtidagi ishonchlik va boshqalar.

Konusli maydalagichlar quyidagi xususiyatlarga ega.

Texnologik jihatdan:

